

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**O. M. AZIZOV**

**DAVLAT SOLIQLARI VA YIG'IMLARI**

Bilim sohasi: 300000 – Ijtimoiy fanlar biznes va  
huquq  
Ta'lif sohasi: 340000 – Biznes va boshqaruv  
Ta'lif yo'nalishi: 5A340801 – «Soliqlar va soliqqa  
tortish»  
va 5A340601 – «Davlat moliyasini boshqarish» magistratura  
mutaxassisliklari uchun

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif  
vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar  
faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan o'quv  
qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

Toshkent-2011

## **Taqrizchilar:**

### **Xudoyqulov S.K.**

i.f.n., dotsent, Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti “Moliya va soliqlar” kafedrasi mudiri

### **To’rayev Sh.**

i.f.n., dotsent, O’zbekiston Respublikasi DJQA huzuridagi Oliy biznes maktabi bo’lim boshlig’i

### **Azizov O. M. Davlat soliqlari va yig’imlari.: O’quv qo’llanma. – Т.:, 2011. – 164 bet.**

Ushbu o’quv qo’llanmada O’zbekiston Respublikasi soliq tizimi, soliq tizimining tarkibiy tuzilishi, soliq tizimini isloh qilish sharoitida olib borilayotgan soliq siyosatining asosiy yo’nalishlari, umum davlat soliqlari va yig’imlarining o’ziga xos xususiyatlari, yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish masalalari, davlat boji hamda majburiy to’lovlar va yig’imlarni hisoblash va byudjetdan tashqari fondlarga undirish mexanizmi o’z aksini topgan.

O’quv qo’llanma oliy va kasb-hunar ta’limining iqtisodiy ta’lim yo’nalishlari talabalari, moliya va soliq mutaxassislari, bank xodimlari, buxgalterlar, auditorlar, professor-o’qituvchilar va ilmiy tadqiqotchilarga mo’ljallangan.

### **Азизов О. М. Государственные налоги и сборы. Учебное пособие. – Т.:, 2011, 164 с.**

В настоящем учебнике представлены основы налоговой системы, теория и практика налогов и сборов в Республике Узбекистан. В ней достаточно подробно рассматриваются виды государственных налогов и сборов, объекты обложения, порядок их исчисления и уплаты в бюджет, предоставления льгот а также платежи во внебюджетные фонды.

Учебник предназначен для студентов экономических специальностей вузов, колледжей и лицеев, изучающих курс «Налоги и налогообложение», «Налоговая система», а также для более широкого круга читателей, интересующихся вопросами налогообложения.

**Azizov O.M. State taxes and dues. The textbook. - T.:,  
2011, 164 p.**

In the present textbook bases of tax system, the theory and practice of taxes and tax collections in Republic of Uzbekistan are submitted. In it kinds of the state taxes, dues, objects of taxation, the order of their calculation and payment in the budget, granting's of privileges are in detail enough considered.

The textbook is intended for students of economic specialties of high schools, colleges studying a rate «Taxes and the taxation», «Tax system», and also for more broad audience of the readers who are were interested in questions of the taxation.

© O. M. Azizov 2011.

## MUNDARIJA

Kirish	9
<b>I – bob. «Davlat soliqlari va yig’imlari» fanining predmeti va o’rganish usullari</b>	10
1.1.«Davlat soliqlari va yig’imlari» fanining predmeti va o’rganish usullari	10
1.2. «Davlat soliqlari va yig’imlari» fanini o’qitishning zarurligi, uning boshqa fanlar bilan o’zaro bog’liqligi	11
1.3. «Davlat soliqlari va yig’imlari» fanining mutaxassis kadrlarni tayyorlashdagi roli	12
<b>II- bob. O’zbekiston soliq tizimida davlat soliqlari va yig’imlarini undirish uslubiyoti va uni takomillashtirish yo’llari</b>	15
2.1.O’zbekiston Respublikasi soliqqa tortish tizimida amalda bo’lgan davlat soliqlari va yig’imlari hamda ularni amal qilish doirasi	15
2.2.Soliqqa tortish maqsadida yuridik shaxs tushunchasi. Soliq to’lovchilarni aniqlash asoslari	24
2.3. Davlat soliqlari va yig’imlari bo’yicha soliq to’lovchilarning javobgarligi va ma’suliyati	25
<b>III – bob. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda soliqi va yagona soliq to’lovini hisoblash va byudjetga to’lash tartibini takomillashtirish masalalari</b>	28
3.1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig’inинг iqtisodiy mohiyati	28
3.2. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig’i to’lovchilari, soliq ob’ektini aniqlash va soliqqa tortish tartibi	30
3.3. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig’i stavkalari va to’lov muddatlari	53
3.4 Yagona soliq to’lovi	55
<b>IV- bob. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish masalalari</b>	67
4.1. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqning to’lovchilari va soliq ob’ekti va jami yillik daromadi tarkibi	67
4.2. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqning stavkalari va soliqdan beriladigan imtiyozlar	74

4.3. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni hisoblash tartibi, hisobotlar, hisob-kitoblar va deklaratsiyalar taqdim etish mexanizmi	87
4.4. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliqni hisoblash va to'lash tartibi	90
<b>V- bob. Qo'shilgan qiymat solig'idan samarali foydalanishni tashkil etish masalalari</b>	97
5.1. Qo'shilgan qiymat solig'ini iqtisodiy mohiyati va uning hisoblash mexanizmi	97
5.2. Qo'shilgan qiymat solig'i imtiyozlari	99
5.3. QQSni hisobga olish tartibi	106
5.4. Hisobvaraq – fakturani yuritish tartibi	108
5.5. QQSni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi	110
<b>VI – боб. Aktsiz solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibini takomillashtirish masalalari</b>	114
6.1. Aktsiz solig'ini iqtisodiy mohiyati va uning hisoblash mexanizmi	114
6.2. Aktsiz solig'i stavkalari	116
6.3. Aktsiz solig'i bo'yicha hisob-kitobni taqdim etish tartibi	118
<b>VII- боб. Resurslardan samarali foydalanishda er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va maxsus to'lovlearning ahamiyati</b>	121
7.1. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va maxsus to'lovlearning iqtisodiy mohiyati va ularni hisoblash mexanizmi	121
7.2. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari	123
7.3. Maxsus to'lovlarni undirish tartibi	124
<b>VIII- боб. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va byudjetga to'lash tartibini takomillashtirish masalalari</b>	128
8.1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni iqtisodiy mohiyati va uni hisoblash mexanizmi	128
8.2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari	129
8.3. hisobot taqdim etish va to'lash muddatlari	130
<b>IX- боб. Davlat boji</b>	132

9.1. Davlat boji to'lovchilari va uni undiruvchi vakolatli organlar	132
9.2. Davlat boji imtiyozlari	133
9.3. Davlat bojini to'lashning o'ziga xos xususiyatlari	142
<b>X - 6o6. Byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar va to'lovlarning mohiyati</b>	152
10.1 Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini amalga oshirishni takomillashtirish	152
10.2 Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar mexanizmi	154
10.3 Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlarni amalga oshirish tartibi	155
<b>Izohli lug'at</b>	160
<b>Foydalanaligan adabiyotlar ro'yxati</b>	163

## СОДЕРЖАНИЕ

<b>Введение</b>	9
<b>Глава I. Предмет и методы обучения курса «Государственные налоги и сборы»</b>	10
1.1 Предмет и методы обучения курса «Государственные налоги и сборы»	10
1.2 Необходимость обучения курса «Государственные налоги и сборы» и взаимосвязь его с другими предметами	11
1.3 Роль в подготовке кадровых специалистов курса «Государственные налоги и сборы»	12
<b>Глава II. Методология взимания государственных налогов и сборов в налоговой системе Узбекистана и их совершенствование</b>	15
2.1 Функционирование государственных налогов и сборов в системе налогообложения Узбекистана и практическое их применение	15
2.2. В целях налогообложения понятие юридических лиц. Основы определения налогоплательщиков	24
2.3. Ответственность и обязанности налогоплательщиков по уплате государственных налогов и сборов	25
<b>Глава III. Исчисление налога на прибыль юридических лиц и вопросы совершенствования их уплаты в бюджет</b>	28
3.1 Экономическая сущность налога на прибыль юридических лиц	28
3.2 Плательщики налога на прибыль юридических лиц, объекты налогообложения и порядок исчисления облагаемой прибыли	30
3.3 Ставки налога на прибыль и порядок его зачисления в бюджет, порядок составления и представления расчетов налога и сроки уплаты	53
3.4 Единый налоговый платеж	55
<b>Глава IV. Вопросы совершенствование налогообложения доходов физических лиц</b>	67
4.1 Плательщики налога на доходы физических лиц и объект налогообложения а также структура совокупного годового дохода	67
4.2 Ставки налога на доходы физических лиц и льготы по	74

налогу	
4.3 Порядок исчисления налога на доходы физических лиц, представление расчетов, отчетов а также механизм представления декларации и уплаты налога по ним	87
4.4 Порядок исчисления и уплаты фиксированного налога по физическим лицам занимающиеся предпринимательской деятельности	90
<b>Глава V. Вопросы организации эффективного использования по налогу на добавленную стоимость</b>	97
5.1 Экономическая сущность налога на добавленную стоимость и механизм их исчисления	97
5.2 Льготы по налогу на добавленную стоимость	99
5.3 Порядок определения суммы налога, подлежащего уплате в бюджет и суммы НДС, относимого в засчет	106
5.4 Счета-фактуры	108
5.5 Сроки уплаты налога и представления расчетов	110
<b>Глава VI. Исчисление и уплата акцизного налога в бюджет</b>	114
6.1 Экономическая сущность акцизного налога и механизм их исчисления	114
6.2 Ставки акцизного налога	116
6.3 Сроки представления расчетов, отчетов и уплаты налога	118
<b>Глава VII. Налог за пользование недрами и специальные платежи</b>	121
7.1 Экономическая сущность налога за пользование недрами и механизм их исчисления	121
7.2 Ставки налога за пользование недрами	123
7.3 Механизм исчисления специальных платежей	124
<b>Глава VIII. Налог за пользование водными ресурсами</b>	128
8.1 Экономическая сущность налога за пользование водными ресурсами и механизм их исчисления	128
8.2 Ставки налога за пользование водными ресурсами	129
8.3 Представление расчетов и уплата налога	130
<b>Глава IX. Государственная пошлина</b>	132
9.1 Плательщики государственной пошлины и уполномоченные органы по их взиманию	132
9.2 Льготы по уплате государственной пошлины	133
9.3 Особенности уплаты государственной пошлины	142
<b>Глава X. Платежи и обязательные отчисления в</b>	152

<b>государственные целевые фонды и их значение</b>	
10.1 Единый социальный налог и совершенствование взимания взноса с физических лиц на социальное страхование в Пенсионный фонд	152
10.2 Механизм обязательных отчислений в Пенсионный фонд	154
10.3 Механизм обязательных отчислений в Дорожный фонд	155
<b>Глоссарий</b>	160
<b>Список использованной литературы</b>	163

## THE CONTENTS

Introduction	9
The Chapter I. Subject and methods of the learning the course "State tax and dues"	10
1.1 Subject and methods of the learning the course "State tax and dues"	10
1.2 Need of the learning the course "State tax and dues" and intercoupling it with other subject	11
1.3 Role in preparation trained specialist course "State tax and dues"	12
The Chapter II. Methodology of the charging the state taxes and collection in tax system Uzbekistan and their improvement	15
2.1 Operating the state taxes and collection in system of the taxation Uzbekistan and practical their using	15
2.2.B purpose of the taxation notion juridical persons. Bases of the determination taxpayer	24
2.3. Responsibility and duties taxpayer on payment of the state taxes and collection	25
The Chapter III. Calculus of the tax on profit of the juridical persons and questions of the improvement of their payment in budget	28
3.1 Economic essence of the tax on profit of the juridical persons	28
3.2 Payers of the tax on profit of the juridical persons, objects of the taxation and order of the calculus of the taxed profit	30
3.3 Rates of the tax on profit and order of his(its) enrolment in budget, order of the formation and presentations payment tax and periods of the payment	53
3.4 United tax payment	55
The Chapter IV. Questions improvement taxations income physical persons	67
4.1 Payers of the tax on incomes of the physical persons and object of the taxation as well as structure of the total annual income	67
4.2 Rates of the tax on incomes of the physical persons and privileges on tax	74

4.3 Order of the calculus of the tax on incomes of the physical persons, presentation payment, reports as well as mechanism of the presentation to declarations and payment of the tax on him	87
4.4 Order of the calculus and payment of the fixed tax on physical persons concerning with business activity	90
The Chapter V. Questions to organizations of the efficient use on value added tax	97
5.1 Economic essence of the value added tax and mechanism of their calculus	97
5.2 Privileges on value added tax	99
5.3 Order of the determination of the amount of the tax, subjecting to payment in budget and amounts VAT, referred in зачет	106
5.4 Invoice	108
5.5 Periods of the payment of the tax and presentations payment	110
The Chapter VI. Calculus and payment of the excise tax in budget	114
6.1 Economic essence excise tax and mechanism of their calculus	114
6.2 Rates of the excise tax	116
6.3 Periods of the presentation payment, reports and payment of the tax	118
The Chapter VII. Tax for use depths and special payments	121
7.1 Economic essence of the tax for use depths and mechanism of their calculus	121
7.2 Rates of the tax for use depths	123
7.3 Mechanism of the calculus of the special payments	124
The Chapter VIII. Tax for use water resource	128
8.1 Economic essence of the tax for use water resource and mechanism of their calculus	128
8.2 Rates of the tax for use water resource	129
8.3 Presentation payment and payment of the tax	130
The Chapter IX. State duty	132
9.1 Payers of the state duty and accredited organs upon their charging	132
9.2 Privileges on payment of the state duty	133
9.3 Particularities of the payment of the state duty	142

The Chapter X. Payments and obligatory deductions in state target funds and their importance	152
10.1 United social tax and improvement of the charging the donation with physical persons on social insurance in Pension fund	152
10.2 Mechanism of the obligatory deductions in Pension fund	154
10.3 Mechanism of the obligatory deductions in Road fund	155
Glossary	160
List of the used literature	163

## Kirish

Iqtisodiyotni liberallashtirish, modernizatsiyalash va islohotlarni chuqurlashtirish siyosati iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida turli mulkchilik shakllarida faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlarida ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil qilishning demokratik printsiplarga muvofiq shakllantirishni hayotiy zaruriyatga aylantirmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, iqtisodiyotimizda erishilgan natijalar negizida avvalo bozor islohotlari va mamlakatni modernizatsiya qilishning puxta o'ylangan modeli va uzoq muddatga mo'ljallangan dasturini bosqichma-bosqich amalga oshirish bo'yicha olib borilayotgan tizimli, izchil va qat'iy harakatlar turganini kuzatish qiyin emas.<sup>1</sup>

Bugungi kunning eng dolzarb muammosi — bu 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning ta'siri va salbiy oqibatlari, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llarini izlashdan iborat.<sup>2</sup>

Iqtisodiyotimizning real sektorining yukini osonlashtirish, soliqlarini kamaytirish va davlat tomonidan yordam berish, ishlab chiqarish sohasini ichki bozorning talab va ehtiyojlarini qondirish uchun qaratish, iste'mol tovarlarini tayyorlaydigan tarmoqlarga, kichik biznes va tadbirkorlik, fermerlik harakatiga keng yo'l ochish va qo'shimcha imtiyozlar berish, ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasini, qishloq taraqqiyotini mamlakatimiz rivojining yetakchi kuchi sifatida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarishga alohida ahamiyat berilmoxda.<sup>3</sup>

Har qaysi davlatning iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida yuzaga chiquvchi soliq siyosati bir tomonidan davlatning xazinasi(byudjeti)ni yetarli miqdorda moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashga xizmat qilsa, boshqa tomonidan davlat tomonidan iqtisodiyotni oqilona tartiblashning eng qulay va samarali vositasi sifatida katta ahamiyatga ega bo'ladi. Soliq siyosatining o'zagini esa soliq strategiyasi va taktikasi tashkil etadi. Soliq strategiyasi va taktikasining mazmuni va yo'nalishi

<sup>1</sup> «Xalq so'zi» 2008 yil 9 fevral.- №29

<sup>2</sup> I.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, o'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. Toshkent, 2009 yil mart

<sup>3</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Toshkent shahrining 2200 yilligiga bag'ishlangan tantanali majlisdagi nutqi. «Xalq so'zi» 2009 yil 4 sentyabr.

davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy – iqtisodiy sohadagi islohotlarning mazmuni, davlatning iqtisodiy sohadagi belgilab olingan strategiyasi, iqtisodiyotga ta’sir etish usul va vositalarining shakli qolaversa mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga monand holda bog’liq bo’ladi.

Mazkur o’quv qo’llanmaning asosiy qismida davlat, ya’ni respublika byudjetiga kelib tushadigan soliqlar, boj va yig’imlar hamda byudjetdan tashqari fondlarga majburiy to’lovlar mexanizmi o’rganiladi.

Davlat soliqlari va yig’imlarning to’lovchilari, ob’ekti, soliqqa tortiladigan bazasi, imtiyozlari, mexanizmi, hisobotlarni taqdim etish va soliqlarni byudjetga o’tkazish muddatlari va boshqa muammolar, misollar, jadvallar ushbu qo’llanmada o’z ifodasini topgan.

## I - bob.

### «Davlat soliqlari va yig’imlari» fanining predmeti va o’rganish usullari

#### 1.1 «Davlat soliqlari va yig’imlari» fanining predmeti va o’rganish usullari

Ma’lumki, har qanday fan o’z o’rganish sohasiga ega bo’ladi va jamiyatda yuz beradigan voqeyliklarning yuzaga kelishi, shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlarning o’ziga xos xususiyatlarini o’rganishga xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, mazkur «Davlat soliqlari va yig’imlari» fani ham iqtisodiyotdagi aniqrog’i davlat byudjetiga yo’naltiriladigan soliqlar va yig’imlarning mohiyati, amal qilish holati hamda bu soliqlarni to’lovchilar tomonidan to’lanish jarayonining o’ziga xos xususiyatlari bilan bog’liq jarayonlarni o’rganishga xizmat qiladi. Fanning predmetini aniqlash uning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi hamda fanning yo’nalishini aniqlab beradi. Shunday ekan ushbu fanning predmetini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

«Davlat soliqlari va yig’imlari» fanining predmeti bu - davlat byudjetiga yo’naltiriladigan soliqlar va yig’imlarning yuzaga kelishi, shakllanishi, rivojlanish tendentsiyasi hamda amal qilish qonuniyatlari bilan bog’liq muammoviy holatlar, shuningdek, soliq to’lovchilardan ushbu soliqlarni undirish bilan bog’liq iqtisodiy munosabatlardir.

Fanning predmeti soliq voqe’liklari pul munosabatlarini o’rganishdan iborat bo’ladi. Bu pul munosabatlari soliq to’lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o’z mulkiga aylantiruvchi (soliq oluvchi) davlat o’rtasidagi munosabatlardir. Fanning mohiyati shu o’rtadagi munosabatni chuqur o’rganish, ularni to’g’ri tashkil qilishni ta’minlashdir. To’g’ri tashkil etish deganda soliq munosabatida qatnashuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatini e’tiborga olish, muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilish tushuniladi. Bu muvozanatni saqlashda tomonlar adolatlik va insoflik tamoyiliga amal qilishi zarur. Tushunarliroq qilib aytsak, byudjetga soliqlarni olishda soliq to’lovchilar bo’yniga ortiqcha og’irlik yuklamaslik, ularni o’z ishlab chiqarishidan manfaatdorligini so’ndirib qo’ymaslik, ularning dasturlari va rejalarini tez - tez

o'zgartirishga olib bormaslik va hokazolarga e'tibor berish ko'zda tutiladi. Bu yerda tomonlarning do'stona munosabatda bo'lishi, bozor iqtisodiyoti talablariga mos iqtisodiy munosabatlar bo'lishini o'rgatadi. Fanning predmetini chuqur o'rganish shuni ko'rsatadiki, munosabatlarda bir tomonlama fiskallik munosabati bo'lg'uday bo'ladi, ikkinchi tomon unga javoban o'z daromadlari, boshqa soliq ob'ektlarini har xil yo'llar bilan yashiradi. Bunday hollarda har qanday huquqiy hujjatlar ham etarlicha samara bermay qolishi mumkin. Daromadlarni, soliq ob'ektlarini yashirish holati ham munosabatlarni buzadi.

Demak, «Davlat soliqlari va yig'imlari» fanini chuqur o'rganish orqali amaliyotda soliq tushumlari rejalarini muvaffaqiyatli bajarish vazifasiga ham erishish mumkin.

Fanning funktsiyalari soliq mutaxassisni va boshqa soliq idoralari xodimlarini nazariy jihatdan qurollantirish hamda amaliyotda adashmaslik uchun yo'l – yuriqlar ko'rsatishdan iboratdir. Shuningdek, chet el soliq amaliyotini o'rganish va taqqoslash asosida tegishli xulosalar ishlab chiqish, ularning ish tajribalarini o'zimizning amaliyotga moslab zarur joylarini tadbiq etishdan iboratdir.

Demak, fanning asosiy funktsiyasi yuqori malakali soliq mutaxassislari tayyorlashda ularni ham nazariy, ham amaliy jiqtadan uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlashdir.

Har qanday fanning oldida turgan eng asossiy masalalardan biri bu o'z tadqiqot ob'ektini(o'rganish sohasi) to'g'ri aniqlash bo'lsa, ikkinchidan, aniqlangan predmetni tez va chuqur tadqiq etishda qaysi usullardan foydalanishni hal etish hisoblanadi. Bizga ma'lumki, barcha iqtisodiy fanlar uchun umumiyl metodologik yo'nalishni «Iqtisodiyot nazariyasi» fani beradi. Shunday ekan, fanni o'rganishda ushbu fanning o'rganish usullaridan foydalanishni taqozo etadi. Bu usullar jumlasiga empirik, abstraktsiya, induktiv, deduktiv, sifatiy, miqdoriy, tarixiylik, mantiqiylik usullar kirib, «Davlat soliqlari va yig'imlari» fani ob'ektini o'rganishda ham ushbu usullardan foydalanish katta samara beradi. Biroq, har qaysi fan predmetini o'rganishda umumiyl usullar bilan bir qatorda o'ziga xos maxsus usullardan ham foydalaniladi. Bunday usullar qatoriga sintez usuli, tahlil usuli, taqqoslash usuli, dasturlash usuli va shu kabi usullarni kiritish mumkin. Bu usullar orqali «Davlat soliqlari va

yig’imlari» fanining mohiyatini, davlat soliqlari va yig’imlarini hisoblash, undirish, ularning holatini tahlil etish, boshqa turdosh soliq turlari bilan taqqoslash, ularni hisoblash va tahlil etishda tezkor dasturiy vositalardan foydalanish imkoniyati tug’iladi.

## **1.2. «Davlat soliqlari va yig’imlari» fanini o’qitishning zarurligi, uning boshqa fanlar bilan o’zaro bog’liqligi**

Bu fanni o’qitishning zarurligi bozor iqtisodiyoti munosabatlari ichida soliq munosabatlarining ahamiyati o’sib borayotganligidan kelib chiqadi.

«Davlat soliqlari va yig’imlari» fani soliq voqe’liklarini (harakatlarini) chuqur o’rganish asosida zaruriy xulosalar chiqarib, ularni amaliyotga tadbiq etish yo’llarini o’rgatadi.

«Davlat soliqlari va yig’imlari» fani soliq amaliyotidagi eng to’g’ri, eng mukammal va eng progressiv voqe’liklarni o’rganib, amaliyot uchun xuddi bir dasturiy amalday yoritib boradi. Nazariya voqe’liklarni amaliyotdan oladi va yana amaliyotga eng to’g’ri, ma’qul va ilg’or tajribalar olinib amaliyotga yo’l ko’rsatish uchun o’rgatiladi. Demak, nazariya amaliyot uchun kerak va amaliyot uchun kompas, barometr, yo’l boshlovchi vazifasini bajaradi.

«Davlat soliqlari va yig’imlari» fanini o’qitishning zarurligi amaliyotda yo’ldan adashmaslik, ayrim soliqlar bo’yicha kerakciz o’zgartishlarga yo’l qo’ymaslik, amaliyotda istiqbolli qadamlar tashlash uchun va katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun ham zarurdir.

«Davlat soliqlari va yig’imlari» fani «Soliq nazariyasi» fani bilan chambarchas bog’liqdir, uning maxsus bo’limi, ya’ni chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan bo’limidir. Chunki soliq nazariyasi qonuniyatları umum iqtisodiy nazariya qonuniyatlaridan chetga chiqib keta olmaydi, ularga asoslanadi va rivojlantiriladi.

Soliq munosabatlari moliya munosabatlarining tarkibiy qismi bo’lganligi bois, «Davlat soliqlari va yig’imlari» fani ham «Moliya nazariyasi» fani bilan chambarchas bog’liq. Chunki, davlat soliqlar va yig’imlarining o’zi molivaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Soliqlar albatta byudjetga borib tushishligi, soliqlarning milliy daromadni taqsimlash jarayonida qatnashishi va markazlashtirilgan pul fondlarini moliyaviy resurslar bilan

ta'minlashi albatta «Moliya» fani bilan bog'liqlikni keltirib chiqaradi. «Davlat soliqlari va yig'imlari» fanining o'ziga xos xususiyatlari soliq to'lovchilar bilan davlat byudjeti o'rtasidagi majburiy xarakterga ega bo'lgan pul munosabatlarini o'rgatadi. Bu esa «Davlat soliqlari va yig'imlari» fani bilan mustahkam bog'liqlikni bildiradi.

«Davlat soliqlari va yig'imlari» fani «Davlat byudjeti» fani bilan ham o'zaro bog'liqdir. Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, soliqlar oxir oqibatda byudjet daromadlarini shakllantiradi. Soliqlar (daromadlar) bo'lmasa byudjet munosabatlarining o'zi bo'lmaydi. Bu fan «Chet mamlakatlar soliq tizimi», «Buxgalteriya hisobi», «Soliq qonunchiligi asoslari», «Soliqlarni proqnoz qilish» fanlari bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shuningdek, «Davlat soliqlari va yig'imlari» fani o'z tadqiqot ob'ektini o'rganishda tezkor axborot va modellashtirish jarayonlaridan ham keng foydalanadi, busiz fan o'z oldiga qo'yilgan maqsadga erisha olmaydi. Bundan tashqari, soliqlar va yig'imlarning ta'sirchanligi, ularning to'g'ri amal qilish holatini hamda ularning dinamik holatini muntazam ko'zatib borish taqozo etiladiki, bu «Iqtisodiy tahlil» fani bilan bog'liqlikni bildiradi. «Davlat soliqlari va yig'imlari» fani ob'ektini o'rganishda miqdoriy va sifatiy ko'rsatkichlardan ham foydalaniladi, bu holat esa statistika faniga murojaat etishni talab etadi.

«Davlat soliqlari va yig'imlari» fani nafaqat iqtisodiy fanlar bilan shuningdek, o'z navbatida ijtimoiy fanlar bilan ham bog'liqlik holatida ham mavjud bo'ladi. Masalan, soliqlarning qachon paydo bo'lganligi haqida aniq xronologik ma'lumotlar yo'q, biroq,u yoki bu soliq turining ijtimoiy formatsiyalarning shakllarida qanday amal qilganligi haqida biz tarixiy dalillarga asoslanamiz. O'z navbatida soliqlar qachon paydo bo'lganligi xususidagi savolga biz mantiq fani usuliga asoslanib soliqlar bu davlat paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan degan xulosalarga tayanamiz. Bundan tashqari, soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligiga rioya etilishi va soliqlarni o'z vaqtida to'lashi bilan bog'liq jarayonlar hamda bu jarayonlarning samarasi soliq madaniyati bilan bevosita bog'liqdir.

Yuqoridagilardan ko'rindan, «Davlat soliqlari va yig'imlari» fani o'z mohiyatiga ko'ra turdosh va boshqa

iqtisodiy fanlar bilan bir qatorda ijtimoiy fanlar bilan bog'liq holatda o'z tadqiqot ob'ektini o'rganadi. Bu esa, barcha fanlar o'zaro dialektik holatda mavjud bo'lishligini bildiradi.

### **1.3. «Davlat soliqlari va yig'imlari» fanining mutaxassis kadrlarni tayyorlashdagi roli**

«Davlat soliqlari va yig'imlari» fani ham boshqa mutaxassislik fanlari singari birinchidan, iqtisodiy munosabatlarni o'rganishga xizmat qilsa, boshqa tomondan, iqtisodiyotning soliq sohasida faoliyat yurituvchi yuksak malakali mutaxassislarni tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Soliqlarning paydo bo'lishi davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lganligi uchun hamda hozirgi O'zbekistonda ijtimoiy himoyalangan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat uning tashkilotchisi ekanligidan «Davlat soliqlari va yig'imlari» fani davlatning o'ta zarur bo'lgan xilma - xil vazifalari bilan chambarchas bog'liq va ularga asoslanadi. Davlat mamlakatda yaratilgan yalpi mahsulot ishlab chiqarish uni taqsimlashning qonun - qoidalarini ishlab chiqadi. Bu taqsimlashdagi munosabat bozor iqtisodiyoti sharoitida pul orqali amalga oshirilganligidan davlat uni taqsimlashni ham pul munosabatlari orqali, ya'ni soliq, pul va kredit orqali amalga oshiradi. Davlatning bunday faoliyatini o'rganish -«Davlat soliqlari va yig'imlari» fani orqali diqqat - markazida turadi.

Bozor iqtisodiyoti talab va taklif, raqobat, qiymat va boshqa qonunlar orqali amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti - erkin iqtisodiyot, pulli munosabatlar iqtisodiyotidir. Soliqlar ham pul munosabatlarini ifoda etganligi uchun bozor iqtisodiyoti tarkibiga kiradi, uning ajralmas qismidir.

Bozor iqtisodiyoti qonunlari - -«Davlat soliqlari va yig'imlari» fanining asosini tashkil etadi. U qonunlarni chuqur anglamasdan turib soliqlar va soliqqa tortish mexanizmini tushunib bo'lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti qonunlarini o'rganib chiqib, davlat yalpi ichki mahsulot qiymatini soliqlar orqali taqsimlash vazifasini o'z zimmasiga oladi. Shunday ekan, davlat to'g'risidagi ta'limot - davlat iqtisodiyotni boshqarishda bosh rol o'ynashi - «Davlat soliqlari va yig'imlari» fanining asosi bo'lib xizmat qiladi. Davlat bozor iqtisodiyotini boshqarishda yetakchilik,

boshqaruvchilik rolini o'ynaydi. Davlat soliqlarni iqtisodiy mohiyati va vazifalarini o'rganib chiqib, uni amaliyotga tadbiq qilishni o'z zimmasiga oladi.

«Davlat soliqlari va yig'imlari» faninig soliq xizmati xodimlarini tayyorlashdagi roli. Soliq xizmati xodimlari o'zlariga qonuniy hujjatlarda yuklangan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishlari uchun faqat amaliy jiqatdan soliqlarni bilibgina qolmasdan, soliqlarning mohiyati, belgilari, ularning ob'ektiv zarurligiga, davlatning soliq siyosati, soliqlar tizimi, soliqqa tortish tizimi, soliq idoralari tizimi va boshqalar kabi nazariy masalalarni chuqur bilishlari zarur. Buning uchun «Davlat soliqlari va yig'imlari» fanini chuqur o'rganish kerak. Fanning mazmunini chuqur egallagan har qanday mutaxassis soliqlar va soliqqa tortish jarayonini o'rganishda va ularni hayotga to'g'ri va to'liq tadbiq etishda adashmaydi. Shu boisdan bu fan soliq xizmati xodimlari, soliq sohasi vakillari, ilmiy xodimlar uchun o'zlarining ilmiy salohiyatlarini oshirishda katta rol o'ynaydi.

### **Qisqacha xulosalar**

Xulosa qilib aytish mumkinki, mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish soliq tizimiga ham maqarrar ta'sir etadi. Soliq tizimi to'xtovsiz harakatlanuvchi mexanizm bo'lib, soliq islohatlari sharoitida takomillashib boradi.

Mamlakatimizda mustaqil soliq tizimi tashkil etilgandan xozirgacha bo'lган davr mobaynida ko'plab ijobjiy o'zgarishlarga erishildi. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromadlarining shakllantirishda etarli soliqlar va yig'imlar joriy qilindi. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismini o'rtacha 90-95 foizini soliqlar tashkil etadi.

Biroq, ijobjiy yutuqlarimiz bilan bir qatorda soliq tizimida muayyan muammolar ham yuzaga keldi. Bu muammolarni ijobjiy echimini topishda ayrim soliqlar va yig'imlar turlari bekor qilinib, ularni o'rniغا yangi soliq va yig'imlar turlari joriy etilmoqda.

### **Nazorat qilish savollari:**

1. «Davlat soliqlari va yig'imlari» fanini o'qitish nima uchun kerak?
2. «Davlat soliqlari va yig'imlari» fani nimani o'rgatadi?

3. «Davlat soliqlari va yig’imlari» fani o’z tadqiqot ob’yektni qanday usullardan foydalanadi?
4. «Davlat soliqlari va yig’imlari» fanining iqtisodiy fanlar bilan qanday bog’liqlikda bo’ladi?
5. «Davlat soliqlari va yig’imlari» fani ijtimoiy fanlar bilan qaysi holatlarda o’zaro bog’lanadi?
6. «Davlat soliqlari va yig’imlari» fanining yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashda qanday ahamiyati bor?

## **II- bob.**

### **O'zbekiston soliq tizimida davlat soliqlari va yig'imlarini undirish uslubiyoti va uni takomillashtirish yo'llari**

#### **2.1.O'zbekiston Respublikasi soliqqa tortish tizimida amalda bo'lgan davlat soliqlari va yig'imlari hamda ularni amal qilish doirasi**

Soliqlar bu - xo'jalik yurituvchi sub'yektlar (jismoniy va yuridik shaxs)lardan davlatning moliyaviy resurslarga bo'lган ehtiyojini qondirish maqsadida qonun yo'li bilan majburiy tartibda muayyan stavka va muddatlarda undiriladigan va byudjetga yo'naltiriladigan majburiy to'lovlar yig'indisidir. Shuningdek, soliqlar iqtisodiy kategoriya bo'lganligi uchun bozor iqtisodiyoti munosabatlari, shu jumladan, moliyaviy munosabatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Bozor iqtisodiyoti erkin iqtisodiyotdir, ya'ni har bir huquqiy shaxs, tadbirkor o'z tovariga erkin baho belgilashi, mahsulot yyetkazib beruvchini topishi va o'zi iste'molchini topib unga mahsulotni sotish huquqiga ega. Shuning uchun davlat ularning bir qism daromadlarini taqsimlab, byudjetga oddiy ajratma sifatida ololmaydi. Soliq qilib olish uchun Oliy majlisning qarori zarur, ya'ni qonun bilan olingan to'lov byudjetga o'tadi. Erkin iqtisodiyot sharoitida soliqlar ham erkin, ochiq, aniq bo'ladi, demokratik to'lovga aylanadi.

Soliqlar iqtisodiy kategoriya bo'lganligidan to'lovchilar va byudjet o'rtasida daromadlar taqsimlanayotganda tomonlarning iqtisodiy manfaatini, albatta, e'tiborga olish zarur. Soliq to'lovchilar daromadini davlat istaganicha ololmaydi, soliqlarni byudjetga olishning ma'lum chegarasi mavjud. Bu haqda ko'plab yirik iqtisodchilar va mutaxassislar o'z asarlarida ko'rsatib o'tgan. Uni davlat, shu bilan birga soliq to'lovchilarning mahsulot ishlab chiqarish va foyda olishdagi faoliyatini hisobga olib soliq belgilanadi. Ikkinci tomondan, soliqlardan makroiqtisodiyotni rivojlantirish, bozor infratuzilmasini yaratish va boshqa umumdavlat maqsadalari uchun etarli molyaviy resurslar to'plash uchun foydalilanadi. Soliqlar mohiyati soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasidagi doimiy, o'zoq muddatli munosabatlarda o'z ifodasini topadi. Aniqroq aytsak bu yerda iqtisodiy munosabat, ya'ni pul munosabati mavjuddir.

Bir xil mohiyatga ega va o'zaro munosabatda bog'liq bo'lган markazlashgan pul fondini va davlatning boshqa fondlarini majburiy tartibda tashkil etadigan soliq va yig'imlar turlarining yig'indisiga *soliq tizimi* deb ataladi. Bu ta'rif soliq va yig'imlar yagona mohiyat, ya'ni «Majburiy xarakterga ega bo'lган munosabat» va ularning bir-biri bilan bog'liqligi va nihoyat byudjetga tushishligini ko'rsatadi. Bu O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi mazmuniga mos keladi

Yangi tahrirdagi Soliq Kodeksining 3-bobida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tizimi yoritilgan bo'lib, uning 23-moddasida esa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining turlari ko'rsatib o'tilgan.<sup>4</sup>

O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar amal qiladi.

Soliqlarga quyidagilar kiradi:

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 3) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 4) aktsiz solig'i;
- 5) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig'i;
- 8) yer solig'i;
- 9) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- 10) jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

Boshqa majburiy to'lov larga quyidagilar kiradi:

- 1) ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar:
  - yagona ijtimoiy to'lov;
  - fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;
  - byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
- 2) Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar:
  - Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar;

---

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi.-T.: «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami» nashriyoti, 2007 yil.- 211 bet.

- Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar;
- 3) davlat boji;
- 4) bojxona to'lovlari;
- 5) ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatharni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

Yuqorida ko'rsatilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardir umumbelgilangan soliqlardir.

Belgilangan hollarda va tartibda soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan quyidagi soliqlar qo'llanilishi mumkin:

- yagona soliq to'lovi;
- yagona yer solig'i;
- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

Umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlarga quyidagilar kiradi (stavkalar 2009 yil uchun):

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i (asosiy soliq stavkasi-10%);
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (12;17;22 foiz);
- 3) qo'shilgan qiymat solig'i (0; 20 foiz);
- 4) aktsiz solig'i (14 tur aktsizosti tovarlarga);
- 5) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlari (50 dan ortiq turdag'i qazilma boyliklariga soliq syavkalari mavjud);
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (yer osti va usti suvlaridan soliq);
- 7) yagona soliq to'lovi (asosiy stavka 8 va 7%);
- 8) tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq (faoliyat turlari bo'yicha minimal ish haqi miqdorida).
- 9) yagona ijtimoiy to'lov (24%);
- 10) fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari (3,5%);
- 11) byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar (yalpi tushumdan-0,7%);
- 12) Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlari (1 va 1,5 foiz);
- 13) davlat boji;

14) bojxona to'lovlari;

Mahalliy soliqlar va boshqa to'lovlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) mol-mulk solig'i (yuridik shaxslar uchun 3,5%; jismoniy shaxslar uchun 0,5%);

2) yer solig'i (qat'iy stavkalarda so'mda), yagona yer solig'i (yerning me'yoriy qiymatidan 3,5%);

3) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i (8%);

4) jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq (1 litr (kg) yoqilg'i uchun 120 so'm).

5) ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im (alkogol uchun 5 minimal ish haqi; qimatbaho toshlar-3,5).

Davlat umummilliy dasturlarini amalga oshirish davrida tegishli jamg'armalar tashkil etilishi mumkin bo'lib, ularga qonun hujjatlarda nazarda tutilgan tartibda majburiy to'lovlar belgilanadi deb ko'rsatilgan bo'lib, ushbu jamg'armaga Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga ajratma (yalpi tushumdan 1%) kiradi.<sup>5</sup>

Yuqorida soliqlar, yig'imlar va majburiy to'lovlarning umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo'linishini tahlil qildik. Bundan ko'rinish turibdiki, umumdavlat soliqlariga 14 ta soliq va boshqa to'lovlar kiradi, mahalliy soliq va boshqa to'lovlarga esa 5 ta soliq va to'lov turlari to'g'ri kelmoqda. Ammo shuni ko'rsatib o'tish lozimki, yuqoridagi barcha soliq va to'lovlarni bitta yirik korxona ham to'lamaydi. Buni isboti sifatida quyida yirik korxonani misol qilib keltiramiz:

#### 1-jadval

“O’zneftmahsulot” aktsiyadorlik kompaniyasi korxonalari tomonidan 2006-2007 yillarda byudjet va byudjetdan tashqari fondlarga soliqlar va to'lovlar bo'yicha tahlil

Nº	Ko'rsatkichlar	2006 yilda hisoblangan soliqlar	2007 yilda hisoblangan soliqlar	Farqi, o'sish (+/-)
1.	Yuridik shaxslar daromad	11 587 133	22 936	+ 97.9

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi.-T.: «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami» nashriyoti, 2007 yil


2.	Jismoniy shaxslar daromad	1 967 257	2 311 176	+ 17.5
3.	Obodonlashtirish va ijtimoiy <i>infrastruktur va sivil tsentrish</i>	5 617 495	14 373 866	+ 155.9
4.	Qo'shilgan qiymat solig'i	61 059 430	83 614	+ 36.9
5.	Aktsiz solig'i	147 440	131 501	- 12.1
6.	Suv resursidan foydalanganlik <i>uchun soliq</i>	53 464	80 236	+ 50.1
7.	Mol - mulk solig'i	3 112 568	4 305 811	+ 38.3
8.	Yer solig'i	1 092 455	1 561 237	+ 42.9
9.	Boshqa soliqlar	11 861	16 200	+36.6
10.	Respublika yo'l fondiga <i>maihiburiv airatmalar</i>	4 541 175	6 096 506	+34.2
11.	Byudjetdan tashqari Pensiya <i>byudjetdan tashqari</i>	2 289 511	3 113 733	+ 36.0
12.	Maktab ta'limi jamg'armasiga <i>maihiburiv airatmalar</i>	2 543 185	4 064 852	+ 59.8
13.	Yagona ijtimoiy to'lov Jami byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar	1 879 231 243 278 401	2 404 867 276 381	+ 28.0 +13.6

Manba: "O'zneftmahsulot" aktsiyadorlik kompaniyasi ma'lumoti asosida tayyorlandi.

Yuqoridagi misolimizda, "O'zbekneftegaz" milliy xolding kompaniyasi tomonidan soliqlar, yig'imlar va majburiy to'lovlarning to'lanishini tahlil qildik. Bundan ko'rinish turibdiki, umum davlat soliqlariga 10 ta soliq va majburiy to'lovlarni amalgalashiradi hamda mahalliy byudjetga esa 3 ta soliq turini to'lashi soliq qonunchiligidagi beligalangan.

1-diagramma

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarda  
soliq tizimidagi soliq va yig'imlar turlarining kamayib borishi  
to'g'risida ma'lumot



Manba: O'zR. Davlat statistika qumitasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi.

Soliq va yig'imlar bir-biri bilan bog'liq bo'ladi, oqibat natijasida ular huquqiy va jismoniy shaxslarning pul daromadlaridan olinadi. Demak, soliq va yig'imlarning jami yig'indisi summasi soliq og'irligi tushunchasini keltirib chiqaradi.

Soliqlarni ob'yekti va iqtisodiy mohiyati bo'yicha guruhlash. Soliqlarni guruhlash iqtisodiyotga ijobiy va salbiy ta'sirlarni o'rganishning ilmiy va amaliy uslubidir.

Soliqlar soliqqa tortish ob'yektiga qarab to'rt guruhga bo'linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar
2. Daromaddan olinadigan soliqlar
3. Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar
4. Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar .

Oborotdan olinadigan soliqlarga qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, bojxona va yer osti boyliklari qiymatidan olinadigan soliqlar kiradi. Lekin oborot (aylanma) tushunchasi bizning qonunchiligidan bo'yicha ilgaridek mahsulot realizatsiyasi oborotidan emas, balki mahsulotlarni yuklab yuborgan qiymat bilan o'lchanadi (QQSda). Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq ham oborotdan olinadigan soliqlarga kiradi.

Daromaddan olinadigan soliqlarga huquqiy shaxslarning foydasiga, jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq, ki chik korxonalarining yalpi daromadidan yagona soliq to'lovi soliqlari kiradi. Bu guruh soliqlarga infrastrukturani rivojlantirish solig'i ham kiradi.

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga mol-mulk solig'i va boshqalar kiradi.

Yer maydonlaridan olinadigan soliqlarga qishloq xujalik tovar ishlab chiqaruvchilarning yagona yer solig'i va yuridik (noqishloq xo'jalik) va jismoniy shaaxslarning yer soliqlari kiradi.

Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar egri va to'g'ri yoki bevosita va bilvosta soliqlarga bo'linadi. To'g'ri soliqlarni to'g'ridan to'g'ri soliq to'lovchilarning o'zi tulaydi, ya'ni soliqni huquqiy to'lovchisi ham, haqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs bo'ladi. To'g'ri soliqlar soliq yukini boshqalarga o'tkazish holati bu yerda bo'lmaydi. Bu soliqlarga hamma daromaddan tulanadigan va barcha mulk soliqlari kiradi.

To'g'ri soliqlardan to'g'ridan-to'g'ri daromaddan soliq tulanganligi uchun soliqlar stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining ko'p qismini ularga qoldirib, investitsiya faoliyatini kengaytirish imkonini yaratib, bozor iqtisodiyotini rivojlantiradi. Bu soliqlarning stavkalari ko'paytirilsa, biznes imkoniyatlari kamaya borib, iqtisodiy rivojlanishni susaytiradi. Demak bu guruh soliqlarning stavkalari to'g'ridan-to'g'ri bozor iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'langandir.

Egri soliqlarni huquqiy to'lovchilari mahsulotni yuklab yuboruvchilardir (xizmat ko'rsatuvchilardir). Lekin soliq og'irligini haqiqatdan ham byudjetga to'lovchilari tovar (ish, xizmat)ni iste'mol qiluvchilardir, ya'ni haqiqiy soliq to'lovchilar bu yerda yashirilgan. Bu soliqlar tovar (ish, xizmat) qiymati ustiga ustama ravishda qo'yiladi.

Bu soliqlarning ijobjiy tomoni Respublikada ishlab chiqarilgan tovarlarni chetga chiqib ketishini chegaralaydi, mamlakat ichida tovarlar ko'p bo'lishiga yordam beradi. Egri soliqlar orqali tovarlar qiymati oshirilmasa, bozorlarda ularning taqchilligi ortadi. Egri soliqlar stavkasining asosli ravishda oshirilishi korxonalar faoliyatining moliyaviy yakuniga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etmaydi, ya'ni investitsion faoliyatini qisqartirmaydi.

Ammo soliq stavkasi tahlil qilinmasdan oshirib yuborilsa korxonalarini sotish qiyinchiligiga uchrab foyda olishni ham byudjetga to'lovlarni ham kamaytirishi mumkin.

Bu soliqlarning yana bir tomoni muomaladagi ortiqcha pul massasini kamaytirib, inqirozni jilovlab boradi. Biroq bu soliqlar mehnat bilan band bo'lgan aholining real daromadini pasaytiradi. Korxonalarda to'g'ri soliqlar stavkasini kamaytirish hisobiga berilgan imkoniyat ko'proq mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirib, tovarlar assortimentining oshishini ta'minlashi kerak.

Jahon soliq amaliyotida to'g'ri va egri soliqlar nisbatiga qarab u yoki bu mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi yoki iqtisodiy qiyinchiliklarni borligini tahlil qilib berish mumkin. Masalan, AQShda to'g'ri soliqlar salmog'ining byudjet daromadida 90 foizga yaqin bo'lishi bu yerda rivojlangan bozor iqtisodiyoti mavjudligidan darak beradi.

Egri soliqlar tarkibiga QQS, aktsiz solig'i, bojxona boji kiradi. Yuqorida aytib o'tilganidek, to'g'ri va egri soliqlar yagona soliq tizimini tashkil etib bir-biri bilan o'zaro bog'langan. Umumiy soliq summasi o'zgarmagan holda birining stavkasini kamaytirish ikkinchisini stavkasini oshirishni talab etadi.

Soliqlarning umudavlat (respublika) va mahalliy soliqlarga bo'linishi hukumat idoralarining respublika hukumati va mahalliy hukumatlarga bo'linishi asosida kelib chiqadi. Har bir hokimiyat idoralari o'zlarining bajaradigan muhim vazifalaridan kelib chiqib, o'z byudjetiga va uni ta'minlaydigan soliqlarga ega bo'lishi kerak. Respublika hukumati umumdavlat miqyosida katta vazifalarni mudofaa, xavfsizlikni saqlash, tartib intizom infrastrukturasini yaratish, mehnatkashlarga ijtimoiy himoyasini tashkil etish va boshqa bir qator yirik vazifalarni bajaradi. Shuning uchun uning byudjeti ham soliqlari ham salmoqli bo'lishi shart. QQS, aktsiz solig'i, yuridik shaxslarning foydasidan, fuqarolar daromadidan olingan soliqlar respublika byudjetiga tushadi. Umumdavlat soliqlarining muhim xususiyati shundaki, respublika byudjetiga tushadigan soliqlardan mahalliy byudjetlarni boshqarib borish uchun ajratma sifatida tushushi mumkin. Bordi-yu, ajratma yetmasa, subventsiya yoki subsidiya beriladi. Agar kelgusi yil mahalliy byudjetlarning o'z manbalari (soliqlari) ko'payib qolsa, respublika soliqlardan ajratma berishning hojati qolmaydi.

Mahalliy soliqlar hokimiyat bajaradigan vazifalariga qarab belgilanib, ularga doimiy va to'liq biriktirib beriladi. Mahalliy hukumatlar asosan mehnatkashlarga yaqin bo'lganligidan ularga ijtimoiy masalalarni mакtab, sog'liqni saqlash, madaniyat, maorif, shahar va qishloqlar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Lekin bu soliqlar va yig'imlar ularning byudjet harajatlarining 30-40 foizini qoplaydi, xolos. Keyingi vaqtarda mahalliy byudjetlar daromadlari salmog'ini 50-60 foizga etkazish kabi hukumat qarorlari mavjud. Mahalliy byudjetlar daromadlarini ko'paytirish eng dolzarb masalalardan biridir. Faqat o'z daromad manbaiga to'liq ega bo'lgan mahalliy hukumatlar o'z faoliyatlarini to'liq amalga oshirishlari mumkin. Aks holda, har xil moliyaviy kamchiliklarga yo'l qo'yish ehtimoli bor. Mahalliy soliqlarning muhim xususiyati shundaki, ular faqat shu hududning byudjetiga tushadi. Boshqa byudjetlarga ajratmalar berilmaydi.

Mahalliy byudjetlarning soliq va yig'imlari kam bo'lganligidan bu byudjetlarning daromadlar va xarajatlarini barqarorlashtirish (balanslashtirish) ancha murakkabdir. Bu masalani yechishda ilgari ko'rsatganimizdek hududdan tushadigan soliqlardan ajratmalar beriladi. (masalan, QQS, daromad solig'i va boshqalar). Amaliyotda shu soliqlardan mahalliy byudjetlarga ular byudjetini barqarorlashtirish uchun 100 foizgacha ajratma bermasdan turib subventsiya (maqsadli yordam) berish hollari uchraydi. Vaholanki, mahalliy hukumatlarni o'z hududlaridan tushadigan soliqlarni undirishga qiziqtirish uchun 100 foizgacha ajratmalar berish maqsadga muvofiqdir.

Subventsiya yoki subsidiya uslublari esa mahalliy hukumatlarning respublika hukumatiga murojaat etish lozimligini bildirib, ularni o'z hududlaridagi soliqlar to'liq undirilishini qiziqtirmaydi, ulardagи boqibeg'amlik fazilatini kuchaytiradi. Mahalliy hukumatlar o'z xohishlaricha soliq va yig'imlar kiritish huquqiga ega emaslar. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida ko'rsatilgan soliqlarning o'z hududlarida qo'llash yoki qo'llamaslik huquqi bor. Undan tashqari mahalliy soliqlar (mulk va yer solig'idan tashqari) va yig'imdardan byudjetga tushgan summa atrofida soliq to'lovchilarga imtiyozlar berish huquqiga ega. Mahalliy soliqlar va yig'implarning byudjetga to'liq

tushishini tashkil qilish ularning zimmasidagi asosiy vazifa hisoblanadi.

### 3-jadval

2008 yil uchun mahalliy byudjetlar daromadlar va xarajatlari hamda Respublika byudjetidan ularga dotatsiya va maqsadli subventsialarning hajmi to'g'risida ma'lumot

(ming so'mda)

Hududlar nomi	Daromadlar	Xarajatlari	Subventsialari	Dotatsiya
Qoraqalpoq Respublikasi	175 507,094	273575,35 2	98 068,258	
Andijon	223 084,207	344 638,647	121 554,440	
Buxoro	241 642,921	241 642,921		
Jizzax	70 809,536	176884,37 6	66740,316	39 334,524
Qashqadaryo	381 314,790	381 314,790		
Navoiy	151 410,736	151 410,736		
Namangan	127 280,950	325 882,033	121 015,381	77 585,702
Samarqand	270081,52 7	432711,58 2	162 630,055	
Surxandaryo	129282,21 7	328 399,371	125 904,606	73212,54 8
Sirdaryo	91 122,140	126676,20 2	35 554,062	
Toshkent	346 705,705	346 705,705		
Farg'ona	434205,54 7	434 205,547		
Xorazm	144 944,466	232015,11 3	87 070,647	
Toshkent shahri	341 102,805	341 102,805		

Jami	3 128 494,641	4 137 165,180	818 537,765	190 132,774
------	------------------	------------------	-------------	----------------

Manba: 12.12.2007 y. PQ-744-sonli qarori

Yuridik shaxslar soliqlari pul muomalasini mustahkamlashda ham katta ahamiyatga ega. To'g'ri soliqlar yuridik shaxslarning xarajatlarga mo'ljallangan mablag'larini qisqartirib muomalaga oz pullarni chiqarishga olib keladi. Egri soliqlar esa tovarlar (ishlar, xizmatlar) tarkibida bo'ladi, baho hisobiga muomaladagi ortiqcha pullarni muomaladan oladi. Shunday qilib soliqlar pul muomalasini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Soliqlarning oshishi tovar (xizmat, ish) taklifini oshiradi, talabni kamaytiradi. Bu esa pul emissiyasini kamaytiradi. Ammo taklifda real qiymati past bo'lganligidan inflyatsiyani paydo qilishi mumkin.

4-jadval\*

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining daromadlari  
tarkibining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2005 yil		2007 yil		2009 yil	
	Mln. so'm.	Jamiga nisbatan % hisobida	Mln. so'm	Jamiga nisbatan % hisobida	Mln. so'm	Jamiga nisbatan % hisobida
I. Byudjetdan tashqari maqsadli fondlari daromadlarisiz, jami	3310854	69,98	5100867,9	66,84	10421382,5	61,3
1. To'g'ri soliqlar	865830,2	18,30	1219647,9	15,98	2769172,4	16,3
1.1 Yuridik shaxslarning foyda solig'i	209331,4	4,42	261720,9	3,43	542342,9	3,2
1.2 Savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalarining yagona soliq to'lov i	66992	1,42	110800,0	1,45	222415,1	1,3
1.3 Soliq to'lashning soddalashtirilgan shakliga o'tgan mikrofirmalar va kichik korxonalardan olinadigan yagona soliq to'lov	80722	1,71	103888,9	1,36	256002,2	1,5
1.4 Jismoniy shaxslar daromad solig'i	465641,1	9,84	689038,1	9,03	1281600,0	7,6
1.5 Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar	43143,7	0,91	54200,0	0,71	108600,0	0,6

daromadidan olinadigan qat'iy belgilangan soliq							
1.6 Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va obodonlashtirish uchun soliq	52169,4	1,10	121145,5	1,59	358212.2	2.1	
2. Bilvosita soliqlar, jami	1627909,5	34,4 1	247817 8,1	32,4 7	516209 3.6	30 3	
2.1 Qo'shilgan qiymat solig'i	748938,2	15,8 3	126169 1,5	16,5 3	309398 0.9	18 5	
2.2 Aktsiz solig'i	692628,9	14,6 4	915682, 1	12,0	150382 7.0	8.9	
2.3 Bojaxona boji	66139,8	1,40	116136, 6	1,52	361100. 0	2.1	
2.4 Yagona bojaxona to'lovi	56869,3	1,20	73417,4	0,96	-	-	
2.5 Jismoniy shaxslar tomonidan iste'mol qilingan benzin, dizel yoqilg'isi va gaz uchun soliq	63333,3	1,34	111250, 5	1,46	203185. 7	1.2	
3. Resurs to'lovlari va mulk solig'i	629770,4	13,3 1	931800, 0	12,2 1	166249 8.0	9.8	
3.1 Mol-mulk solig'i	109064,8	2,31	191400, 0	2,51	319045. 7	1.8	
3.2 Yer solig'i	87411,9	1,85	180300, 0	2,36	275098. 8	1.6	
3.3 Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq	333867,7	7,06	531000, 0	6,96	102484 4.0	6.0	
3.4 Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	13298	0,28	29100,0	0,38	43509.5	0.2	
3.5 Ekologiya solig'i	86128	1,82	-	-	-	-	
4. Ortiqcha foydadan soliq			161091, 4	2,11	238498. 2	1.4	
5. Boshqa daromadlar va	135174,5	2,86	198005,	2,6	589120.	3.4	

soliqsiz tushumlar			0		3	
II. Moliya Vazirligi qoshidagi nabyudjet maktab ta'limi daromadlari fondi	146007	3,09	364550,0	4,78	577335.1	3.4
III. Davlat maqsadli fondlari daromadlari (Moliya Vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya fondi, Respublika yo'l fondi, Davlat bandlik fondi, Davlat multk qo'mitasi maxsus schyoti)	1274001,1	26,93	2165915,5	28,38	4963075.5	29.4
IV. Moliya Vazirligi qoshidagi sug'oriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash fondi	-	-	-	-	130000.0	0.7
V.Tiklanish va taraqqiyot fondi					762888.0	4.5
Jami daromadlar	4730862,1	100	7631333,4	100	16854681.1	100

\*Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentinining "O'zbekiston Respublikasining 2005 yilgi davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 610сонли ва 2006 yil 18-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida "gi 532-sonli hamda 2008 yil 29-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2009 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida "gi 1024-sonli Qarorlari asosida tayyorlandi.

## **2.2.Soliqqa tortish maqsadida yuridik shaxs tushunchasi. Soliq to'lovchilarni aniqlash asoslari**

Odatda soliq sub'yektlari hisoblangan soliq to'lovchilar ikki guruhga bo'linadi: yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida xilma-xil mulk shaklidagi birlashmalar, korxonalar va tashkilotlar qisqacha yuridik shaxslar deb ataladi.

O'zbekiston Respublikasining asta-sekin ijtimoiy himoyalangan erkin bozor iqtisodiyotiga o'ta borishi respublikada xususiy va kichik biznes faoliyatiga qulay sharoitlar yaratilayotganligi xilma-xil mulk shaklidagi: xususiy, kooperativ, shirkat, aktsioner va qo'shma korxonalar orqali tadbirkorlikni rivojlantirishga keng sharoit yaratilmoqda. Buning hammasi soliqqa tortish maqsadida yuridik shaxslar sonini ko'payishiga olib kelmoqda. 2008 yilda kichik va xususiy biznesning yalpi ichki mahsulotdagi hissasi o'sib 47 foizni tashkil etdi. Jami 450 mingdan ortiq yuridik shaxslar mavjud, shu jumladan 350 mingdan ortig'i kichik korxonalar, fermer xo'jaliklari va firmalardir.

Yuridik shaxs deb o'zining ixtiyorida, qaromog'ida, foydalanishida mulkka ega bo'lган, o'zining majburiyatlarini shu mulk bilan qaytara oladigan, buxgalteriya balansi hamda bankda hisobvaraqasiga va o'z nizomiga ega bo'lган shaxslarga aytiladi. Yuridik shaxslarning statistika organlarida o'z faoliyat kodlari ko'rsatilgan bo'ladi. Jismoniy shaxslar yuridik shaxs maqomini olmagan shaxslardir. Bunday shaxslarga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo'limganlar va chet el mamlakatlari fuqarolari kiradi.

O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga binoan soliqqa tortish maqsadida soliq to'lovchilar yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarga bo'lingan.

Jismoniy shaxslar tulaydigan soliqlarning xususiyati shundan iboratki, soliq jismoniy shaxsning to'g'ridan-to'g'ri o'z daromadidan olinadi. Soliqlar va yig'imlar asosan byudjetga naqd pul to'lash yo'li bilan o'tkaziladi, ayniqsa tadbirkorlik faoliyatidan qat'iy stavkali soliq oldindan to'lab qo'yiladi.

Shunday ekan bu yerda soliq to'lovchi jismoniy shaxs bilan soliq undiruvchi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri pul munosabatlari mavjud.

Shuning uchun jismoniy shaxslar soliqlarini undiruvchi inspektorlar o'ta madaniyatli, shirin so'z bo'lishi bilan birga jismoniy shaxslar soliqlarini hisoblash undirish tartib-qoidalarini, soliq qonunchiligini chuqur bilishi kerak. Shu shartlar bajarilgan

taqdirda byudjetga jismoniy shaxslardan me'yordagi soliq va yig'implar to'liq tushishligi ta'minlanadi. Ularni soliq qonunchiliginini to'liq tushintiraolmasligi, nopoligi byudjetga mo'ljallangan soliqlarni to'liq kelib tushmasligiga olib kelishi mumkin.

### **2.3. Davlat soliqlari va yig'implari bo'yicha soliq to'lovchilarining javobgarligi va mas'uliyati**

Yuridik shaxslar o'zlariga yuklatilgan soliqlarni hisoblash va byudjetga o'z vaqtida, to'liq to'lash javobgarligini olganlar. Ularning tulaydigan soliqlari asosan naqd pulsiz, ya'ni korxona, tashkilot, birlashmaning bankdagi hisob schyotlaridan mablag'ni olib, respublika yoki mahalliy byudjet schyotlariga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi. Qoida bo'yicha har qanday yuridik shaxs o'z soliq va boshqa majburiy to'lovlarini belgilangan vaqtida byudjetga to'liq o'tkazishga majburdirlar. Buning uchun ular soliq va boshqa to'lovlarining muddati kelgan kungacha pullarni o'tkazish hujjalari bo'lmish to'lov topshirig'i, cheklarni yozib banklarga topshirgan bo'lishlari kerak.

Agar to'lov topshiriqlari o'z muddatida yozilib banklarga topshirilmagan bo'lsa, soliq idoralari o'zlarining inkasso to'lov talabnomalari orqali undirib oladilar.

Har bir o'z vaqtida byudjetga o'tkazilmagan kun uchun o'tkazilishi kerak bo'lган soliq summasi hisobidan 0,05 foiz penya hisoblanib soliqqa qo'shimcha ravishda byudjetga majburiy undiriladi. Albatta penya summasining ko'payishi korxonananing moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Penya korxona uchun qo'shimcha soliq yukidir.

Shuning uchun har qanday xo'jalik sub'yektlari hisobchilari soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini ularda belgilangan to'lov muddatigacha o'z vaqtida to'lab borishlari shart. Bunda ayniqsa bo'nak (avans) to'lovlariga ko'proq e'tibor qaratilishi lozim, chunki QQS, daromadga (foydaga) soliq va boshqalarda bo'nak to'lovlar soni ko'p bo'lganligidan boqimandaning ko'payishiga olib keladi. Hozirgi kunda bu boqimanda bilan kurash iqtisodiyotni barqarorlashtirishda muhim davlat tadbirlariga aylanmoqda.

Yuridik shaxslarning hamma soliqlari naqd pulsiz to'lanadi. Biroq, ayrim yig'imlar (davlat va bojxona bojlari) naqd pulli bo'lishi mumkin.

Yuridik shaxslar soliqlarini naqd pulsiz to'lanishi juda katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Pul o'tkazishlar tezlashadi, ijtimoiy xarajatlar tejaladi.

Jismoniy shaxslarga xo'jalik mehnat shartnomasi, fuqarolik-huquqiy shartnomalari bo'yicha ish haqi mukofot va boshqa qator daromadlar to'lovchi korxona, tashkilot, muassasa soliqlarini to'liq to'g'ri hisoblash va o'z vaqtida byudjetga o'tqazib berish javobgarligini o'z zimmalariga oladilar. Fuqarolarning olgan daromadlari to'g'risida soliq idoralariha hamda fuqaroga bildirish va ma'lumotnama yozib berish vazifasini ham yuridik shaxslarga yuklatilgan.

Jismoniy shaxslar asosiy ish joyidan tashqarida qo'shimcha daromad olganda, chetdan O'zbekiston hududiga tovarlar olib kirganda, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanganda olingan daromadlar va xarajatlar qilinganda soliq deklaratsiyalarini soliq hisoblash uchun soliq idoralariha taqdim etadilar.

Yuqoridagi hujjatlar va o'zlaridagi yig'ilgan ma'lumotlar, tekshiruv dalolatnomalari asosida soliq idoralari jismoniy shaxslar uchun soliq hisobini tuzib, ularga soliq summasi va to'lov muddatlari ko'rsatilgan xabarnomalarni yuboradilar. Bulardan tashqari, yuridik shaxs maqomini olmasdan tadbirkorlikning ayrim turlari bilan shug'ullanuvchilar qat'iy stavkasida daromad solig'ini to'laydilar.

Yer solig'i, mol-mulk soliqlarini ham soliq idoralari qayta har yili hisoblab chiqib, jismoniy shaxslarga xabarnoma orqali etkazadilar. Xabarnoma olgan jismoniy shaxslar ko'rsatilgan muddatda barcha soliq va yig'imlar summasini o'z vaqtida to'lashga majburdirlar. Shu yerda fuqarolardan olinishi lozim bo'lgan biror bir soliq to'lanmay qolsa soliq idoralari javob beradi.

Shunday holatda yer solig'i, mol-mulk solig'i besh yil to'lanmagan bo'lsa, uni penya hisoblanmasdan undiriladi.

Soliqlar va yig'imlar o'z vaqtida to'lanmaganda «boqimanda» deb ataladi. Uning mazmuni muddatida to'lanmagan to'lovlardir. Ana shu boqimanda summasiga har bir to'lanmagan kun uchun (0,05%) penya hisoblanib, soliq

summasiga qo'shimcha undirib olinadi. Avvalo soliq summasi so'ng penya, so'ng jarimalar undiriladi. Boqimanda uzoq muddatga to'lanmasa fuqaroning mulki ro'yxat qilinib xalq sudiga beriladi. Chet elda esa soliqlar to'lab borishini og'zaki va yozma ogohlantirishlari, qarzlarni komissiyada ko'rib chiqish tajribalari mavjud.

### **Qisqacha xulosalar**

Respublikamizda soliqqa tortish tizimi shakllanishiga juda ko'p vaqt ketmagan bo'lsa ham, soliqqa tortish tizimimiz yil sayin yangilanib, takomillashib, rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda butun dunyo mamlakatlarida davlatning aniq amal qiluvchi soliqqa tortish tizimi mavjudligi uning yuksak darajada taraqqiy etganligining belgisi hisoblanadi. Shuning uchun soliqqa tortish tizimini jahon soliq amaliyoti darajasida shakllantirish va rivojlangan mamlakatlarning soliq amaliyotidagi ilg'or tajribalaridan soliqqa tortish tizimimizda foydalanish bozor munosabatlariga o'tish shart-sharoitiga moslashishda alohida ahamiyatga egadir.

Iqtisodiy islohatlar sharoitida soliqlar davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning asosini tashkil etadi. Mavjud moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, ularni to'g'ri yo'naltirish samaradorligini oshirish va ijtimoiy iqtisodiy asosga tayanayotganligi juda muhimdir. Soliq byudjet siyosatining yaxlitligiga erishish mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, samarali byudjet- soliq siyosatini yuritishga, aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

### **Nazorat qilish bo'yicha savollar:**

1. Umumdavlat soliqlari va yig'imlari tarkibiga qaysi soliqlar va yig'imlar kiradi?
2. Qaysi soliqlar va yig'imlar yuridik shaxslar to'laydigan Respublika soliqlari tarkibiga kiradi?
3. Qaysi soliqlar va yig'imlar yuridik shaxslar to'laydigan mahalliy soliqlar tarkibiga kiradi?
4. Yuridik shaxslar to'laydigan soliqlarning qanday ahamiyati bor?
5. Umumdavlat soliqlari va yig'imirini to'lashda yuridik va jismoniy shaxslarning javobgarlik va mas'uliyatlari qanday?

6. Soliqlarning umumdavlat va mahalliy soliqlarga ajratishning sababi nimada va ular qanday farqlanadi?
7. Umumdavlat soliqlarini undirishda qaysi usullardan foydalilanadi?
8. Byudjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy to'lovlar va ularning soliqlarga qanday aloqasi bor?

### **III - bob.**

## **Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i va yagona soliq to'lovini hisoblash va byudjetga to'lash tartibini takomillashtirish masalalari**

### **3.1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'inining iqtisodiy mohiyati**

Amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq yuridik shaxslarning moliyaviy natijasini ifodalaydigan foyda soliq ob'yekti sifatida belgilangandir. Yuridik shaxslarning to'laydigan soliqlari ichida ularning foydasiga soliq byudjet daromadlari tarkibida katta o'rinn egallaydi. Bu soliq to'g'ri soliq bo'lganligi uchun xo'jalik sub'yeqtalarining to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy ahvoli bilan bog'liq va unga ta'sir etadi. Shuning uchun bu soliq salmog'ini davlat yildan-yilga kamaytirish siyosatini olib bormoqda. Masalan, 1996-1998 yillarda byudjet daromadlarida 21-25 foizlarni tashkil etgan bo'lsa, 2002 yildan boshlab 8-9,3 foizni, 2005 yilda 8,0% 2007 yilda 7,9 va 2009 yilda esa 5,2 foizni tashkil etdi.

Yuridik shaxslarning foydasiga soliq - bu korxonalar, birlashmalar va tashkilotlar foydasining bir qismini byudjetga majburiy to'lov munosabatini bildiradi.

Mamlakatimizda xo'jalik sub'ektlaridan olinadigan to'g'ri soliqlarnining byudjet tushumlaridagi salmog'ining pasayishiga asosiy sabab ularning stavkalarini davlat tomonidan muntazam ravishda pasaytirilishidir. Masalan, xo'jalik sub'ektlaridan olinadigan foyda solig'ini ko'radigan bo'lsak, 1998-2008 yillarda soliq stavkasi 25 punktga tushgan. Bu albatta soliq tushumiga o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatdi. Ushbu soliq turi 2000 yilda to'g'ri soliqlar tarkibida 35 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2008 yilga kelib bu 18 foizga tushdi. Soliq tushumlariga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri bo'lib soliq stavkasi hisoblanadi. Shuning uchun Respublikamizda foyda solig'inining stavkasi muntazam pasaytirilishi natijasida ushbu soliqning byudjet daromadlaridagi salmog'i pasayib ketdi.

Rivojlangan davlatlarda yuridik shaxslar foyda solig'i (korporatsiyalar foyda solig'i) stavkalari O'zbekistondan amal qilib turgan stavkalardan bir muncha yuqori hisoblanadi. Masalan, AQShda - 34 foiz, Buyuk Britaniyada - 33 foiz,

Frantsiyada – 36,6 foiz, Germaniyada – 35 foiz, Yaponiyada – 40 foiz, Rossiyada – 20 foizni va Kanadada – 25 foizni tashkil etadi.

Respublikamizda to’g’ri soliqlar tarkibida sezilarli salmoqni egallaydigan soliq turlaridan biri bu kichik korxonalardan undiriladigan yagona soliq to’lovi hisoblanadi. Ushbu soliq turi 2001 yilda to’g’ri soliqlar tarkibida 5,9 foizni tashkil etgan bo’lsa, 2008 yilga kelib bu ko’rsatkich 14,5 foizga teng bo’ldi. Xuddi shu davrda davlat byudjetida ushbu soliqning salmog’i 1,9 foiz bo’lgan bo’lsa, 2008 yilda bu ko’rsatkich 2 foiz bo’ldi. Ammo, 2004 yilda bu ko’rsatkich 3,3 foizni tashkil qilar edi. Bu soliq turining davlat byudjeti tarkibidagi salmog’ining 1,3 foizga kamayishi ushbu sub’ektlarda soliq yukini yengilashtirayotganligidan dalolat beradi. Bu hukumatimiz tomonidan kichik biznes sub’ektlarini rivojlanishiga katta e’tibor qaratilayotganligini anglatadi. Tahlil qilinayotgan shu davrda, ya’ni 2000 yilda bu korxonalar tomonidan ishlab chiqarish YaIMning 29,1 foizini tashkil etgan bo’lsa, 2007 yilda bu 47 foizga teng bo’ldi. Bu soliqlarning rag’batlantiruvchilik nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Foyda solig’ini hisoblashda soliqqa tortiladigan bazani shakllantirish yagona umumbelgilangan mexanizmini ishlab chiqish lozim, korxonalar foydasidan olinadigan soliqni hisoblashda korxonalarining rentabelik darajasini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan soliq stavkalarini o’rnatish lozim.

Korxonalar foydasidan olinadigan soliq stavkalarining miqdorini doimo boshqa turdag'i soliq stavkalari bilan birgalikda ko’rib chiqish lozim. Chunki, korxona foydasidan olinadigan soliq stavkasi past bo’lgan sharoitda ham boshqa soliq turlari buyicha stavkalarning yuqori bo’lishi korxonalarini og’ir moliyaviy ahvolga solib quyishi mumkin.

Iqtisodiyotda soliq yuki darajasining kamaytirilishi soliqlarni hisoblash mexanizmlarini takomillashtirish, fiskal funktsiyalarni qisqartirish va soliqlarning rag’batlantiruvchi rolini kuchaytirish bilan birga davom ettirilmoqda.

Respublikamizda soliq tizimini takomillashtirish jaryonida xo’jalik yurituvchi subektlarga nisbatan soliq yukini izchil kamaytirishga alohida e’tibor karatilmoqda. Bunda birinchi navbatda, ularning daromadlaridan undiriladigan bevosita soliqlarning solmog’ini kamaytirish diqqat markazda turibdi.

Buning natijasida korxona ixtiyorida qoladigan mablag'lar ulushining ko'payishi evaziga uning aylanma mablag'lari miqdorini ko'paytirib borish va optimal darajasini saqlash, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, uning samaradorligini oshirish maqsadida kuproq investitsiya kiritish, xodimlar mehnatini yanada rag'batlantirish imkonini paydo bo'ladi.


Sovet davridagi fiskal siyosat foydaning katta qismini undirilishini va qayta taqsimlanishini ko'zda tutar edi. Foyda solig'inинг o'ta yuqori stavkalarda olinishi (1990 yilda bu ko'rsatkich 55 foizni tashkil etgan) shunday vaziyatni vujudga keltirdiki, korxonalar o'z ishlab chiqarishini kengaytirish va texnik jihatdan qayta jihozlashdan manfaatdor bo'lmay qoldi.

Aynan shu sababli mamlakatimizda foyda solig'ini kamaytirish asosiy maqsad qilib olindi. Natijada, 1991-95 yillarga kelib foyda solig'i stavkasi 38 foizga tushdi, 1999 yilda 33 foizga, 2007 yildan boshalab esa bu ko'rsatkich dunyodagi eng kam darajaga-10 foizga tushirildi. Kelgusi rejalarda – foyda solig'ini yanada kamaytirish mo'ljallangan. Shuni qayd etish lozimki, xalq iste'mol mollarini, bolalar uchun mo'ljallangan tovarlarni ishlab chiqarishni, mahalliy tovarlar eksportini rag'batlantirish maqsadida bunday tovarlar ishlab chiqaruvchilarga nisbatan foyda solig'inинг past stavkasi (7 foizgacha) qo'llaniladi.

Ishlab chiqaruvchiga nisbatan soliq yukining kamaytirilishi daromadlarning yashirin holdan chiqib, qonuniylashtirilishi va soliqqa oid tushumlarning muayyan darajada ko'payishiga olib keladi. Jumladan, 2002 yilda soliq stavkasi 24 foiz bulgani holda yuridik shaxslardan 174 mlrd. so'm daromad solig'i to'plandi, bu esa byudjet umumiylar daromadining 9,3 foizini tashkil etdi. 2003 yilda esa daromad solig'i stavkasi 20 foiz deb belgilangani holda byudjetga 198 mlrd.so'm mablag' kelib tushishi yoki umumiylar daromadning 10,5 foizini tashkil etdi.

2-diagramma

## **Yuridik shaxslardan (korxona va firmalardan) olinadigan foyda solig'i stavkasining pasayish dinamikasi**



Manba: O'zR. Davlat statistika qumitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

### **3.2. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchilari, soliq ob'ektini aniqlash va soliqqa tortish tartibi**

Yuridik shaxslarning foyda solig'i bo'yicha soliqni to'liq, to'g'ri aniqlash (hisoblash) uchun ularning jami daromadlariga nimalar kirishini mukammal o'rganish zarur bo'ladi.

Yuridik shaxslarning jami daromadi tarkibiga ular tomonidan olinishi lozim bo'lgan (olingan) yuklab jo'natilgan tovar, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat haqlari kabi pul va bepul (pulsiz) qaytarmaslik sharti bilan olingan mablag'lar kiradi. Demak, olingan kreditlar jami daromadga kirmaydi.

Korxonalar tomonidan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibini ko'rib chiqamiz.

Soliqqa tortish ob'ekti sifatida foyda hisoblanadi. Ushbu foydani, ya'ni soliq solinadigan bazani hisoblab chiqamiz.

Soliq solinadigan baza jami daromad bilan chegirib tashlanadigan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida, soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi hisobga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi.<sup>6</sup>

Jami daromadga quyidagilar kiradi:

- tovarlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;
- boshqa daromadlar.

Quyidagilar soliq to'lovchining daromadi sifatida qaralmaydi:

1) ustav fondiga olingan hissalar, shu jumladan aktsiyalarni joylashtirish bahosining ularning nominal qiymatidan ortiq summasi, birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birlashtiriladigan mablag'lar;

2) muassislar tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda), shuningdek tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari o'rtasida taqsimlanayotganda ustav fondiga hissa doirasida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

3) realizatsiya qilinayotgan tovarlar uchun boshqa shaxslardan dastlabki haq (bo'nak) tarzida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

4) yuridik shaxsning – aktsiyadorning qo'shimcha aktsiyalar qiymati yoki ustav fondini ko'paytirish uchun o'tgan yillardagi taqsimlanmagan foydani yo'naltirishda aktsiyalar nominal qiymatining ko'payishi tarzida olingan daromadlari;

5) investor va davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiylari sifatida kiritilayotgan mol-mulk va boshqalar.

To'lov manbaida soliq solinadigan dividendlar va foizlar jami daromaddan chegirib tashlanadi.

Tovarlarni realizatsiya qilishdan, shu jumladan yordamchi xizmatlar tomonidan realizatsiya qilishdan qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'i chegirib tashlangan holda olingan tushum tovarlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromad htsoblanadi.

Tovarlarni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum yuklab jo'natilgan tovarlar qiymatidan kelib chiqqan holda tovarlarni

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi.-T.: «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami» nashriyoti, 2007 yil.

jo'natish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish hollarini tasdiqlovchi hujjatlar asosida belgilanadi.

Uzoq muddatli kontraktlarni bajarishdan olinadigan daromadlar ularning haqiqatda bosqichma-bosqich bajarilishiga taalluqli qismida hisobot davri mobaynida hisobga olinadi.

Uzoq muddatli kontraktning hisobot davri oxirida haqiqatda bajarilganligi kontraktni bajarishga kirishilganidan e'tiboran qilingan xarajatlarning kontraktni bajarish uchun ketadigan xarajatlarning umumiy summasidagi solishtirma salmog'ini hisob-kitob qilish asosida belgilanadi.

Hisobot davri oxiridagi daromad kontrakt bo'yicha qilingan xarajatlarning hisoblangan solishtirma salmog'i va jami daromad summasining (kontrakt bahosining) hosilasi sifatida aniqlanadi. Mazkur kontrakt bo'yicha ilgari hisobga olingan daromadlar joriy hisobot davrida tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadni aniqlashda chegirib tashlanadi.

Tovarlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi:

- 1) tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;
- 2) bitim shartlari o'zgarganda;
- 3) baholar o'zgarganda, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan) foydalanganda;
- 4) bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Tovarlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga tuzatishni kiritish bir yillik muddat ichida amalga oshiriladi.

Tovarlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga tuzatish kiritish yuqorida ko'rsatilgan hollar yuz bergenligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda tovarni yetkazib beruvchi tovarlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga tuzatish kiritishni belilangan tartibda amalga oshiradi.

Boshqa daromadlarga tovarlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'limgan operatsiyalardan olinadigan daromadlar kiradi, ular quyidagilardan iborat:

- 1) soliq to'lovchining asosiy vositalari va boshqa mol-mulki chiqib ketishidan olinadigan daromadlar;
- 2) mol-mulkni operativ ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;

3) asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;

4) tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek ishlar va xizmatlar;

5) inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralar hamda boshqa mol-mulk qiymati tariqasidagi daromadlar;

6) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar;

7) majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar;

8) talablardan o'zganining foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olingan daromadlar;

9) jami daromaddan ilgari chegirib tashlangan xarajatlar yoki zararlarning o'rnini qoplash tarzida olingan daromadlar;

10) xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromadlar;

11) birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromadlar;

12) undirib olingan yoki qarzdor tomonidan tan olingan jarimalar va penya;

13) valyuta hisobvaraqlari bo'yicha kursdagi ijobiy farq, shuningdek chet el valyutasidagi operatsiyalar bo'yicha olingan daromadlar;

14) dividendlar va foizlar;

15) royalty;

16) tovarlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bevosita bog'liq bo'limgan operatsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar.

Soliq to'lovchining xarajatlari soliq solinadigan foydani aniqlash paytida chegirib tashlanadi, chegirib tashlanmaydigan xarajatlar bundan mustasno.

Asoslangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar, qonun hujjatlariga va soliq to'lovchining hisobga olish siyosatiga muvofiq rasmiylashtirilgan zararlar ham soliq to'lovchining xarajatlari bo'ladi.

Soliq to'lovchining xarajatlari haqiqatda qaysi soliq davrida amalga oshirilgan bo'lsa, o'sha davrda chegirib tashlanadi. Agar ayni bir xil xarajatlar xarajatlarning bir nechta

moddasida nazarda tutilgan bo'lsa, soliq solinadigan foydani hisoblashda mazkur xarajatlar faqat bir marta chegirib tashlanadi.

Soliq to'lovchi sarflagan va qiymati chet el valyutasida ifodalangan xarajatlar qiymati milliy valyutada ifodalangan xarajatlar bilan jamlab hisobga olinadi. Mazkur xarajatlarni qayta hisoblash soliq to'lovchi tomonidan buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchining xarajatlari chegirib tashlanadigan va chegirib tashlanmaydigan xarajatlarga bo'linadi.

Chegirib tashlanadigan xarajatlar quyidagilardir:

- 1) moddiy xarajatlar;
- 2) mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- 3) amortizatsiya xarajatlari;
- 4) boshqa xarajatlar;
- 5) kelgusida soliq solinadigan foydadan chegirib tashlanadigan hisobot davridagi xarajatlar.

Soliq to'lovchining xarajatlari, agar ular chegirib tashlanmaydigan biron bir xarajat tarkibida hisobga olinsa (uning bir qismi bo'lsa), chegirib tashlanadigan xarajatlar bo'lmaydi.

Quyidagilarga soliq to'lovchining xarajati sifatida qaralmaydi:

1) soliq to'lovchi emitent tomonidan topshirilgan, aktsiyadorlar o'rtasida aktsiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga binoan o'zlariga tegishli aktsiyalar miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlanadigan aktsiyalarning qiymati yoxud emitentning ustav fondi ko'paytirilgan taqdirda aktsiyalarni aktsiyadorlar o'rtasida taqsimlashda dastlabki aktsiyalar o'rniغا berilgan yangi aktsiyalarning nominal qiymati bilan aktsiyadorning dastlabki aktsiyalarining nominal qiymati o'rtasidagi farq;

2) boshqa yuridik shaxslarning ustav fondiga yoki oddiy shirkatga hissa sifatida berilgan mol-mulk, mulkiy huquqlar qiymati.

Moddiy xarajatlarga quyidagilar kiradi:

1) xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar;

2) ishlab chiqarilgan va realizatsiya qilinadigan tovarlarni o'rash va boshqacha tayyorlash uchun, shu jumladan sotuv oldidan tayyorlash uchun, boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik

ehtiyojlari uchun materiallar, uskunalar hamda boshqa mol-mulkni ta'mirlash uchun materiallar va ehtiyot qismlar;

3) inventar, xo'jalik anjomlari, amortizatsiya qilinadigan mol-mulk bo'limgan boshqa mol-mulk;

4) soliq to'lovchining texnologik, transport, boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlari uchun sarflanadigan barcha turdag'i yoqilg'i, energiya, shu jumladan soliq to'lovchining o'zi tomonidan ishlab chiqarish hamda xo'jalik ehtiyojlari uchun barcha turdag'i energiyani hosil qilish, binolarni isitish, shuningdek energiyani bir shakldan o'zga shaklga o'tkazish va uzatish xarajatlari;

5) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan normalar doirasida suv xo'jaligi tizimlaridan soliq to'lovchilar tomonidan iste'mol qilinadigan suv uchun to'lov;

6) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli organ yoki soliq to'lovchi tomonidan tasdiqlangan normalar doirasida ishlab chiqarish va tashish chog'idagi texnologik yo'qotishlar;

7) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli organ yoki soliq to'lovchi tomonidan tasdiqlangan tabiiy kamayish normalari doirasida tovar-moddiy zaxiralarni saqlash hamda tashish chog'idagi yo'qotishlar va buzilishlar.

Moddiy xarajatlarga kiritiladigan tovar-moddiy zaxiralarning qiymati buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Moddiy xarajatlar summasi qaytariladigan chiqindilar qiymatiga kamaytiriladi. Ushbuni qo'llanilishi maqsadida qaytariladigan chiqindilar deganda xom ashyo (materiallar), yarim tayyor mahsulotlar, issiqlik beruvchi va boshqa turdag'i moddiy resurslarning tovarlar ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'lgan, boshlang'ich resurslarning iste'molboplik xususiyatlarini (kimyoviy yoki fizik xossalalarini) qisman yo'qotgan va shu tufayli xarajatlar oshib ketgan (mahsulot chiqishi kamayib ketgan) holda foydalaniladigan yoki belgilangan maqsadi bo'yicha foydalanilmaydigan qoldiqlari tushuniladi.

Tovar-moddiy zaxiralarning texnologiya jarayoniga muvofiq boshqa bo'linmalarga boshqa turdag'i tovarlarni ishlab chiqarish uchun to'laqonli xom ashyo (materiallar) sifatida o'tkaziladigan qoldiqlari, shuningdek texnologiya jarayonini

amalga oshirish natijasida olinadigan qo'shimcha (yo'l-yo'lakay olingan) mahsulot qaytariladigan chiqindilar jumlasiga kirmaydi.

Qaytariladigan chiqindilar quyidagi tartibda baholanadi:

- agar bu chiqindilardan asosiy yoki yordamchi ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkin bo'lsa-yu, lekin bunda xarajatlar oshib ketsa (tayyor mahsulot chiqishi kamayib ketsa), ehtimol tutilgan foydalanish narxida;
- agar bu chiqindilar chetga realizatsiya qilinsa, realizatsiya qilish narxida.

Mehnatga haq to'lash xarajatlariga quyidagilar kiradi:

1) haqiqatda bajarilgan ish uchun, soliq to'lovchida qabul qilingan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlar, tarif stavkalari va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda hisoblangan ish haqi;

2) kasb mahorati, murabbiylik, ilmiy daraja, faxriy unvon uchun tarif stavkalari va maoshlarga ustamalar;

3) ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog'liq ustamalar hamda qo'shimcha to'lovlar, shu jumladan:

a) texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtida, ish vaqtidan tashqari, dam olish kunlarida va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalari hamda maoshlarga ustamalar va qo'shimcha to'lovlar;

b) ko'p smenali rejimda ishlaganlik, bir necha kasbda (lavozimda) ishlaganlik va muayyan lavozimda vaqtincha ishlab turganlik, xizmat ko'rsatish doirasini kengaytirganlik uchun ustamalar;

v) og'ir, zararli, o'ta og'ir va o'ta zararli mehnat sharoitlarida hamda tabiiy iqlim sharoitlari noqulay bo'lgan joylarda ishlaganlik uchun ustamalar;

g) aloqa, temir yo'l, daryo, avtomobil transporti xodimlarining va doimiy ishi yo'lida kechadigan yoki ko'chib yurish xususiyatiga ega bo'lgan xodimlarning ish haqiga, soliq to'lovchining joylashgan eridan jo'nab ketish paytidan u erga qaytib kelish paytigacha yo'ldagi har bir sutka uchun to'lanadigan ustamalar;

d) qurilish, rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirlashda, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda vaxta usulida ishlarni bajarishda bevosita band bo'lgan xodimlarga

harakatlanish va joydan joyga ko'chib yurish xususiyatiga ega bo'lgan ishlar uchun ustama;

e) yer osti ishlarida doimiy band bo'lgan xodimlarga ularning to'kindi uyumdan (otvaldan) ishlash joyiga borish va u yerdan qaytish uchun shaxtada (konda) harakatlanishining me'yoriy vaqt uchun to'lanadigan qo'shimcha haqlar;

j) mehnatga haq to'lashni hududiy jihatdan tartibga solish, shu jumladan hududiy koeffitsientlar hamda cho'l, suvsiz va baland tog'li hududlarda qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan ishlar uchun koeffitsientlar bilan bog'liq to'lovlar;

z) soliq to'lovchi joylashgan yerdan (yig'ilish punktidan) ishslash joyigacha va orqaga qaytish uchun vaxtada ishslash jadvalida nazarda tutilgan (ishlar vaxta usulida bajarilganda) yo'lga ketadigan kunlar, shuningdek xodimlar meteorologik sharoitlar sababli va transport tashkilotlarining aybi bilan yo'lda ushlanib qolgan kunlar uchun tarif stavkasi, maosh miqdorida to'lanadigan summalar;

i) ishlar vaxta usulida tashkil qilinganda, ish vaqt umumlashtirilgan holda hisobga olinayotganda va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ish vaqtining belgilangan davomiyligidan ortiq ishlaganliklari munosabati bilan ularga beriladigan dam olish kunlari (otgullar) uchun to'lovlar;

4) ishlanmagan vaqt uchun to'lanadigan haq:

a) qonun hujjatlariga muvofiq yillik asosiy (uzaytirilgan asosiy) ta'tillarga haq to'lash, shuningdek ulardan foydalanilmaganda, shu jumladan xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganda kompensatsiyalar to'lash, o'smirlarning imtiyozli soatlariga, shuningdek tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun haq to'lash;

b) noqulay va o'ziga xos mehnat sharoitlarida, shuningdek og'ir va noqulay tabiiy iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun ayrim tarmoqlarning xodimlariga qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan qo'shimcha ta'tillarga haq to'lash;

v) onalar bolani ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan tanaffuslarga haq to'lash;

g) asosiy ish haqi qisman saqlanib qolgan holda majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga to'lovlar;

d) donor xodimlarga ko'rikdan o'tish, qon topshirish va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to'lash;

e) O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga haq to'lash;

j) boshqa yuridik shaxslardan avvalgi ish joyi bo'yicha mansab maoshi miqdorlari ma'lum bir muddat davomida saqlab qolning holda ishga olingan, shuningdek vaqtinchalik vazifani bajarib turganda xodimlarga maoshlardagi farqni to'lash;

z) xodimning aybi bilan yuz bermagan bekor turib qolishlar, yaroqsiz mahsulot uchun haq to'lash;

i) xodimlarga malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash tizimida ishdan ajralgan holda o'qigan vaqtlarida asosiy ish joyi bo'yicha ish haqi to'lash xarajatlari;

k) mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yoki soliq to'lovchining qaroriga binoan majburiy progul vaqt yoki kam haq to'lanadigan ishni bajarganlik uchun haq to'lash;

l) o'n ikki yoshga to'lмаган ikki va undan ortiq bolasi yoki o'n olti yoshga to'lмаган nogiron bolasi bo'lgan ayollarga berilgan qo'shimcha ta'tilga mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq haq to'lash;

m) vaqtincha mehnat layoqatini yo'qotgan taqdirda, mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan ish haqi miqdorigacha qo'shimcha haq to'lash;

n) kasb kasalliklari bilan bog'liq nafaqalar to'lash;

5) rag'batlantirish tusidagi quyidagi to'lovlar:

- soliq to'lovchining mukofotlash to'g'risidagi nizomlarida nazarda tutilgan to'lovlar;
- yillik ish yakunlari bo'yicha taqdirlash, ko'p yil ishlaganlik uchun taqdirlash va to'lovlar;

6) soliq to'lovchining shtatida turmaydigan xodimlar mehnatiga ular fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar, shu jumladan agar bajarilgan ish uchun xodimlar bilan hisob-kitob soliq to'lovchi tomonidan amalga oshirilsa, pudrat shartnomasi bo'yicha ishlar bajarganligi uchun haq to'lash;

7) nogironlarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qo'shimcha to'lovlar;

8) qonun hujjatlariga muvofiq bepul beriladigan, shaxsiy foydalanishda qoladigan buyumlarning (shu jumladan formalı kiyim-bosh, maxsus ovqatlanish) qiymati yoki ular pasaytirilgan narxlarda sotilishi munosabati bilan imtiyozlar summasi;

9) xodim bilan mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko'ra bekor qilinganda mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq moddiy yordam sifatida beriladigan ishdan bo'shatish nafaqasi va boshqa to'lovlar.

Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq to'lovchi tomonidan hisobga olinadigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar ushbu moddaning qo'llanilishi maqsadida amortizatsiya qilinadigan mol-mulk deb e'tirof etiladi.

Quyidagilar amortizatsiya qilinmaydi:

- 1) yer uchastkalari va tabiatdan foydalanishga doir boshqa ob'ektlar (suv, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar);
- 2) mahsuldar chorva mollari;
- 3) kutubxona fondi;
- 4) muzey qimmatliklari;
- 5) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda konservatsiyalashga o'tkazilgan asosiy vositalar;
- 6) qiymati ilgari to'liq chegirilgan mol-mulk;
- 7) asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar tarkibiga o'tkazilmagan kapital qo'yilmalar.

#### 6-jadval

Soliq solish maqsadida amortizatsiya qilinishi kerak bo'lган mol-mulk amortizatsiyaning quyidagi eng yuqori normalari bilan guruhlarga taqsimlanadi:

Guruhsiz tartib raqami	Kichik guruhsiz tartib raqami	Asosiy vositalarning nomi	Amortizatsiyaning yillik eng yuqori normasi, foizlarda
I		Binolar, imoratlar va inshootlar	
	1	Binolar, imoratlar	
	2	<b>Neft va gaz quduqlari</b>	
	3	<b>Neft-gaz omborlari</b>	
	4	Kema qatnaydigan kanallar,	

		suv kanallari	
	5	Ko'priklar	
	6	Dambalar, to'g'onlar	
	7	Daryo va dengiz prichal inshootlari	
	8	Korxonalarning temir yo'llari	
	9	Qirg'oqni mustahkamlovchi, qirg'oqni himoyalovchi inshootlar	
	10	<b>Rezervuarlar, tsisternalar, baklar va boshqa sig'imlar</b>	5
	11	Ichki xo'jalik va xo'jaliklararo sug'orish tarmog'i	
	12	YOpiq kollektor-drenaj tarmog'i	
	13	Havo kemalarining uchish- qo'nish yo'llari, yo'laklari, to'xtash joylari	
	14	Bog'larning va hayvonot bog'larining inshootlari	
	15	Sport-sog'lomlashtirish inshootlari	
	16	Issiqxonalar va parniklar	
	17	Boshqa inshootlar	
II		Uzatish qurilmalari	
	1	Elektr uzatish hamda aloqa qurilmalari va liniyalari	
	2	<b>Ichki gaz quvurlari va quvurlar</b>	8
	3	Vodoprovod, kanalizatsiya va issiqlik tarmoqlari	
	4	<b>Magistral quvurlar</b>	
	5	Boshqalar	

III		Kuch-quvvat beradigan mashinalar va uskunalar	
	1	Issiqlik texnika uskunalari	8
	2	<b>Turbina uskunalari va gaz turbinalari qurilmalari</b>	
	3	Elektr dvigatellari va dizel-generatorlar	
	4	Kompleks qurilmalar	
	5	Boshqa kuch-quvvat beradigan mashinalar va uskunalar (harakatlanuvchi transportdan tashqari)	
IV		Faoliyat turlari bo'yicha ish mashinalari va uskunalar (harakatlanuvchi transportdan tashqari)	
	1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga tegishli mashinalar va uskunalar	
	2	Qishloq xo'jaligi traktorlari, mashinalari va uskunalar	
	3	Kommutatsiyalar va ma'lumotlarni uzatish raqamli elektron uskunalari, raqamli tizimlar uzatish uskunalar, raqamli aloqa o'lchov texnikasi	
	4	Yo'ldosh, uyali aloqa, radiotelefon, peyjing va trunking aloqa uskunalar	
	5	Uzatishlar tizimlari kommutatsiyalarining o'xshash uskunalar	
	6	Kinostudiyalarning maxsus uskunalar, tibbiy va mikrobiologiya sanoati	15

		uskunalar	
	7	Kompressor mashinalari va uskunalar	
	8	Nasoslar	
	9	Yuk ko'tarish-transport, yuk ortish-tushirish mashinalari va uskunalar, tuproq, karyer hamda yo'l-qurilish ishlari uchun mashinalar va uskunalar	
	10	Ustun-qoziq qoqish mashinalari va uskunalar, maydalash-yanchish, saralash, boyitish uskunalar	
	11	Texnologik jarayonlar uchun barcha turdag'i sig'imalar	
	12	<b>Neft qazib chiqarish va burg'ulash uskunalar</b>	
	13	Boshqa mashinalar va uskunalar	
V		Harakatlanuvchan transport	
	1	Temir yo'lning harakatdagi tarkibi	
	2	Dengiz, daryo kemalari, baliqchilik sanoati kemalari	8
	3	Havo transporti	
	4	Avtomobil transportining harakatdagi tarkibi, ishlab chiqarish transporti	
	5	Engil avtomobillar	20
	6	Sanoat traktorlari	
	7	Kommunal transport	10
	8	Maxsus vaxta vagonlari	
	9	Boshqa transport vositalari	20
VI		Kompyuter, periferiya	

		qurilmalari, ma'lumotlarni qayta ishslash uskunalarini	
	1	Kompyuterlar	
	2	Periferiya qurilmalari va ma'lumotlarni qayta ishslash uskunalarini	20
	3	Nusxa ko'chirish-ko'paytirish texnikasi	
	4	Boshqalar	
VII		Boshqa guruhlarga kiritilmagan qat'iy belgilangan aktivlar	
	1	Ko'p yillik dov-daraxtlar	10
	2	Idora mebeli va uskunalarini (shu jumladan telefon apparatlari, hisoblash qurilmalari va boshqalar)	15
	3	Boshqalar	10

Manba: Soliq Kodeksi 144-modda

Soliq solish maqsadlari uchun har bir kichik guruhi bo'yicha amortizatsiya ajratmalari amortizatsiya normasini qo'llash orqali, biroq belgilangan eng yuqori normadan oshmagan holda hisoblab chiqiladi.

Soliq solish maqsadlari uchun amortizatsiyani belgilanganidan pastroq va soliq to'lovchining hisob siyosatida mustahkamlab qo'yilgan normalar bo'yicha hisoblashga yo'l qo'yiladi.<sup>7</sup>

Soliq solinadigan foydaning to'liq hisoblanmagan amortizatsiya summasiga soliq solish maqsadlarida nazarda tutilgan normalarga zid ravishda qayta hisoblash amalga oshirilmaydi.

Foydalanishda bo'lgan asosiy vositalar ob'ektlarini oladigan soliq to'lovchi ushbu asosiy vositalar ob'ekti bo'yicha amortizatsiya normasini mazkur asosiy vositalar ob'ektidan avvalgi mulkdorlar tomonidan foydalanilgan yillar (oylar) soniga kamaytirilgan foydalanish muddatini hisobga olgan holda

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi.-T.: «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami» nashriyoti, 2007 yil.

belgilashga haqlidir. Agar mazkur asosiy vositadan avvalgi mulkdorlarda amalda foydalanish muddati ushbu asosiy vositalarning ushbu moddada tasniflanishi bilan belgilanadigan foydalanish muddatiga teng yoki undan ortiq bo'lsa, soliq to'lovchi texnika xavfsizligi talablarini va boshqa omillarni hisobga olgan holda bu asosiy vositadan unumli foydalanish muddatini mustaqil ravishda, lekin uch yildan kam bo'lman muddatga belgilashga haqlidir. Foydalanishda bo'lgan asosiy vositalardan foydalanish muddatini aniqlash imkoniyati bo'lman taqdirda, amortizatsiyani hisoblash yangi asosiy vositalarga bo'lgani singari amalga oshiriladi.

Nomoddiy aktivlar uchun qilingan xarajatlar soliq to'lovchi tomonidan, ularning boshlang'ich qiymati va unumli foydalanilishi muddatidan, lekin soliq to'lovchining faoliyati muddatidan ortiq bo'lman muddatdan kelib chiqqan holda, hisoblab chiqilgan normalar bo'yicha har oyda eskirish tariqasida jami daromaddan chegirib tashlanadi.

Nomoddiy aktivlar ob'ektidan unumli foydalanish muddatini aniqlash O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga yoki chet davlatning qo'llanilishi mumkin bo'lgan qonun hujjatlariga muvofiq, shuningdek nomoddiy aktivlardan foydalanishning tegishli shartnomalar bilan bog'liq unumli muddatidan kelib chiqqan holda patentning, guvohnomaning amal qilish muddati va intellektual mulk ob'ektlaridan foydalanish muddatlarining boshqa cheklanishlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Unumli foydalanish muddatini aniqlab bo'lmaydigan nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya normalari besh yilga, lekin soliq to'lovchining faoliyat muddatidan ortiq bo'lman muddatga mo'ljallab belgilanadi.

Boshqa xarajatlarga quyidagilar kiradi:

1) soliq to'lovchining faoliyatini amalga oshirish uchun chet yuridik yoki jismoniy shaxslar bajargan ishlar va xizmatlar qiymati, bularga quyidagilar kiradi:

- mahsulot ishlab chiqarish (tayyorlash) bo'yicha ayrim operatsiyalarni bajarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish, xom ashyoga (materiallarga) ishlov berish, belgilangan texnologik jarayonlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, asosiy vositalarga texnik xizmat ko'rsatish va boshqa shu kabi ishlar;

- chet yuridik va jismoniy shaxslarning transport xizmatlari;

- ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etish uchun yoki soliq to'lovchining faoliyati bilan bog'liq boshqa vazifalarni bajarish uchun chet yuridik shaxslar tomonidan xodimlarni (texnik personalni) taqdim etishga doir xizmatlar uchun xarajatlari;

2) asosiy vositalar va boshqa mol-mulkni ish holatida saqlash xarajatlari (texnik ko'rik va qarov, o'rtacha, joriy hamda butkul ta'mirlash xarajatlari). Asosiy vositalarni kapital ta'mirlashni amalga oshirish xarajatlarining bir maromda kiritib borilishini ta'minlash uchun soliq to'lovchi asosiy vositalarning kelgusi ta'mirlanishi uchun belgilangan tartibda zaxiralar tashkil etishga haqli;

3) ijara to'lovlari, shuningdek ijaraga olingan asosiy vositalarni saqlab turish bilan bog'liq xarajatlar;

4) konservatsiyaga qo'yilgan ishlab chiqarish quvvatlari va ob'ektlarini saqlash xarajatlari (boshqa manbalar hisobiga qoplanadigan xarajatlardan tashqari);

5) mahsulotni sertifikatlashtirish, litsenziyalarga va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarga haq to'lash xarajatlari, shuningdek tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ekspertizadan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar;

6) mahsulotni sotish bozorlarini o'rganish xarajatlari;

7) inventarni, xo'jalik anjomlarini va maxsus ish kiyimlarini yuvish, tuzatish hamda dezinfektsiya qilish xarajatlari summasi yoki ularga to'langan haq;

8) qat'iy hisobotdagi blanklarni, kvitantsiyalar va boshqa hujjatlarni tayyorlash xarajatlari summasi yoki ularni olish uchun to'langan haq;

9) tushumni inkassatsiya qilish xarajatlari;

10) reklama uchun xarajatlar;

11) qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'ini kiritgan holda mahsulotni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish tushumi hajmining bir foizi doirasida vakillik xarajatlari. Vakillik xarajatlariga soliq to'lovchining o'zaro hamkorlik o'rnatish yoki uni saqlab turish, shuningdek soliq to'lovchining boshqaruva nazorat organlari majlislariga kelgan ishtirokchilarni qabul qilish hamda ularga xizmat ko'rsatish maqsadlarida qiladigan xarajatlari kiradi. Bu xarajatlar mazkur shaxslarning rasmiy qabulini

o'tkazish, ularni transport bilan ta'minlash, muzokaralar vaqtida bufet (furshet) xizmati ko'rsatish xarajatlari, ziyofatlar va bo'sh vaqtni tashkil etish, soliq to'lovchining shtatida turmagan tarjimonlar xizmatiga haq to'lash xarajatlaridir;

12) kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli ta'mirlash va ularga kafolatli xizmat ko'rsatish xarajatlari;

13) telekommunikatsiyalar va pochta xizmatlari uchun to'lanadigan haq;

14) xizmat safarlari uchun xarajatlar:

a) tasdiqlovchi hujjatlar asosida xizmat safarlari joyiga borish va qaytib kelish uchun haqiqatda qilingan xarajatlar, shu jumladan joyni band qilib qo'yish haqi. Yo'l hujjatlari bo'lмаган taqdirda, xarajatlar temir yo'l transportidagi (yoki agar temir yo'l aloqasi bo'lmasa, shaharlararo avtobusdagi) yo'l haqi qiymati miqdorida, lekin aviachipta qiymatining 30 foizidan ko'p bo'lмаган miqdorda chegirib tashlanadi;

b) O'zbekiston Respublikasi doirasida tasdiqlovchi hujjatlar asosida joyni ijaraga olish uchun haqiqatda qilingan xarajatlar, shu jumladan joyni band qilib qo'yish xarajatlar. Yashaganlikni tasdiqlovchi hujjatlar bo'lmasa, mazkur xarajatlar qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida chegirib tashlanadi. O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqilganda joyni ijaraga olish uchun qilingan xarajatlar qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida chegiriladi;

v) xizmat safarida bo'lingan vaqt uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida to'lanadigan kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

g) qonun hujjatlarida belgilangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa xarajatlar;

15) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan amalga oshiriladigan kompensatsiya to'lovleri;

16) soliq to'lovchining faoliyatida talab etiladigan boshqa shaharlik, chet ellik mutaxassislarni ishga taklif qilish bilan bog'liq xarajatlar;

17) auditorlik tekshiruvlari bo'yicha xarajatlar;

18) maslahat, axborot xizmatlariga, shuningdek buxgalteriya hisobini yuritish va qayta tiklash bo'yicha xizmatlarga haq to'lash;

19) bank va depozitariy xizmatlariga haq to'lash;

20) soliq to'lovchining faoliyatida zarur bo'lgan kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash xarajatlari;

21) qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan hamda soliq to'lovchining xarajatlariga kiritiladigan byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lanadigan soliqlar, boshqa majburiy to'lovlari;

22) xalqaro tashkilotlarga to'lanadigan badallar, agar bunday badallarni to'lash soliq to'lovchi faoliyatni amalga oshirishi uchun yoki O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlariga binoan majburiy shart bo'lsa;

23) mehnat sharoitlarini muhofaza qilish va ta'minlash, texnika xavfsizligi, yong'inga qarshi va soqchilik muhofazasini hamda texnikaviy foydalanish qoidalarida nazarda tutilgan boshqa maxsus talablarni ta'minlash xarajatlari;

24) litsenziya bitimlariga ko'ra huquq egasi bilan shartnoma bo'yicha elektron-hisoblash mashinalari va ma'lumotlar bazalari dasturlaridan foydalanish huquqini olish bilan bog'liq xarajatlar. Mazkur xarajatlarga elektron-hisoblash mashinalari va ma'lumotlar bazalari uchun dasturlarni yangilashga doir xarajatlar ham kiradi;

25) intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlardan va xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositalardan (xususan, ixtirolarg'a, sanoat namunalariga va intellektual mulkning boshqa turlariga bo'lgan patentlardan yuzaga keladigan huquqlardan) foydalanganlik uchun davriy (joriy) to'lovlari;

26) buxgalteriya hisobotini e'lon qilish, shuningdek boshqa axborotni, agar qonun hujjatlarida ularni e'lon qilishni (oshkor qilishni) amalga oshirish majburiyati soliq to'lovchining zimmasiga yuklangan bo'lsa, e'lon qilish va boshqacha tarzda oshkor qilish xarajatlari;

27) xodimning mehnatda jarohatlanishi yoki uning sog'lig'iga boshqacha tarzda shikast etkazilishi yoxud xodim oila a'zosining vafoti munosabati bilan beriladigan yoki xodimning vafoti munosabati bilan oila a'zolariga beriladigan moddiy yordam;

28) qonun hujjatlariga muvofiq bolani ikki yoshga to'lguniga qadar parvarishlash bo'yicha har oylik nafaqani to'lash xarajatlari;

29) qonun hujjatlariga muvofiq qayta tashkil etilishi, xodimlar (shtatlar) sonining qisqarishi munosabati bilan ozod etiladigan xodimlarga to'lovlar;

30) tibbiy yordam punktini saqlab turish xarajatlari, xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazganlik va profilaktika tadbirlari uchun tibbiyot muassasalariga to'lanadigan haq;

31) sog'liqni saqlash ob'ektlari, qariyalar va nogironlar uylari, sog'lomlashtirish oromgohlari, madaniyat hamda sport ob'ektlari, xalq ta'limi ob'ektlari, shuningdek, uy-joy fondi ob'ektlari ta'minotiga doir xarajatlar (shu jumladan, amortizatsiya ajratmalar va barcha turdag'i ta'mirlash ishlarini o'tkazish xarajatlari);

32) ixtiyoriy sug'urta uchun mahsulotni realizatsiya qilishdan qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'ini qo'shgan holda tushgan tushum hajmining 2 foizi doirasidagi ajratmalar, sug'urta mukofotlari summalarini bundan mustasno;

33) mol-mulkni sug'urta qilish va hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotlari summalarini;

34) sug'urtaning majburiy turlariga ajratmalar;

35) atrof muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida kompensatsiya to'lovlarini;

36) faoliyat bilan bog'liq ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalari uchun xarajatlar, bundan asosiy vositalarni sotib olish, ularni o'rnatish hamda kapital tusdag'i boshqa xarajatlar mustasno. Loyiha-smeta hujjatlar, bajarilgan ishlar dalolatnomasi va tegishli ilmiy-tadqiqot, loyihalash, izlanish hamda tajriba-konstrukturlik ishlari o'tkazilganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar bunday xarajatlarni chegirmalar jumlasiga kiritish uchun asos bo'ladi;

37) ishlab chiqarish tusidagi ixtirochilik, ratsionalizatorlik, tajriba-eksperimental ishlarni o'tkazish, ixtirochilik va ratsionalizatorlik takliflari bo'yicha modellar va namunalarni tayyorlash hamda ularni sinash, ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo'yicha ko'rgazmalar va ko'riklar, tanlovlardan tashkil etish, ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo'yicha boshqa tadbirlar, mualliflik haqini to'lash, yangi texnologiyalar yaratish hamda qo'llanilayotgan texnologiyalarni takomillashtirish, yangi turdag'i

xom ashyo va materiallarni yaratish, ishlab chiqarishni qayta jihozlash xarajatlari;

38) soliq to'lovchi tomonidan geologik tadqiqotlar va tabiiy resurslarni qazib olish bo'yicha tayyorgarlik ishlari uchun amalga oshirilgan, jami daromaddan keyingi yillar mobaynida bir maromda yiliga 15 foizdan oshmagan miqdorda chegirib tashlanadigan xarajatlar;

39) qazib oluvchi tarmoqlarda xarajatlarni qoplashning belgilangan muddati mobaynida teng ravishda ishlab chiqarish tannarxiga yoki qazib olingan mahsulotning hajmiga va miqdoriga mutanosib ravishda hisobdan chiqariladigan tayyorgarlik ishlariga doir xarajatlar;

40) zararlar va yo'qotishlar:

a) bekor qilingan ishlab chiqarish buyurtmalari bo'yicha;

b) tara bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha;

v) umidsiz qarzdorlikni hisobdan chiqarishdan ko'rilgan zararlar, bundan shubhali qarzlar bo'yicha tashkil etilgan zaxira hisobiga hisobdan chiqarish mustasno;

g) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi operatsiyalar bo'yicha xarajatlar va zararlar, bundan chegirib tashlanmaydigan xarajatlar va zararlar mustasno;

d) tabiiy ofatlar (ishlab chiqarish zaxiralari, tayyor mahsulotlar va boshqa moddiy boyliklarning nobud bo'lishi hamda buzilishi, ishlab chiqarishning to'xtashi oqibatidagi yo'qotishlar va boshqalar) tufayli ko'rilgan o'rni qoplanmaydigan yo'qotishlar va zararlar, shu jumladan tabiiy ofatlar oqibatlarini oldini olish yoki ularni bartaraf etish bilan bog'liq xarajatlar;

e) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida mol-mulkni bepul topshirishdan ko'rilgan zararlar, shuningdek telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini bepul topshirishdan hamda ulardan bepul foydalanish va ularga xizmat ko'rsatishdan ko'rilgan zararlar;

j) uch yildan ortiq foydalanilgan asosiy vositalarni realizatsiya qilishdan ko'rilgan zararlar;

z) asosiy vositalarni har yili amalga oshiriladigan qayta baholash natijasida vujudga keladigan ilgarigi qo'shimcha

baholashdan (bahoning arzonlashtirilgan summasidan) olinadigan o'sishdan ortadigan bahoni arzonlashtirish summasi;

i) yaroqsiz mahsulotdan ko'rilgan yo'qotishlar;

k) ichki ishlab chiqarish sabablariga ko'ra bekor turib qolishlardan ko'rilgan yo'qotishlar;

l) tashqi sabablarga ko'ra (yuridik shaxsning aybisiz) bekor turib qolishlardan ko'rilgan, aybdorlar tomonidan kompensatsiya qilinmaydigan yo'qotishlar;

41) kreditlar (zayomlar) bo'yicha foizlar, bundan investitsiya davrida kapital qo'yilmalar tarkibiga kiruvchi investitsiyalar uchun olingan kreditlar va zayomlar bo'yicha foizlar mustasno;

42) kredit shartnomasida nazarda tutilgan stavkalar doirasida muddati o'tgan va uzaytirilgan kreditlar (zayomlar) bo'yicha foizlar, bundan investitsiya davrida kapital qo'yilmalar tarkibiga kiruvchi investitsiyalar uchun olingan kreditlar va zayomlar bo'yicha foizlar mustasno;

43) valyuta hisobvaraqlari, shuningdek chet el valyutasidagi operatsiyalar bo'yicha kursdagi salbiy farq, bu farq buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi hollarda jami daromaddan chegirib tashlanadi:

- chet el valyutasi mulk huquqining ushbu chet el valyutasiga o'tishi sanasidagi holatga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan past narxda sotilganda;

- chet el valyutasi mulk huquqining ushbu chet el valyutasiga o'tishi sanasidagi holatga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan yuqori narxda sotib olinganda;

- chet el valyutasi kursining o'zgarishi munosabati bilan tegishli hisobot davri uchun balansning valyuta moddalari qayta baholanganda.

Tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) chet el valyutasida baho belgilaydigan, biroq o'zaro hisob-kitoblarni milliy valyutada amalga oshiradigan soliq to'lovchilar uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilingan sanadan ushbu tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to'langan sanagacha bo'lган davrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilagan kursdagi o'zgarish munosabati bilan yuzaga keluvchi salbiy farq tovarlar

(ishlar, xizmatlar) uchun haq to'langan sanadagi holatga ko'ra jami daromaddan chegirib tashlanadi;

44) o'zining qimmatli qog'ozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlar;

45) moliyaviy ijara, shu jumladan lizing bo'yicha ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) foizli daromadi bo'lган mablag'larni to'lashga doir xarajatlar;

46) soliq to'lovchi tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar va boshqa qarz qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar tarzidagi xarajatlar;

47) favqulodda zararlar. Favqulodda zararlar – soliq to'lovchilarning odatdagi faoliyati doirasidan chetga chiquvchi voqealar yoki operatsiyalar natijasida vujudga keladigan va ro'y berishi kutilmagan odatdan tashqari xarajatlarning moddalaridir. U yoki bu modda favqulodda zararlar moddasi sifatida aks ettirilishi uchun u quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- yuridik shaxsning odatdagi xo'jalik faoliyati uchun xos bo'lmasligi;

- bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi;

48) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektining muassislari (ishtirokchilari) tomonidan uning majburiyatlarini bajarish uchun yo'naltiriladigan mablag'lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu mablag'lar chegirib tashlanadigan xarajatlar sifatida qaralmaydi.

Ayrim xarajatlar ular yuzaga kelgan paytda, joriy hisobot davrida soliq solinadigan bazani hisoblab chiqarishda chegirilmaydi, ular keyingi davrlarda, soliq to'lovchining hisob siyosati bilan belgilangan, lekin o'n yildan ko'p bo'lмаган muddat ichida chegirilishi lozim. Bunday xarajatlarga quyidagilar kiradi:<sup>8</sup>

1) yangi ishlab chiqarishlar, tsexlar, agregatlarni, shuningdek seriyali va ommaviy ishlab chiqariladigan yangi mahsulot turlarini hamda texnologik jarayonlarni o'zlashtirish xarajatlari;

---

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi.-T.: «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami» nashriyoti, 2007 yil.

2) barcha turdag'i asbob-uskunalar va texnik qurilmalarni, ularning o'rnatilish sifatini tekshirib ko'rish maqsadida kompleks sinab ko'rish (ishlab turgan holatida) xarajatlari;

3) ishchi kuchlari qabul qilish va yangi ishga tushirilgan korxonada ishlash uchun kadrlar tayyorlash bilan bog'liq xarajatlar;

4) asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning jadallashtirilgan usulda hisoblangan amortizatsiya summasi bilan belgilangan normalar bo'yicha hisoblangan amortizatsiya summasi o'rtasidagi farq.

Shubhali qarzlar bo'yicha zaxira tashkil etish uchun qilingan xarajatlар umidsiz deb e'tirof etilgan qarzdorlikni hisobdan chiqarilayotganda, hisobdan chiqarilishi lozim bo'lgan umidsiz qarzdorlik miqdoridan oshmaydigan summada chegirib tashlanadi.

Soliq solinadigan foydani aniqlashda chegirilmaydigan xarajatlarga quyidagilar kiradi:

1) moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi normalardan ortiqcha yo'qotishlar va buzilishlar;

2) xodimlarga beriladigan yoki soliq to'lovchining umumiy ovqatlanish ehtiyojlari uchun yordamchi xo'jaliklar tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlar bo'yicha narxdagi farqlar (zararlar);

3) belgilangan normalardan ortiqcha xarajatlari (xizmat safarlari, vakillik xarajatlari, ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha ajratmalar);

4) nodavlat pensiya jamg'armalariga ajratmalar;

5) xo'jalik boshqaruvi organini saqlab turish uchun ajratmalar;

6) umumiy ovqatlanish korxonalari yoki boshqa chet tashkilotlarga joylarni bepul berish xarajatlari, ushbu korxonalar va tashkilotlar uchun kommunal xizmatlar ko'rsatish qiymatini to'lash;

7) yillik moliyaviy hisobotni bir hisobot davrida bir martadan ortiq auditdan o'tkazish xarajatlari;

8) soliq to'lovchining faoliyatida talab etilmaydigan kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlash xarajatlari;

9) xodimlarga bepul ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar, beriladigan oziq-ovqatlar, tovarlar, mahsulotlar va boshqa qimmatliklar yoki xodimlar uchun ishlar hamda xizmatlarni

bajarish qiymati, ularga bepul beriladigan uy-joy haqini to'lash xarajatlari (uy-joy, kommunal xizmatlar va boshqalar uchun pul kompensatsiyasi summalari);

10) xodimlarga qo'shimcha berilgan ta'tillarga to'langan haq va ular yuzasidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan normalardan ortiqcha kompensatsiyalar;

11) xodimlarning ovqatlanishi, yo'l haqi, davolanishi uchun, davolanish va dam olishi uchun yo'llanmalar, ekskursiyalar va sayohatlar uchun, sport sektsiyalari, to'garaklari, klublaridagi mashg'ulotlarga, madaniy-tomosha, jismoniy tarbiya va sport tadbirlariga borishi uchun, obunaga hamda xodimlarning shaxsiy foydalanishi uchun tovarlarga qilingan xarajatlarning o'rnini qoplash yoki to'lash va boshqa shunga o'xshash to'lovlar;

12) pensiyalarga ustamalar, pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga biryo'la to'lanadigan nafaqalar;

13) xodimlarga to'lanadigan moddiy yordam (belgilangan me'yordan ortig'i);

14) ishlab chiqarishda shikastlanganlik tufayli mehnat layoqatini yo'qotganlik munosabati bilan tegishli vakolatli organlarning qarorlarisiz haqiqatdagi ish haqigacha to'lanadigan to'lovlar;

15) ekologiya, sog'lomlashtirish hamda boshqa xayriya jamg'armalariga, madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya va sport korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga badallar kiritish;

16) ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lмаган sog'liqni saqlash va dam olishni tashkil qilish tadbirlariga xarajatlar;

17) mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lмаган ishlarni (xizmatlarni) (shaharlar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo'jaligiga yordam ko'rsatish va boshqa turdag'i ishlari) bajarishga sarflangan xarajatlar;

18) atrof muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha bo'lganligi uchun kompensatsiya to'lovleri;

19) kredit shartnomasida muddatli qarzlar uchun nazarda tutilgan stavkalardan ortiqcha to'lov muddati o'tgan hamda uzaytirilgan kreditlar (zayomlar) bo'yicha foizlar;

20) loyihalardagi va qurilish-montaj ishlaridagi kamchiliklarni, shuningdek ob'ekt yonidagi omborga tashib keltirilguniga qadar yuz bergan buzilishlar va deformatsiyalarni bartaraf etish bo'yicha xarajatlar, korroziyaga qarshi muhofazadagi nuqsonlar tufayli taftish o'tkazish (asbob-uskunalarni qismlarga ajratish) xarajatlari, ushbu xarajatlarni kamchiliklar, buzilishlar yoki zararlar uchun javobgar bo'lган mahsulot yetkazib beruvchi yoki boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisobiga o'rnini qoplash mumkin bo'lмаган miqdordagi boshqa shunga o'xshash xarajatlar;

21) bayram sanalari va muhim sanalar, jamoat faoliyatidagi yutuqlar munosabati bilan xodimlarni rag'batlantirish hisoblanadigan bir yo'la mukofotlar;

22) sud chiqimlari;

23) aybdorlari aniqlanmagan o'g'irliklar va kamomaddan yoki aybdor tomon hisobidan zarur summalarning o'rmini qoplash mumkin bo'lмагanda ko'rilgan zararlar;

24) soliq to'lovchining asosiy vositalari va boshqa mol-mulkining (aktivlarining) chiqib ketishidan (balansdan chiqarilishidan) ko'rilgan (buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan) zararlar;

25) xo'jalik shartnomalari shartlarini va qonun hujjatlarini buzganlik uchun to'langan yoki tan olingan jarimalar, penya hamda boshqa turdagи sanktsiyalar;

26) davlat ulushlarini boshqarish bo'yicha boshqaruvchi kompaniyalar, davlat ishonchli boshqaruvchilar va ishonchli boshqaruvchilar xizmatlarining qiymatini hamda ularga mukofotlar to'lash, shuningdek kompaniyalarning boshqa professional boshqaruvchilariga mukofotlar to'lashga doir xarajatlar;

27) boshqa xarajatlar.

O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 29 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-196-sonli qonuni

bilan Soliq kodeksiga bir qator o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Mazkur qonun bilan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 79 ta moddasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Jumladan:

- 12 ta modda – yangi normalar va qoidalarni belgilash, shuningdek 6 tasi soliq-byudjet siyosati kontseptsiyasida ko'zda tutilgan ayrim qoidalarni chiqarib tashlash va o'zgartirishlar kiritish bilan bog'liq;
- 67 ta moddada esa – aniqlik va tuzatish kiritish, tahriri o'zgartirish hamda aniqlik kirituvchi so'zlar va jumlalar bilan to'ldirishdan iboratdir.

Ushbu qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga 2009 yil 1 yanvaridan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

145-moddada - boshqa xarajatlarga kiruvchi zararlar va yo'qotishlarga qarz summasi bilan mazkur qarzni yuzaga keltirgan realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxi o'rtasidagi farqdan oshmaydigan summa doirasidagi qarzni talab qilish huquqidан o'zganining foydasiga voz kechishdan ko'rilgan zararlar kiritildi.

Agar realizatsiya qilingan debtorlik qarz uchun olingen summa mazkur debtorlik qarzi yuzaga kelgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxidan oshadigan bo'lsa, bunda yuzaga kelgan yo'qotishlar soliq solinadigan bazadan chiqarib tashlanishi lozim bo'ladi.

155-moddaga kiritilgan qo'shimcha lizing kompaniyalarini keljakda rivojlantirish va imtiyozlarni bixillashtirish maqsadida lizing kompaniyalarga imtiyoz byerildi. Lizing kompaniyalari ham banklar singari xorijiy moliya institutlaridan kreditlarni jalb etgan holda daromad olishadi, biroq foizi to'langanida to'lov manbaida 10% stavka bo'yicha soliq ushlab qolinar edi. Bunday opyeratsiyalarni banklar ham amalga oshiradi va bunday opyeratsiyalarni amalga oshirishda ular imtiyozga ega bo'lib, ushbu imtiyozlar lizing kompaniyalari uchun ham tadbiq etildi.

165-moddaga kiritilgan qo'shimcha banklar tomonidan norezidentlarning daromadlari bo'yicha byudjetga o'tkazishi lozim bo'lган yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'inинг

to'lov muddatlariga aniqlik kiritdi, ya'ni, oy yakuni bo'yicha to'lanadigan qilib belgilandi.

Yuridik shaxslarning soliq solinadigan foydasi quyidagi summaga kamaytiriladi:

1) ekologiya, sog'lomlashtirish va xayriya jamg'armalari, madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga beriladigan badallar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning bir foizidan ko'p bo'lмаган miqdorda;

2) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida kollejlar, akademik litseylar, maktablar va maktabgacha tarbiya ta'lim muassasalari qurilishiga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga, lekin soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko'p bo'lмаган miqdorda;

3) asosiy ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish maqsadida foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruktsiya qilishga, shuningdek ushbu maqsadlar uchun olingan kreditlarni uzishga yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirib tashlagan holda, biroq soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko'p bo'lмаган miqdorda;

4) ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, yangi texnologik jihozlar xarid qilishga, ushbu maqsadlar uchun berilgan kreditlarni uzishga, lizing ob'ekti qiymatining o'rnini qoplashga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirgan holda yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga. Soliq solinadigan bazani kamaytirish yuqorida ko'rsatib o'tilgan xarajatlar amalga oshirilgan soliq davridan e'tiboran, texnologik jihozlar bo'yicha esa u foydalanishga topshirilgan paytdan e'tiboran uch yil ichida amalga oshiriladi. Yangi texnologiya jihozlari ular olingan (import qilingan) paytdan e'tiboran uch yil ichida realizatsiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi foydadan olinadigan soliqni to'lash bo'yicha majburiyatlar tiklangan holda, imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun bekor qilinadi;

5) yosh oilalar toifasiga kiruvchi xodimlarga ipoteka kreditlari badallari to'lashga va mulk sifatida uy-joy olishga tekin

yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga, biroq soliq solinadigan bazaning 10 foizidan oshmagan miqdorda;

Chegirilishi lozim bo'lgan xarajatlarning jami daromaddan oshib ketishi zarar deb e'tirof etiladi.

Soliq to'lovchi ko'rilgan zararlarni ushbu zarar ko'rilgan soliq davridan keyingi besh yil ichida kelgusiga taqsimlab o'tkazishni amalga oshirishga haqlidir.

O'tgan soliq davrida yoki o'tgan soliq davrlarida hisoblab chiqarilgan zarari (zararlari) bo'lgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'inining to'lovchilari joriy soliq davrining soliq solinadigan foydasini ko'rilgan zararning to'liq summasiga yoki bu summaning bir qismiga kamaytirishga haqlidir.

Taqsimlab o'tkazilayotgan zararning har bir navbatdagi soliq davrida hisobga olinadigan jami summasi joriy soliq davrining hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydaning 50 foizidan oshmasligi kerak.

Soliq solinadigan foyda taqsimlab o'tkazilishi kerak bo'lgan zarar summasi miqdoriga faqat yil yakunlari bo'yicha kamaytirilishi mumkin.

Birdan ortiq kalendar yilda ko'rilgan zararlar ular ko'rilgan ketma-ketlikda taqsimlab o'tkaziladi.

Soliq to'lovchining yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan ozod qilingan soliq davrida ko'rgan zararlari keyingi soliq davrlariga taqsimlab o'tkazilishi mumkin emas.

Soliq to'lovchi qayta tashkil etilishi munosabati bilan faoliyatini tugatgan taqdirda, soliq to'lovchi-huquqiy voris soliq solinadigan foydani qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning qayta tashkil etish paytigacha ko'rgan zararlari summasiga kamaytirishga haqli hisoblanadi.

Shu tarzda hisoblangan foyda 2007 yildan boshlab 10 foizli soliq stavkasi bilan soliqqa tortiladi va soliq summasi hisoblab chiqiladi.

Yuqoridagi mexanizmga asosan, misol tariqasida, "Uzneftmahsulot" AK bo'yicha 2008 yilning 1-choragi uchun yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlarni hisoblash uchun ma'lumotnomma quyidagi jadvalga muvofiq amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy  
to'lovlarini hisoblash uchun ma'lumotnomasi  
“Uzneftmahsulot” AK bo'yicha 2008 yilning 1-choragi uchun

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa ( mln.so'm)
Hisobot davrida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lagunga qadar taxmin qilinayotgan foyda summasi	010	50000
Taxmin qilinayotgan foydaning tuzatish koeffitsienti (110-satrning oldingi chorakda foyda solig'i hisob-kitobining 010-satriga nisbati x100), % da	020	20
Hisobot davridagi taxmin qilinayotgan soliq solish bazasi (010-satr x 020-satr)	030	60000
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i uchun belgilangan stavka, %	040	10
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi (030-satr x 040-satr)	050	6000
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlar summasi (050-satr / 3)	060	2000

Izoh: Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitoblari o'sib boruvchi yakun bilan tuzilishini hisobga olib, tuzatish koeffitsentini hisoblab chiqarish uchun ma'lumotlar hisob-kitob bo'yicha 1 chorak, 2 chorak (1 yarim yillik ayiruv 1 chorak) va hokazo uchun aniqlanadi. (hisob-kitoblar yangi tasdiqlangan shakllarda amalga oshirilgan).

8-jadval

**Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobi  
“Uzneftmahsulot” AK bo'yicha 2007 yil uchun**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'langunga qadar foyda (zarar) ("Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot"-2-sonli shaklning 240-satri)	010	208 476 362
Soliq to'lovchi tomonidan boshqa shaxslardan tekinga olingan mol-mulk(*)	020	-
Chegirilmaydigan xarajatlar (soliq solinadigan bazaga kiritiladigan xarajatlar) (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 1-son ilovasining 010-satri)	030	20 065 033
Hisobot davrida soliq solinadigan bazadan chegirilmaydigan, biroq kelgusi hisobot (soliq) davrlarning soliq solinadigan bazasidan chiqarib tashlanadigan xarajatlar (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 2-son ilovasining 010-satri)	040	109549
Hisobot davrida soliq solinadigan bazadan chegirib tashlanadigan ilgari qilingan xarajatlar (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 3-son ilovasining 010-satri)	050	-
Hisobot (soliq) davrining soliq solinadigan bazasiga kiritiladigan xarajatlar (030-satr + 040-satr - 050-satr)	060	
Olingan (olinishi lozim bo'lgan) dividendlar	070	172 000
Olingan (olinishi lozim bo'lgan) foizlar	080	
Soliq solinadigan foyda (010-satr + 020-satr + 060-satr - 070-satr - 080-satr)	090	228 369 395

Imtiyozlar - jami (1001-satr + 1002-satr)	100	1 413 589
shu jumladan:		
soliq solishdan ozod qilinadigan foyda (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 4-son ilova 060- satrining 3-ustuni)	1001	
soliq solinadigan foydani kamaytirish (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 5-son ilovasining 010-satri)	1002	1 413 589
Soliq solinadigan baza – jami (090-satr – 100-satr)	110	226 955 806
shu jumladan hisoblangan:		
plastik kartochkalar qo'llanilib to'langan ko'rsatilgan xizmatlar hajmidan olingan foydadan (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 9-son ilovasining 030-satri x 110-satr)	1101	-
1101-satrda keltirilgan summa chegirilgan holda foydadan (110-satr – 1101-satr)	1102	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining belgilangan stavkasi	120	10%
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining tuzatilgan stavkasi:	130	
eksport qiluvchi korxonalar uchun, eksport ulushiga qarab, % da (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 10- son ilovasining 060-satri)	1301	-
xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari uchun plastik kartochkalar qo'llanilib to'langan ko'rsatilgan xizmatlar hajmidan olingan foydadan, % da [1301-satr – (1301-satr x 10%)]	1302	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi – jami (150-satr + 160-	140	22 695 581

satr)		
shu jumladan hisoblangan:		
1101 satrda ko'rsatilgan foydadan (1101-satr x 1302-s)	150	
1102 satrda ko'rsatilgan foydadan (1102-satr x 1301-s)	160	
Nogironlar mehnatidan foydalanayotgan korxonalar uchun foyda solig'ining tuzatish kiritilgan summasi (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 11-son ilovasining 070-satri)	170	-
Byudjetga to'lanadigan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi (140-satr – 170-satr)	180	22 695 581
Oldingi hisobot davri uchun hisoblangan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi	190	15 934 972
Qo'shimcha byudjetga (muddatida)		6 760 609

Manba: "Uzneftmahsulot" aktsiyadorlik kompaniyasi ma'lumoti asosida tayyorlandi.

9-jadval  
“O’zneftmahsulot” aktsiyadorlik kompaniyasi korxonalarining moliyaviy natijalari to’g’rsida ma'lumot  
(ming so’mda)

Ko'satkichlarning nomi	Satr kodi	2006 yil		2007 yil	
		Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zarar)	Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zarar)
1	2	3	4	5	6
Mahsulotni sotishdan tushgan yalpi tushum	005	4574117 53	X	640 647 636	X
Qo'shilgan qiymat solig'i	006		76 324 248		106864991

Aktsiz solig'i	007		147440186		131418350
Eksport va bojxona bojlari	008		X		X
Boshqa soliqlar va to'lovlar	009		404134		506 737
Mahsulotni sotishdan sof tushum	010	233 243 185	X	401 857 558	X
Sotilgan mahsulotlarning tannarxi	020	X	106 387 549		127027261
Mahsulotni sotishdan tushgan yalpi foyda	030	1268556 36	X	27483029 7	X
Davr xarajatlari, jami	040	X	47 001 171	X	68350965
Sotish xarajatlari	050	X	15335473	X	20 108 317
Ma'muriy xarajatlar	060	X	2083155	X	3 549 293
Boshqa operatsion xarajatlar	070	X	29 582 543	X	44 693 355
Kelgusida xarajatlari	080	X		X	
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	090	1 433 823	X	1 729 221	X
<b>Asosiy faoliyat foydasi, jami</b>	<b>100</b>	<b>8128828 8</b>		<b>20820855 3</b>	
Moliyaviy faoliyatning daromadlar	110	869 587	X	340 723	X
Divident shaklidagi daromadlar	120	92593	X		X
Foizlar shaklidagi daromadlar	130		X		X
Lizing daromadlari	140		X		X
Valyuta kursi farqidan daromadlar	150	776994	X	168723	X
Moliyaviy faoliyatning boshqa	160		X	172 000	X

daromadlari					
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar, jami	170	X	352 057	X	72914
Foizlar shaklidagi xarajatlar	180	X	16658		4650
Lizing xarajatlari	190	X			
Valyuta kursi farqidan zararlar	200	X	332819		68264
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	210	X	2580		
Umumxo'jalik faoliyatining foydasi	220	81 805 818		20847636 2	
Favquloddagi foyda va zarar	230				
<b>Daromad (foyda) solig'i to'langunga qadar foyda</b>	240	8180581 8		208 476 362	
Daromad (foydadan)	250	X	11587133	X	22 695 581
Yuqoridagi moddalarga kirmavdig'an hoshaa	260	X	5617495	X	14348858
<b>Hisobot davrining sof foydasi</b>	270	64 601 190		171 431 923	

Manba: "Uzneftmahsulot" aktsiyadorlik kompaniyasi ma'lumotlari

### 3.3. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalari va to'lov muddatlari

10-jadval

#### Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalari

N	To'lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan %da soliq stavkalari
1.	Yuridik shaxslar (2-3-bandlarda nazarda tutilganlaridan tashqari)	10
2.	Tijorat banklari	15
3.	Auktsionlar o'tkazishdan, gastrol-kontsert faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziyasi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shuningdek norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi yuridik shaxslar	35
4.	O'zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 10 oktyabrdagi PF-1871-sون Farmoni bilan tasdiqlangan ro'yxatda keltirilgan xom ashyo mahsulotlaridan tashqari) eksportining (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish joyidan qat'i nazar) erkin almashtiriladigan valyutadagi qissasi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksportchi korxonalar uchun:	belgilangan stavka 30% ga pasaytiriladi
	sotishning umumiyligi hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 50% ga pasaytiriladi
	sotishning umumiyligi hajmida 30 foiz va undan yuqori	belgilangan stavka 10% ga pasaytiriladi
5.	1-bandda ko'rsatilgan xizmatlar ko'rsatish sohasi korxonalari uchun, plastik kartalar qo'llab haq to'langani ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha	belgilangan stavka 10% ga pasaytiriladi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrdagi PQ-1024-son qaroriga 7-ilova	

11-jadval  
Ayrim turdag'i mahsulotlar bo'yicha qo'shimcha foyda solig'i stavkalari (2009)

Mahsulot nomi	Soliq solinadigan bazaning miqdori (QQSsiz)	Soliq stavkas i
Katodli mis 1)	so'mdagi ekvivalentda "kesish narxi" gacha 1 tonna uchun 4 000 AQSh dollaridan yuqori	60 foiz
Tabiiy gaz 1)	so'mdagi ekvivalentda "kesish narxi" gacha 1 000 kub m. uchun 130 AQSh dollaridan yuqori	
Polietilen granulalar 1)	1 tonna uchun 1 340 000 so'mdan yuqori	75 foiz
sement 2)	1 tonna uchun 90 000 so'mdan yuqori	

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrdagi PQ-1024-son qaroriga 15-ilova

1) Qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar soliq to'langandan so'ng qo'shimcha foydaning ular ixtiyorida qoladigan qismini to'liq hajmda maxsus ochiladigan investitsiya hisobvarag'lariiga o'tkazadilar. Ko'rsatilgan investitsiya hisobvarag'laridan mablag'lar faqat O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda sotish uchun belgilangan tartibda ma'qullangan investitsiya loyihibarini moliyalash, investitsiya loyihibarini amalga oshirishga jalgan kreditlarga xizmat ko'rsatish, shuningdek asosiy ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlashga sarflanadi.

2) Muqobil yoqilg'i - ko'mir asosida ishlab chiqarilgan oq sement va sementdan tash?ari.

Qo'shimcha foyda solig'i hisoblab chiqarish va to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Tabiiy gaz bo'yicha qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar bo'lib tabiiy gazni eksportga realizatsiya qiladigan, qonun hujjatlariga muvofiq soliq solish ob'yekti yuzaga keladigan yuridik shaxslar (mahsulot taqsimoti to'g'risidagi bitim doirasida faoliyatni amalga oshiradigan operatorlarning investori bundan mustasno) hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lмаган va to'lov manbaida soliq solinadigan daromadlariga quyidagi stavkalar bo'yicha soliq solinadi:

- 1) dividendlar va foizlarga – 10 foiz;
- 2) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlariga – 10 foiz;
- 3) xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar, xalqaro tashishlarga (fraxtdan olinadigan daromadlarga) – 6 foiz;
- 4) boshqa daromadlar – 20 foiz.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisob-kitobi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari doimiy muassasa joylashgan joydagi davlat soliq xizmati organiga O'zbekiston Respublikasidagi faoliyatining xususiyati haqidagi hisobotni (erkin shaklda), shuningdek yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisob-kitobini chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar uchun yillik moliyaviy hisobotni topshirish uchun belgilangan muddatlarda taqdim etadi. Bunda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisob-kitobida byudjetga to'lanadigan sof foydadan olinadigan soliq summasi alohida satrda ko'rsatiladi. Faoliyat kalendar yil

tugashidan avval tugatilgan taqdirda, bu hujjatlar faoliyat tugatilganidan keyin bir oydan kechiktirmasdan taqdim etilishi shart.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlarning summasini aniqlash uchun soliq to'lovchilar joriy hisobot davri birinchi oyining 10-kunigacha davlat soliq xizmati organiga joriy hisobot davri uchun taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'inining belgilangan stavkasidan kelib chiqib hisoblangan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'inining summasi haqida ma'lumotnomasi taqdim etadilar. Hisobot davrida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foyda eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan kam miqdorni tashkil etadigan soliq to'lovchilar joriy to'lovlarni to'lamaydi.

Taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi hisobot davri uchun byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasiga nisbatan 10 foizdan ko'proq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to'lovlarni yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'inining haqiqiy summasidan kelib chiqib penya hisoblagan holda qayta hisoblashga haqli.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lash hisob-kitoblarni topshirish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini, shuningdek sof foydadan olinadigan soliqni joriy to'lovlarni to'lamasdan yiliga bir marta, hisob-kitobni taqdim etish muddatidan keyin bir oy ichida to'laydi.

### **3.4 Yagona soliq to'lovi**

Soliq Kodeksining XX bo'limi 55-bob 348-moddasida soliq solishning soddallashtirilgan tartibini qo'llash keng yoritilgan.

Soliq solishning soddallashtirilgan tartibi soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun qo'llaniladi va yagona soliq to'lovini, yagona yer solig'ini hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish hamda to'lashning maxsus qoidalari qo'llanilishini,

shuningdek mazkur soliqlar bo'yicha soliq hisoboti taqdim etilishini nazarda tutadi.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi qo'llanilganda ayrim umumbelgilangan soliqlarni to'lashga doir majburiyatlar mavjud.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan soliq to'lovchilar uchun, to'lov manbaida soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni ushlab qolish majburiyatlari hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatlari saqlanib qoladi:

to'lov manbaida undiriladigan foyda solig'i;

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan bajariladigan (ko'rsatiladigan) ishlari (xizmatlar) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i;

bojxona to'lovlari;

yagona ijtimoiy to'lov;

davlat bojlari;

tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im;

avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Soliq Kodeksining 56-bobida esa yagona soliq to'lovi mexanizmi yoritilgan bo'lib, unga ko'ra yagona soliq to'lovini to'lovchilar quyidagilardir:

1) mikrofirmalar va kichik korxonalar;

2) xodimlarning sonidan qat'iy nazar:

savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalari;

xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar;

lotyereyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar.

Yagona soliq to'lovi quyidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga tatbiq etilmaydi:

aktsiz solig'i to'lanadigan mahsulot ishlab chiqaruvchi va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalarga;

yagona yer solig'i va qat'iy belgilangan soliq to'lash nazarda tutilgan faoliyat doirasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga;

mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchisi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalarga.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga xodimlarining soni bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan mezonga mos keladigan yuridik shaxslar kiradi. Bunda:

- xodimlarning soni hisobot yili uchun xodimlarning o'rtacha yillik sonidan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

- xodimlarning o'rtacha yillik sonini aniqlashda o'rindoshlik, pudrat shartnomalari va boshqa fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalar bo'yicha ishga qabul qilingan xodimlarning, shuningdek unitar (sho'ba) korxonalarda, vakolatxonalar va filiallarda ishlayotganlarning soni ham hisobga olinadi;

- yuridik shaxslarni mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kiritishda yuridik shaxsning asosiy faoliyat (ixtisosligi) turiga to'g'ri keladigan xodimlar sonining mezoni qabul qilinadi.

Soliq solish maqsadida savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalari jumlasiga savdo faoliyati, umumiyligi ovqatlanish sohasidagi faoliyat o'tgan hisobot yili yakunlari bo'yicha asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar kiradi.

Quyidagilarga savdo faoliyati sifatida qaralmaydi:

o'zi ishlab chiqargan mahsulot bo'lgan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan ularni mustaqil yuridik shaxs bo'limgan firma do'konlari orqali realizatsiya qilish;

ositachi, ishonchli vakil tomonidan osoritachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni realizatsiya qilish;

tayyorlov va ta'minot-sotish faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan tovarlarni realizatsiya qilish.

Umumiyligi ovqatlanish sohasidagi faoliyat deganda kulinariya, shuningdek boshqa oziq-ovqat mahsulotini tayyorlash, realizatsiya qilish va ularni iste'mol qilishni tashkil etish bo'yicha faoliyat tushuniladi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar (savdo umumovqatlanish korxonalaridan tashqari) yagona soliq to'lovini to'lashni nazarda tutadigan soliq solishning soddalashtirilgan tartibini yoki umumbelgilangan soliqlar to'lashni tanlashga haqli.

Faoliyat ko'rsatayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashga o'tish uchun keyingi hisobot davri boshlanishiga kamida bir oy qolganda, yangi tashkil etilgan mikrofirmalar va kichik korxonalar esa, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n besh kundan kechiktirmasdan soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini yagona soliq to'lovini to'lashga o'tishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etadi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashdan ixtiyoriy ravishda voz kechgan taqdirda hisobot davri tugaganidan so'ng o'n kun ichida davlat soliq xizmati organlariga taqdim qilinadigan yozma bildirish asosida keyingi hisobot davridan boshlab umumbelgilangan soliqlar to'lashga o'tadi.

Hisobot yili tugashi bilan belgilangan xodimlar soni mezoniga mos kelmaydigan yagona soliq to'lovini to'lovchilar davlat soliq xizmati organlariga yillik moliyaviy hisobot taqdim etish muddatidan kechiktirmay taqdim etiladigan yozma bildirish asosida keyingi hisobot yilidan boshlab umumbelgilangan soliqlar to'lashga o'tadi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar yagona soliq to'lovini to'lash huquqidan mahrum bo'lган o'tgan hisobot yili uchun umumbelgilangan soliqlar bo'yicha hisob-kitoblar asosida yagona soliq to'lovi yuzasidan qayta hisob-kitobni amalga oshiradi.

Yagona soliq to'lovi bo'yicha qayta hisob-kitob o'tkazish uchun yagona soliq to'lovini to'lovchilar yil yakunlari bo'yicha yagona soliq to'lovi hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirmay soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagilarni taqdim etadilar:

belgilangan shaklda va tartibda umumbelgilangan soliqlarning har bir turi bo'yicha hisob-kitoblarni;

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda hisoblab chiqarilgan umumbelgilangan soliqlar summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani.

Umumbelgilangan soliqlar summasi hisoblangan yagona soliq to'lovi summasidan oshib ketgan taqdirda oshgan summa byudjetga to'lanishi lozim.

Hisoblangan yagona soliq to’lovi summasi umumbelgilangan soliqlar summasidan oshib ketgan taqdirda, byudjet bilan qayta hisob-kitoblar amalga oshirilmaydi.

Yagona soliq to’lovi bo’yicha qayta hisob-kitob o’tkazish tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib oluvchilar bilan tegishli qayta hisob-kitoblarsiz amalga oshiriladi.

12 - jadval

Kichik korxona va mikrofirmalar uchun yagona soliq  
to'lovi stavkasining pasayib borish dinamikasi

Yillar	yagona soliq va yagona soliq to'lovi stavkalari
1998-2002 (byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar bilan )	13.2
2003 (byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar bilan )	15.2
2004 (byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar bilan )	15.2
2005 yil 1 iyuldan boshlab byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlardan ozod etilgan holda	15.2 / 13
2006	13
2007	10
2008	8
2009	8 / 7

Manba: O'zR. Davlat statistika Qumitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalari tomonidan yagona soliq to'lovini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

O'tgan yil yakunlari bo'yicha asosiy (soha) faoliyat turi savdo faoliyati va umumiyl ovqatlanish sohasidagi faoliyat bo'lgan yuridik shaxslar belgilangan tartibda hisobot yili boshidan boshlab yagona soliq to'lovini to'lashi kerak.

Savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalari sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar yagona soliq to'lovini davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran joriy yil tugaguniga qadar, 1 oktyabrdan keyin

ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar esa keyingi yil tugaguniga qadar to'laydi.

Agar yuridik shaxslar hisobot yili yakunlari bo'yicha belgilangan shartlarga javob bermasalar, ular kelgusi yil boshidan boshlab umumbelgilangan soliqlar to'lashga o'tishlari kerak, soliq solish tartibini tanlash huquqi saqlab qolinadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno. Bunda mikrofirmalar va kichik korxonalar belgilangan shartlarga javob bermay qolingga hisobot yili tugaganidan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga soliq solish tartibi tanlaganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shaklda yozma bildirish taqdim etishlari shart. Soliq to'lovchi tomonidan yozma bildirishning belgilangan muddatda taqdim etilmaganligi uning umumbelgilangan soliqlarni to'lashga byerilgan roziligi deb hisoblanadi.

13-jadval

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini,  
shu jumladan mikrofirmalar va kichik  
korxonalar uchun yagona soliq to'lovining stavkalari

N	To'lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
1.	Umumiy ovqatlanish korxonalarini ulardan: umumiy ta'lim maktablari, maktab-intyernatlar, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalarini	10 8
2.	Chakana savdo korxonalarini (4-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari): aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	4
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo'lган va tog'lik tumanlarda	1
3.	Ulgurji savdo korxonalarini (4-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari)*	5
4.	Ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari: aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	3
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo'lган va tog'lik tumanlarda	1
5.	1, 2 va 4-bandlarda ko'rsatilgan korxonalar uchun (ulgurji dorixona tashkilotlaridan tashqari), plastik kartalar qo'llanib haq to'lab sotilgan tovarlar (ko'rsatilgan xizmatlar) hajmi bo'yicha	belgilangan stavka 10%ga pasaytiriladi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrdagi PQ-1024-son qaroriga 9-2-ilova

\*) Ulgurji savdo korxonalarini uyushmasi tizimiga kiruvchi respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralari va ularning hududiy (viloyat, viloyatlararo va tumanlararo) bazalari bundan

mustasno. Ular uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 8 iyundagi "Ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralarni soliqqa tortish tartibini takomillashtirish to'g'risida" PQ-374-son qarorining amal qilishi saqlab qolinadi.

Turli soliq solish ob'ektlari va yagona soliq to'lovi stavkalari belgilangan bir necha faoliyat turlari bilan shug'ullanadigan yagona soliq to'lovini to'lovchilar shu faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari hamda soliq to'lovchilarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lashlari kerak. Bunda ko'rsatilgan daromadlarga asosiy (soha) faoliyat turi uchun belgilangan yagona soliq to'lovi stavkalari bo'yicha soliq solinadi.

Lotereya o'yinlarini tashkil qilish faoliyati bilan birga boshqa faoliyat turlarini amalga oshiradigan yuridik shaxslar ushbu faoliyat turlari bo'yicha quyidagilarni to'laydi:

agar ular mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirsa — yagona soliq to'lovini yoki umumbelgilangan soliqlarni;

agar ular mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmasa, —umumbelgilangan soliqlarni.

14-jadval

#### Ayrim turdag'i korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkalari

N	To'lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
1.	Lotereyalar tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalar (mazkur faoliyat turi doirasida)	33
2.	Xususiy amaliyot bilan shug'ullanadigan notariuslar	50

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrdagi PQ-1024-son qaroriga 9-3-ilova

Umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan yagona soliq to'lovini to'lovchilar kamida o'n ikki oydan so'ng yagona soliq to'lovini to'lashga qayta o'tishga haqlidir.

Yagona soliq to'lovini to'lashdan umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan soliq to'lovchilar umumbelgilangan

soliqlarni to'lashga o'tilgan birinchi chorak uchun yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i hamda mol-mulk solig'i bo'yicha joriy to'lovlarni to'lashdan ozod qilinadi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar yagona soliq to'lovi to'lash muddatini davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yil muddatga kechiktirish huquqiga ega, kechiktirilgan summalar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda imtiyozli davr tugaganidan so'ng o'n ikki oy ichida teng ulushlar bilan to'lanadi.

Agar yagona soliq to'lovini to'lovchilar qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan oborotni amalga oshirsalar, qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy asosda to'lashlari mumkin. Yuridik shaxslar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tish uchun hisobot davri boshlanishidan kamida bir oy oldin, yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar esa, o'z faoliyatini amalga oshirishni boshlaguniga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yozma bildirish taqdim etadi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar tomonidan qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashni rad etish keyingi soliq davri boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmay soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shaklda taqdim etiladigan yozma bildirish asosida faqat navbatdagi soliq davrining boshidan amalga oshirilishi mumkin.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bo'yicha ijaraga olingan yer uchastkalari uchun byudjetga ijara haqi to'lashdan ozod qilinadi, umumbelgilangan soliqlar to'lanadigan faoliyat turlarida foydalanilayotgan yer uchastkalari bundan mustasno.

Yalpi tushum soliq solish ob'yekti hisoblanadi.

Soliq solish maqsadida yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

1) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qo'shilgan qiymat solig'ini chegirgan holda (qo'shilgan qiymat solig'i to'lashga

o'tgan soliq to'lovchilar uchun) realizatsiya qilishdan tushgan tushum.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum deganda quyidagilar tushuniladi:

qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun — o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishinchalish qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarini realizatsiya qilishdan tushgan tushum;

savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalar uchun — tovar oboroti;

mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) byeruvchi yuridik shaxslar uchun — moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi;

ositachilik va topshiriq shartnomalari hamda ositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha ositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar uchun — ko'rsatilgan xizmatlar uchun pul mukofoti summasi;

tayyorlov, ta'minot-sotish tashkilotlari uchun — realizatsiya qilingan tovarlarning xarid qiymati bilan sotish qiymati o'rtaida farq sifatida hisoblab chiqarilgan yalpi daromad;

lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun — o'yin chiptalarini ularda ko'rsatilgan narx bo'yicha tarqatishdan tushgan tushum;

2) boshqa daromadlar.

Uzoq muddatli kontraktlarni bajarishda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushadigan tushum hisobot davri mobaynida uzoq muddatli kontraktlarni haqiqatda bosqichma-bosqich ijro etishga oid qismida hisobga olinadi.

Quyidagilarga soliq solish ob'yekti sifatida qaralmaydi:

1) ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingan hissalar, shu jumladan aktsiyalarni (ulushlarni) joylashtirish bahosining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiq summasi, oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashtiriladigan mablag'lar;

2) muassisalar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda), shuningdek tugatilayotgan yuridik shaxsning

mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanayotganda ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalar doirasida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

3) shartnoma muassislari (ishtirokchilari) umumiy mulkidagi hissasi qaytarib berilgan yoki bunday mol-mulk bo'lingan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasi sherigi (ishtirokchisi) tomonidan hissasi miqdorida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

4) realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun oldindan haq to'lash (bo'nak) tariqasida boshqa shaxslardan olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

5) mulk huquqi ularga o'tgan paytga qadar majburiyatlarni qonun hujjatlariga muvofiq ta'minlash sifatida garov yoki zakalat tarzida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

6) byudjetdan berilgan subsidiyalar;

7) agar mablag'larni (mol-mulkni yoki mulkiy huquqlarni) o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida amalga oshirilsa, tekin olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar;

8) olingan grantlar;

9) aktsiyador — yuridik shaxsning o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirishga yo'naltirilganda qo'shimcha aktsiyalarning qiymati yoki aktsiyalarning nominal qiymatini ko'paytirish tariqasida olingan daromadlari;

10) sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta tovoni (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar;

11) vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik va topshiriq shartnomalari yoki vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajarish munosabati bilan, shuningdek vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan komitent yoxud o'zga ishonchli shaxs uchun amalga oshirilgan xarajatlarni qoplash hisobiga tushgan mol-mulk (pul mukofoti bundan mustasno);

12) ob'yekt qiymatining ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) tomonidan olingan ijara (lizing) to'loving bir qismi tarzida qoplanishi;

13) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekin olingan texnik vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar;

14) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'yektining muassislaridan (ishtirokchilaridan) ularning majburiyatlarini bajarish uchun olingan mablag'lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu mablag'lar soliq solish ob'yekti kiritiladi va ularga soliq solinishi lozim;

15) investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida kiritilayotgan mol-mulk.

Balansning valyuta moddalarini qayta baholash chog'ida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar o'rtasidagi saldo solish ob'yekti hisoblanadi. Salbiy kurs farqi summasi ijobiy kurs farqi summasidan ortiq bo'lган taqdirda oshib ketgan summa yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

Quyidagilar chegirib tashlangan holda hisoblab chiqarilgan yalpi tushum soliq solinadigan baza hisoblanadi:

- 1) davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar;
- 2) to'lov manbaida soliq solinadigan dividendlar va foizlar tariqasida olingan daromadlar;

3) dividendlar tariqasida olingan va qaysi yuridik shaxsdan olingan bo'lsa, o'sha yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan daromadlar. Muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqib ketganda) yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki imtiyoz qo'llanilganidan so'ng bir yil ichida uning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanganda ilgari soliq solinadigan bazadan chegirilgan daromadlarga to'lov manbaida umumiy asoslarda soliq solinadi;

4) hisobot yilda aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromadlarga ular qaysi davrda paydo bo'lган bo'lsa, o'sha davrdagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlari bo'yicha o'tkazilgan hisob-kitoblar inobatga olingan holda soliq solinishi kerak;

5) ko'p oborotli qaytariladigan taraning qiymati, agar uning qiymati tovarlarni (ishlar va xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumning tarkibiga ilgari kiritilgan bo'lsa;

6) mahsulot etkazib byeruvchilarning siylovi (skidka) tariqasida va asosiy vositalarni tugatish (hisobdan chiqarish) natijasida olingan boshqa daromadlar.

Soliq solinadigan baza chegirmalardan tashqari quyidagilar uchun kamaytiriladi:

1) avtomobilarga yoqilg'i quyish shoxobchalari uchun:

jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasiga;

benzin, dizel yoqilg'isi va gazning avtomobilarga yoqilg'i quyish shoxobchalarining belgilangan eng yuqori ustamadan oshadigan chakana narxi bilan olish narxi o'rtaсидagi mahalliy byudjetga o'tkazilishi lozim bo'lган farq summasiga;

2) lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun — yutuq (mukofot) fondining summasiga, biroq tarqatilgan chiptalarga chiqqan yutuqlarning (mukofotlarning) umumiyligi summasidan ortiq bo'lмаган miqdoriga;

3) brokerlik tashkilotlari uchun — bitim summasidan birjaga o'tkaziladigan vositachilik yig'imi summasiga;

4) vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun — realizatsiya qilingan tovar ulushida tovarlarni import qilishda to'langan bojxona to'lovleri summasiga.

Shu tarzda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan baza quyidagilarga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga kamaytiriladi:

yangi texnologik asbob-uskunalar olishga, lekin soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 25 foiziga. Soliq solinadigan bazani kamaytirish texnologik asbob-uskunalarini foydalanishga joriy etilgan soliq davridan boshlab besh yil mobaynida amalga oshiriladi;

yosh oilalar jumlasidan bo'lган xodimlarga ipoteka kreditlari bo'yicha badallar to'lashga va mulk qilib uy-joy olishga tekin yo'naltirilgan mablag'lar summasiga, lekin soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 10 foiziga.

Soliq to'lovchida yalpi tushumga tuzatish kiritish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- 1) tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;
- 2) bitim shartlari o'zgarganda;
- 3) baholar o'zgarganda, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan) foydalanganda;
- 4) bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Yalpi tushumga tuzatish kiritish bir yillik muddat doirasida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Yalpi tushumga tuzatish kiritish yuqorida ko'rsatilgan hollar yuz bergenligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda tovarni (ishni, xizmatni) etkazib byeruvchi yalpi tushumga tuzatish kiritishni belgilangan tartibda amalga oshiradi.

Yagona soliq to'lovini to'lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi va «O'zbekiston chyernobilchiları» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilar umumiyligi sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941—1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan yuridik shaxslar ozod qilinadi, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati hamda lotereyalar tashkil etish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Ushbu imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiyligi soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi.

Yagona soliq to'lovi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

### 15-jadval

Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun  
(savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalaridan  
tashqari) yagona soliq to'lovi stavkalari

N	To'lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari, 2-7-bandlarda ko'rsatib o'tilganlaridan tashqari	8*
2.	Sanoat ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi	7

	korxonalar	
3.	Kompyutyer dasturiy mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy etish tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi umumiy hajmining kamida 80 foizini tashkil etadigan korxonalar	5
4.	qishloq xo'jaligi korxonalari asosiy faoliyati bo'yicha, yagona yer solig'i to'lovchilari hisoblanadigan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno	6
5.	Gastrol-kontsert faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oladigan korxonalar	30
6.	Tayyorlov va ta'minot-sotish tashkilotlari, brokerlik idoralari (7-bandda ko'rsatilganlardan tashqari), shuningdek vositachilik, topshiriq va boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan korxonalar	33**
7.	Qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan korxonalar	13**
8.	O'zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 10 oktyabrdagi PF-1871-son Farmoni bilan tasdiqlangan ro'yxatda keltirilgan xom ashyo mahsulotlaridan tashqari) eksportining (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish joyidan qat'iy nazar) erkin almashtiriladigan valyutadagi ulushi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan korxonalar uchun:	
8.	sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30% ogpasaytiriladi
8.	sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan ortiq foiz	belgilangan stavka 50% ogpasaytiriladi
9.	Xizmatlar ko'rsatish sohasi korxonalari uchun plastik kartalar qo'llanib haq to'langan ko'rsatilgan	belgilangan stavka 10% og

	xizmatlar hajmi bo'yicha	pasaytiriladi
--	--------------------------	---------------

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrdagi PQ-1024-son qaroriga 9-1-ilova

\*) Mol-mulkini moliyaviy ijara (lizing)ga berayotgan korxonalar uchun - moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi.

\*\*) Haq summasiga (yalpi daromadga) nisbatan foizlarda.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar uchun yagona soliq to'lovi summasi byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga, lekin yagona soliq to'lovi summasining 50 foizidan ko'p bo'lмаган miqdorga kamaytiriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy ravishda to'lashga kalendar yil boshidan e'tiboran o'tmagan to'lovchilar yagona soliq to'lovi summasini qo'shilgan qiymat solig'i hisoblab chiqarilgan hisobot davriga to'g'ri keladigan summaga kamaytiradi.

Yagona soliq to'lovining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga ortib boruvchi yakun bilan:

mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan korxonalar tomonidan — har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Yagona soliq to'lovini to'lash hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida olingan tushum soliq to'lovchining yalpi tushumiga to'liq miqdorda qo'shiladi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan foyda solig'inining summasi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq yuridik shaxslar tomonidan O'zbekiston

Respublikasida yagona soliq to'lovini to'lash chog'ida hisobga olinadi.

To'lov xabarnomasi, chet davlat soliq organining ma'lumotnomasi yoki chet elda soliq to'langanligi faktini tasdiqlovchi boshqa hujjat chet elda to'langan foyda solig'inining summasini hisobga olish uchun asos bo'ladi.

### **Qisqacha xulosalar**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, soliqlar uzoq davr mobaynida jamiyat tomonidan yaratilgan mahsulotning bir qismini davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish uchun undiriladigan asosiy moliyaviy manba hisoblanadi.

Shuningdek, soliqlar davlatning barcha davlat miqyosidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy moliyaviy manbalardan biri bo'lib, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida va belgilangan islohatlarni amalga oshirishdagi asosiy vositadir. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'i va yagona soliq to'lovi umum davlat solig'i hisoblanib, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy o'rinni tutadi.

### **Nazorat qilish bo'yicha savollar:**

1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'inining iqtisodiy mohiyati nimadan iborat?
2. Foyda solig'inining to'lovchilar kimlar hisoblanadi?
3. Rezident va norezident nima?
4. Foyda solig'inining ob'ekti va soliqqa tortiladigan daromadlarga nimalar kiradi?
5. Foyda solig'i stavkasi qaysi mezonlarga ko'ra tabaqlashtirilgan?
6. Foyda solig'i bo'yicha qanaqa soliq imtiyozlari belgilangan?
7. Yuridik shaxslarning qanday xarajatlari soliqqa tortiladigan foydadan kamaytiriladi?
8. Foyda solig'i buxgalteriya hisobvaraqlarida rasmiy lashtirish tartibi qanday?
9. Yagona soliq to'lovini hisoblash mexanizmi qanday?
10. Yagona soliq to'lovi stavkalari?

## **IV- bob.**

### **Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish masalalari**

#### **4.1. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqning to'lovchilari va soliq ob'ekti va jami yillik daromadi tarkibi**

Soliq tizimining eng muxim yo'nalishlaridan biri bo'lgan jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqlarni isloq qilish xozirgi davrning dolzarb mavzularidan biri xisoblanadi. Chunki, bozor munosabatlari rivojlana borgan sari davlat byudjetlari tarkibida bu soliqlarning salmog'i orta boradi. Soliq solishning bu turi axolining tur mush daraj:asini tartibga solish uchun imkon yaratadi, imtiyozlar yordamida axolining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy ximoya qilishni tashkil etishga yordam beradi. Ayni vaqtida u tadbirkorlik faoliyatini rarbatalantirish, shuningdek, axolining to'lov qobiliyati yuqoriroq bo'lgan qatlamlaridan ko'proq soliq olish xisobiga byudjet daromadlarining muntazam ortib borishini ta'minlash imkonini beradi.

Daromad solig'i undirishning o'ziga xos xususiyatlarini oddiy fuqarolarning ko'pchiligi yaxshi bilmaydi, chunki ular ko'pincha soliqning xisoblanishi va davlat byudjetiga to'lash qoidalaridan to'liq xabardor emaslar. Bu ishni korxona va tashkilotlarning buxgalteriyalarida xisob- kitob ishlarini olib boruvchi mutaxassislari hamda korxona ma'muriyati bajaradi. Ular hisob-kitoblardagi yo'l qo'ygan xar qanday xato uchun javobgar bo'ladilar va odatda bu borada mamlakatda amal qiladigan tartibga so'zsiz rioya etishi shart.

Soliq Kodeksining VI bo'limi 29-bob 167-moddasidan boshlab jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilari, soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan bazalarni hisoblab chiqarish ko'zda tutilgan. Unga muvofiq soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilari hisoblanadilar.

Jismoniy shaxslarning – O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadlari alohida mexagizmda soliq solinadi.<sup>9</sup> Bundan O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasa

<sup>9</sup> Soliq Kodeksininr 169–181, 183–196-moddalari

bilan bog'liq bo'limgan manbalardan olingen O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining soliq solinadigan daromadlari mustasno.

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlari soliq solish ob'ekti:

O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingen daromadlari;

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingen daromadlari.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingen daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inинг soliq solish ob'ekti bo'lmaydi. Chunki ularning daromadlariga qat'iy belgilangan soliq solinadi.

Soliq solinadigan baza jami daromaddan kelib chiqib soliq solishdan ozod qilingan daromadlar chegirilgan holda aniqlanadi.

Agar soliq to'lovchining daromadidan uning ixtiyoriga ko'ra, sud yoki boshqa organlarning qaroriga binoan biron bir ushlab qolishlar amalga oshirilsa, bunday ushlab qolishlar soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

Jismoniy shaxsning chet el valyutasida ifodalangan daromadlari daromadlar amalda olingen sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valyutada qayta hisoblab chiqiladi.

Jismoniy shaxslarning jami daromadiga quyidagilar kiradi:

- 1) mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
- 2) mulkiy daromadlar;
- 3) moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- 4) boshqa daromadlar.

Yuridik shaxslar amalga oshiradigan quyidagi xarajatlar jismoniy shaxslarning daromadi sifatida qaralmaydi:

1) xodimlarni qonun hujjatlarida belgilangan normalarga muvofiq sut hamda boshqa davolash-profilaktika oziq-ovqati, shaxsiy himoya va gigiena vositalari bilan ta'minlash bo'yicha xarajatlar;

2) kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar, shu jumladan a'zolik badallari hisobidan kasaba uyushmasi a'zolariga beriladigan moddiy yordam, bundan kasaba uyushmasi qo'mitasining xodimlariga mehnat vazifalarini

bajarganlik uchun beriladigan pul mukofotlari va boshqa to'lovlar mustasno;

3) xodimlarni ish joyiga olib kelish va qaytarib olib ketish bilan bog'liq xizmat transportini saqlash xarajatlari;

4) diniy rasm-rusumlar va marosimlarni, bayram tantanalarini o'tkazish, vakillik xarajatlari, shuningdek yuridik shaxsning xodimlarning mehnat va dam olish sharoitlarini ta'minlash bilan bog'liq hamda muayyan jismoniy shaxslarning daromadi hisoblanmaydigan boshqa xarajatlar;

5) xodimga ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal, formali kiyim-bosh berish bo'yicha xarajatlar;

6) xodim boshqa joyga ishga o'tkazilganda yoxud ko'chib borganda ko'chish, mol-mulkini ko'chirib borish, joy ijarasi (yo'l xarajatlari uchun beriladigan pul) bilan bog'liq xarajatlarni to'lash yoki bu xarajatlarning o'rmini qoplash xarajatlar;

7) xizmat safarlaridagi quyidagi kompensatsiya to'lovleri:

tasdiqlovchi hujjatlar asosida xizmat safari joyiga borish va u yerdan qaytib kelish uchun, shu jumladan joy band qilish uchun haq to'lashni qo'shgan holda haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlar. Yo'l hujjatlari bo'limgan taqdirda, temir yo'l transportidagi (agar temir yo'l qatnovi bo'lmasa, shaharlararo avtobusdag'i) yo'l haqi qiymati miqdorida, biroq aviachipta qiymatining 30 foizidan oshmaydigan miqdorda;

uy-joyni ijaraga olish bo'yicha haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlar. Yashaganligini tasdiqlovchi hujjatlar bo'limgan taqdirda – qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida;

tasdiqlovchi hujjatlar asosida uy-joyni band qilish uchun to'lovlar;

qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida xizmat safarida bo'lingan vaqt uchun to'lanadigan kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

qonun hujjatlarida belgilangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa to'lovlar;

8) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan normalar doirasida xodimga to'lanadigan kompensatsiya to'lovleri (kompensatsiyalar):

doimiy ishi yo'lda kechadigan yoki harakatlanish va qatnov tusiga ega bo'lgan xodimga kompensatsiya to'lovlar (kompensatsiyalar);

xizmat ishlari uchun shaxsiy avtomobildan foydalanganlik uchun kompensatsiya to'lovlar (kompensatsiyalar), bundan xizmat safarlari mustasno;

dala ta'minoti;

amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa kompensatsiya to'lovlar (kompensatsiyalar);

9) mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha shikast etganlik bilan bog'liq zararning o'rnini qoplash bo'yicha quyidagi miqdordagi to'lovlar:

jabrlanuvchi mehnatda mayib bo'lguniga qadar olgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobidagi, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga muvofiq belgilanadigan har oylik to'lovlar (voyaga etmagan shaxs mehnatda mayib bo'lib qolgan taqdirda, zararning o'rni uning ish haqi (daromadi) miqdoridan kelib chiqqan holda, lekin qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining besh baravaridan kam bo'lman miqdorda qoplanadi);

maxsus tibbiy parvarishga muhtoj jabrlanuvchilarga qo'shimcha xarajatlar uchun oyiga eng kam ish haqining ikki barvari miqdoridagi to'lovlar;

jabrlanuvchining maishiy parvarishi uchun qo'shimcha xarajatlar tariqasida har oyda eng kam ish haqining ellik foizi miqdoridagi to'lovlar;

xodimning sog'lig'iga shikast etkazilganligi munosabati bilan ish beruvchi tomonidan bir yo'la to'lanadigan nafaqa tariqasida jabrlanuvchining yillik o'rtacha ish haqi miqdoridagi to'lovlar;

10) boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan quyidagi miqdordagi to'lovlar:

- marhumning o'rtacha ish haqining vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan va uning vafoti munosabati bilan zararni undirishga haqli bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga to'g'ri keladigan ulushi miqdoridagi to'lovlar;

- boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan zararni undirishga haqli bo'lgan shaxslarga bir yo'la to'lanadigan nafaqa

tariqasida marhumning o'rtacha yillik ish haqining olti baravari miqdoridagi to'lovlar;

11) talabalarning ta'lif olishi uchun, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining oliv o'quv yurti bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha pulli-kontrakt asosida o'tkaziladigan to'lovlar;

12) O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi hisobvarag'iga muqobil xizmat shartnomasi bo'yicha o'tkaziladigan mablag'lar;

13) mol-mulkni sug'urtalash va hayotni uzoq muddatli sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofotlari. Mol-mulkni sug'urtalash va hayotni uzoq muddatli sug'urtalash shartnomasi muddatidan ilgari bekor qilinganda va sug'urtalovchi sug'urta qilinuvchiga sug'urta mukofotining bir qismini yoki to'liq qaytarsa, qaytarilgan sug'urta mukofoti miqdori jismoniy shaxsning soliq solinadigan jami daromadi tarkibiga kiritiladi;

14) yosh oilalar a'zolarining uy-joy olish uchun yuridik shaxsdan – ish beruvchidan olgan mablag'lari. Uy-joy olingan (mulk huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) sanadan e'tiboran besh yil ichida sotilsa, ushbu bandda ko'rsatilgan daromadlarga belgilangan tartibda soliq solinadi.

Mehnat shartnomalariga yoki ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish predmeti bo'lgan fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to'lanadigan barcha to'lovlar mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar deb e'tirof etiladi. Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga quyidagilar ham kiradi:

- rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlar;
- kompensatsiya to'lovleri (kompensatsiya);
- ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash.

Rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) yillik ish yakunlari bo'yicha mukofot, bir yo'la beriladigan mukofotlar;

2) yuridik shaxsning mukofotlash to'g'risidagi qoidasida nazarda tutilgan rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar;

3) kasb mahorati, murabbiylik uchun tarif stavkalariga va maoshlarga ustamalar;

- 4) ta'tilga har yilgi qo'shimcha haqlar;
- 5) ko'p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to'lovlar;
- 6) ratsionalizatorlik taklifi uchun to'lov.

Mehnatga haq to'lash tarzida daromadga kiritiladigan kompensatsiya to'lovleri (kompensatsiyalar) jumlasiga quyidagilar kiradi:

- 1) tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo'lgan joylardagi ishlar bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlar;
- 2) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararli, o'ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar;
- 3) texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtida, ish vaqtidan tashqari, dam olish kunlarida va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda maoshlarga ustamalar va qo'shimcha to'lovlar;
- 4) ko'p smenali rejimda ishlaganlik, shuningdek bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik va xizmat ko'rsatish doirasini kengaytirganlik uchun ustamalar;
- 5) doimiy ishi yo'lida kechadigan, harakatlanish va ko'chib yurish xususiyatiga ega bo'lgan xodimlarning, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ishlar vaxta usulida bajarilgan taqdirda, ish haqiga ustamalar;
- 6) yuridik shaxs joylashgan yerdan (yig'ilish punktidan) ishslash joyigacha va orqaga qaytish uchun vaxtada ishslash jadvalida nazarda tutilgan ishlar vaxta usulida bajarilgan taqdirda yo'lga ketadigan kunlar, shuningdek xodimlar meteorologik sharoitlar sababli va transport tashkilotlarining aybi bilan yo'lida ushlanib qolgan kunlar uchun tarif stavkasi, maosh miqdorida to'lanadigan summalar;
- 7) yer osti ishlarida doimiy band bo'lgan xodimlarga ularning stvoldan ishslash joyiga borish va u yerdan qaytish uchun shaxtada (konda) harakatlanishining me'yoriy vaqtini uchun to'lanadigan qo'shimcha haqlar;
- 8) qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha dala ta'minoti;
- 9) xizmat safarlari vaqtidagi qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha kundalik harajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

10) ishlar vaxta usulida tashkil qilinganda, ish vaqt umumlashtirilgan holda hisobga olinayotganda va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ish vaqtining belgilangan davomiyligidan ortiq ishlaganliklari munosabati bilan beriladigan dam olish kunlari (otgullar) uchun to'lovlar;

11) xizmat ishlari uchun xodimning shaxsiy avtomobilidan yoki xizmat maqsadlari uchun uning boshqa mol-mulkidan qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha foydalanganlik uchun to'lovlar;

12) mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha shikast etganlik bilan bog'liq zararning o'rnni qoplash uchun belgilangan miqdorlardan ortiqcha olingan summalar.

Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lashga quyidagilar kiradi:

1) qonun hujjatlariga muvofiq navbatdagi (har yillik) va qo'shimcha ta'tillarga haq to'lash, foydalanimagan navbatdagi (har yillik) va qo'shimcha ta'tillar uchun kompensatsiya, o'smirlarning imtiyozli soatlariga, onalar bolani ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan tanaffuslarga, shuningdek tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun haq to'lash;

2) asosiy ish haqi qisman saqlanib qolgan holda majburiy ta'tilda bo'lган xodimlarga beriladigan to'lovlar;

3) donor xodimlarga ko'rikdan o'tish, qon topshirish va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to'lash;

4) O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga haq to'lash;

5) qishloq xo'jaligi va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo'yicha saqlab qolinadigan ish haqi;

6) boshqa yuridik shaxslardan avvalgi ish joyida lavozim bo'yicha maoshi miqdorlari ma'lum bir muddat davomida saqlab qolning holda ishga olingan, shuningdek vaqtinchalik vazifani bajarib turganda xodimlarga maoshdagi farqni to'lash;

7) yuridik shaxslarning xodimlariga kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida ishdan ajralgan holda o'qishlari vaqtida asosiy ish joyi bo'yicha ularga to'lanadigan ish haqi;

8) xodimning aybisiz bekor turib qolning vaqt uchun haq to'lash;

9) mehnat layoqatini vaqtincha yo'qotgan xodimlarga qo'shimcha haq to'lash;

10) qonun hujjatlariga muvofiq yoki yuridik shaxsning qarori bilan majburiy proqul vaqtি yoki kam haq to'lanadigan ishni bajarganlik uchun haq to'lash;

11) o'n ikki yoshga to'limgan ikki va undan ortiq bolasi yoki o'n olti yoshga to'limgan nogiron bolasi bor ayollarga qonun hujjatlariga muvofiq qo'shimcha ta'til haqini to'lash;

12) yuridik shaxslarning asosiy ishidan ozod qilingan va ozod qilinmagan holda xodimlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun hamda o'quvchilar va talabalarning ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish uchun jalb qilinadigan yuqori malakali xodimlari mehnatiga haq to'lash;

13) yuridik shaxsning boshqaruв organi (kuzatuv kengashi yoki boshqa shunga o'xshash organi) a'zolariga yuridik shaxsning o'zi amalga oshiradigan to'lovlar;

14) moddiy yordam to'lovi;

15) yuridik shaxsning mablag'lari hisobidan to'lanadigan pensiyalar va nafaqalarga qo'shimchalar, stipendiyalar;

16) oliv o'quv yurtini tamomlaganidan keyin yosh mutaxassislarga ta'til vaqtি uchun yuridik shaxs hisobidan to'lanadigan nafaqalar;

17) xodimga muhim sana, uzoq yillik xizmati, jamoatchilik faoliyatidagi yutuqlari munosabati bilan to'lanadigan rag'batlantirish tarzidagi to'lov.

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

1) foizlar;

2) dividendlar;

3) mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar;

4) jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;

5) sanoat mulki ob'ektlariga berilgan patent (litsenziya) sotilgan taqdirda, patent (litsenziya) egasi bo'lgan jismoniy shaxs sotishdan olgan daromad;

6) roylati;

7) qimmatli qog'ozlarni realizatsiya qilishdan tushgan daromadlar va yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushini (payini) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;

8) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'laganidan keyin xususiy korxona mulkdori hamda fermer xo'jaligi boshlig'i, xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius ixtiyorida qoladigan foyda summasi.

Soliq to'lovchi tomonidan moddiy naf tarzida olinadigan daromadlar quyidagilardir:

1) yuridik shaxs tomonidan jismoniy shaxs manfaatlarini ko'zlab, tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini, mulkiy huquqlarni to'lash, shu jumladan:

- jismoniy shaxslarning bolalarini mакtabgacha ta'lim muassasalarida o'qitish, tarbiyalash;

- kommunal xizmatlar, xodimlarga berilgan uy-joy haqini, uy-joydan foydalanish xarajatlari haqini, yotoqxonadagi joylar haqini yoki ularning o'rmini qoplash qiymatini to'lash;

- oziq-ovqat, oylik yo'l chiptalari yoki ularning o'rnnini qoplash qiymatini to'lash;

- sanatoriy-kurortlarda davolanish yo'llanmalari qiymatini, dam olish, statsionar va ambulatoriyaga qatnab davolanish haqini yoki ularning o'rnnini qoplash qiymatini to'lash;

- yuridik shaxsning jismoniy shaxs daromadi bo'lgan boshqa xarajatlari;

2) sovg'alar, tekin berilgan, shu jumladan hadya shartnomasi asosida berilgan tovarlar, soliq to'lovchining manfaatlarini ko'zlab, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar qiymati;

3) tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xodimlarga realizatsiya qilinadigan narxi va shu tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan qiymati o'rtasidagi salbiy tafovut;

4) qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarga temir yo'l, aviatsiya, daryo, avtomobil transporti va shahar elektr transportida yurish bo'yicha beriladigan imtiyozlar summasi;

5) jismoniy shaxsning yuridik shaxs oldidagi qarzining yuridik shaxs qarori bilan hisobdan chiqarilgan summalar;

6) ish beruvchi tomonidan to'lovlar hisobiga to'lanib, xodimdan ushlab qolinishi lozim bo'lgan, lekin ushlab qolinmagan summalar.

Soliq to'lovchi yuridik shaxsdan tovarlar (ishlar, xizmatlar) olgan taqdirda, ushbu tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati ularni olish narxidan yoki tannarxidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Jismoniy shaxs yuridik shaxsdan aktsiz to'lanadigan tovarlar yoki qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) olsa, bunday tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymatida aktsiz solig'inining va qo'shilgan qiymat solig'inining tegishli summasi hisobga olinadi.

Jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar, ishsizlik nafaqalari, ijtimoiy nafaqalar va pensiyalar;

2) stipendiyalar;

3) jismoniy shaxslarga xayriya va ekologiya jamg'armalarining mablag'laridan ko'rsatiladigan moddiy yordam;

4) donorlik uchun pul mukofotlari;

5) alimentlar;

6) hayvonlarni (qoramol, parranda, mo'ynali va boshqa hayvonlarni, baliq va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so'yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda, ipak qurti, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olingan daromadlar;

7) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomalari bo'yicha) olingan mol-mulk yoki mulkiy huquqlar qiymati;

8) musobaqalarda, ko'riklarda, tanlovlarda sovrinli o'rinalar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari;

9) yutuqlar;

10) grantlar, shu jumladan chet davlatlar grantlari bo'yicha olingan summalar;

11) jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha olingan foiz tarzidagi va boshqa daromadlar, jamg'arib boriladigan pensiya to'lovleri;

12) yaratilgan fan, adabiyot va san'at asarlari (predmetlari) uchun jismoniy shaxslar tomonidan olingen daromadlar;

13) O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga sazovor bo'lган jismoniy shaxslar olgan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg'alarining qiymati;

14) xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rirlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

15) xodim bilan mehnat shartnomasi alohida asos bo'yicha tugatilgan taqdirda, mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq moddiy yordam sifatida beriladigan ishdan bo'shatish nafaqasi va boshqa to'lovlar.

#### **4.2. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqning stavkalari va soliqdan beriladigan imtiyozlar**

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga soliq solinmaydi:

1) moddiy yordam summaları:

tabiiy ofat, boshqa favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan moddiy yordam summaları – to'laligicha;

vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summaları – eng kam ish haqining yigirma baravarigacha miqdorda;

boshqa hollarda – eng kam ish haqining o'n ikki baravarigacha miqdorda;

2) yo'llanmalar qiymatini yuridik shaxslar tomonidan to'liq yoki qisman qoplash summaları, turistik yo'llanmalar bundan mustasno:

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sanatoriylar va sog'lomlashtirish muassasalariga yo'llanmalar qiymatini nogironlarga, shu jumladan mazkur korxonada ishlamaydigan nogironlarga to'liq yoki qisman qoplash summaları;

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bolalar oromgohlari va boshqa sog'lomlashtirish oromgohlari, shuningdek ota-onalarning bolalari bilan dam olishiga maxsus mo'ljalangan sanatoriylar va sog'lomlashtirish

muassasalariga o'z xodimlarining o'n olti yoshga to'lмаган (o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan o'quvchilar) bolalari uchun yo'llanmalar qiymatini to'liq yoki qisman qoplash summalar;

3) o'z xodimlariga va ularning bolalariga ambulatoriya va (yoki) statsionar tibbiy xizmat ko'rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to'langan summalar, shuningdek yuridik shaxsning davolash va tibbiy xizmat ko'rsatganlik, nogironlik profilaktikasi va nogironlarning salomatligini tiklashga doir texnik vositalarni olish uchun qilingan xarajatlari. Xodimlarni davolaganlik, ularga tibbiy xizmat ko'rsatganlik uchun yuridik shaxslar tomonidan sog'liqni saqlash muassasalariga naqd pulsiz haq to'langan taqdirda, shuningdek sog'liqni saqlash tashkilotlari tomonidan yozib berilgan hujjatlar asosida ushbu maqsadlar uchun mo'ljallangan naqd pul mablag'lari bevosita xodimga, xodim yo'qligida, uning oila a'zolariga, ota-onalariga berilgan yoki mazkur maqsadlar uchun mo'ljallangan mablag'lar xodimning bankdagi hisobvarag'iga kiritilgan taqdirda, ushbu daromadlar soliq solishdan ozod qilinadi;

4) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining O'zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilishi munosabati bilan byudjet tashkilotlaridan chet el valyutasida olingan ish haqi summalarini va boshqa summalar, qonun hujjatlarida belgilangan summalar doirasida;

5) vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari ko'magida amalga oshirilayotgan bo'lsa;

6) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini to'laganidan keyin xususiy korxona mulkdori, fermer xo'jaligi boshlig'i ixtiyorida qoladigan foyda summasi;

7) O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlariga va davlat pul mukofotlariga sazovor bo'lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg'alarining qiymati;

8) xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rirlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

9) sanoat mulki ob'ektlariga va selektsiya yutug'i patentiga patent (litsenziya) egasi bo'lgan jismoniy shaxsning patentni

(litsenziyani) ularning amal qilish muddati doirasida, lekin foydalanish boshlangan kundan e'tiboran quyida ko'rsatilgan davrdan ko'p bo'limgan muddatda sotishdan olgan daromadi summasi:

- ixtiolar va selektsiya yutug'idan – besh yil davomida;
- sanoat namunasidan – uch yil davomida;
- foydali modeldan – ikki yil davomida;

10) donorlik uchun pul mukofotlari, shuningdek qon yiqqanlik uchun tibbiyot muassasalari xodimlari oladigan summalar;

11) jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni sotishdan olinadigan daromadlar, amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati doirasida olingan mol-mulkni sotishdan tushadigan daromadlar bundan mustasno;

12) uy xo'jaligida, shu jumladan dehqon xo'jaligida etishtirilgan hayvonlarni (qoramol, parranda, mo'ynali va boshqa hayvonlar, baliq va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so'yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda, sanoatda qayta ishlashdan tashqari, tabiiy va qayta ishlangan chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini sotishdan olinadigan daromadlar, bundan manzarali bog'dorchilik (gulchilik) mahsulotlari mustasno. Mazkur daromadlar soliq to'lovchi tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining boshqaruvlari tomonidan berilgan, realizatsiya qilingan mahsulot soliq to'lovchi tomonidan unga yoki uning oila a'zolariga ajratilgan yer uchastkasida etishtirilganligini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi hujjatni taqdim etgan taqdirda, soliq solishdan ozod qilinadi;

13) xalqaro hamda respublika tanlovlari va musobaqalarida olingan buyum tarzidagi sovrinlarning qiymati;

14) yuridik shaxslardan olingan, soliq davrining oxiridagi holatga ko'ra belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan, bir yil mobaynidagi eng kam ish haqining olti baravari miqdorigacha bo'lgan summadagi sovg'alarning qiymati;

15) jismoniy shaxslardan meros yoki hadya tartibida, shuningdek tekin olingan pul va natura shaklidagi daromadlar, bundan fan, adabiyot va san'at asarlarining, adabiyot va san'at

asarlari ijrochilarining, shuningdek kashfiyotlar, ixtiolar va sanoat namunalari mualliflarining merosxo'rlariga (huquqiy vorislariga) to'lanadigan pul mukofotlari mustasno;

16) davlat zayomining obligatsiyalari bo'yicha yutuqlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar, lotereya bo'yicha yutuqlar;

17) depozit sertifikatlar bo'yicha daromadlar, tijorat banklaridagi omonatlar va davlat xazina majburiyatlari bo'yicha foizlar hamda yutuqlar;

18) xalqaro hamda chet el tashkilotlari va fondlaridan, shuningdek ilmiy-texnika hamkorligi sohasidagi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida bevosita jismoniy shaxs grant beruvchidan yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakil qilingan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo'yicha organning xulosasi bo'lgan taqdirda, yuridik shaxsdan – grant oluvchidan olgan grant summasi;

19) fuqarolarning ish haqi va soliq solinadigan boshqa daromadlarining davlat korxonalari mol-mulkini sotib olish, xususiylashtirilayotgan korxonalar aktsiyalarini olish uchun yo'naltiriladigan summalar, shuningdek dividendlar tarzida olingan va dividend to'lagan yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan qo'shimcha aktsiyalarning qiymati yoki o'tgan yillardagi taqsimplanmagan foyda ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirishga yo'naltirilganda aktsiyalar nominal qiymatining ko'payishi tarzida olingan daromadlar. Ushbu bandda nazarda tutilgan imtiyoz qo'llanilganidan so'ng bir yil ichida muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilganda (chiqib ketilganda), mazkur mol-mulk sotilganda yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislar (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanganda ilgari soliq solishdan ozod qilingan daromadlarga umumiylashtirish asoslarda soliq solinishi kerak;

20) mehnat shartnomasi bekor qilinganida eng kam ish haqining o'n ikki baravari miqdori doirasida to'lanadigan ishdan bo'shatish nafaqasi, davlat ijtimoiy sug'urtasi va davlat ijtimoiy ta'minoti bo'yicha nafaqalar, ishsizlik nafaqalari, homiladorlik va tug'ish nafaqalari, bundan vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari (shu jumladan oilaning bemor a'zosini parvarishlash

nafaqalari) mustasno, shuningdek xayriya va ekologiya jamg'armalari mablag'laridan jismoniy shaxslarga beriladigan nafaqalar hamda boshqa yordam turlari;

21) olingan alimentlar;

22) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining sug'urta bo'yicha oladigan summalar;

23) ta'lim muassasalarida o'qiyotganlarga to'lanadigan, ularga qonun hujjatlarida davlat stipendiyalari uchun belgilangan miqdorlarda shu muassasalar tomonidan tayinlanadigan stipendiyalar;

24) uy-joy-kommunal xizmatlariga haq to'lash bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq har oylik kompensatsiya pul to'lovleri;

25) davlat pensiyalari;

26) davlat pensiyalariga ustamalar:

a) I guruh urush nogironlariga – eng kam oylik ish haqining bir yuz ellik foizi;

b) II guruh urush nogironlariga – eng kam oylik ish haqining bir yuz yigirma besh foizi;

v) III guruh urush nogironlariga – eng kam oylik ish haqining etmish besh foizi;

g) ko'zi ojizlik bo'yicha I guruh nogironlariga – eng kam oylik ish haqining yuz foizi;

d) boshqa kasalliklar bo'yicha I guruh nogironlariga – eng kam oylik ish haqining etmish besh foizi;

e) II guruh yolg'iz nogironlarga – eng kam oylik ish haqining ellik foizi;

j) urush qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslarga – eng kam oylik ish haqining ellik foizi;

z) 1941–1945 yillardagi urush davrida mamlakat ichkarisida ishlagan va harbiy majburiyatlarni bajargan shaxslarga – eng kam oylik ish haqining o'ttiz foizi;

i) vafoti harbiy xizmat burchlarini bajarish bilan bog'liq harbiy xizmatchilarining ota-onalari va xotinlariga (yangi nikohdan o'tmaganlarga) – eng kam oylik ish haqining o'ttiz foizi;

k) O'zbekiston Respublikasi oldida alohida xizmatlari bo'lган shaxslarga – xizmatlariga qarab, eng kam oylik ish haqining yuz foizdan bir yuz ellik foizigacha;

1) yoshidan qat'i nazar, imtiyozli pensiyaga chiqish huquqiga ega bo'lgan artistlarga – eng kam oylik ish haqining etmish besh foizi;

m) teatr-kontsert tashkilotlari artistlariga va badiiy xodimlariga, o'quv muassasalarining teatr hamda musiqa san'ati ijodiy xodimlarini tayyorlash bilan band bo'lgan professor-o'qituvchilari va kontsertmeysterlariga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan ro'yxatga ko'ra – eng kam oylik ish haqining ellik foizi;

27) jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha foiz daromadlari, shuningdek jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari;

28) soliq solinishi kerak bo'lgan va mol-mulkni sug'urta qilish hamda hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotlari to'lovi uchun yo'naltiriladigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ish haqining hamda boshqa daromadlarining summalari;

29) yuridik shaxslar muassisalarining (ishtirokchilarining) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektiga – yuridik shaxsga uning majburiyatlarini bajarish uchun yo'naltiriladigan daromadlari summalari. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjalarda belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi va soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi;

30) jismoniy shaxslarning – yosh oila a'zolari ish haqining va soliq solinadigan hamda yakka tartibda uy qurish, uni rekonstruktsiya qilish va olish yoki ko'p kvartiradagi uyni rekonstruktsiya qilish va olish uchun olingan ipoteka kreditlarini hamda ularga hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltiriladigan boshqa daromadlarining summalari. Mazkur mol-mulk olingan (mulk huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) sanadan e'tiboran besh yil ichida sotilsa, ushbu bandda nazarda tutilgan daromadlarga belgilangan tartibda soliq solinishi kerak.

Soliq solishdan quyidagi jismoniy shaxslar to'liq ozod qilinadi:

1) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari,

agar ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmasa, – O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lмаган daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

2) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarining ma'muriy-texnik xodimlari hamda ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, – O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lмаган daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

3) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko'rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, – o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

4) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, – o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

5) xalqaro nohukumat tashkilotlarning mansabdor shaxslari – agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa, ularning ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo'yicha;

6) O'zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari, ichki ishlar organlari hamda bojxona organlarining oddiy xizmatchilari va boshliqlari tarkibiga kiruvchi shaxslar, shuningdek o'quv yoki sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar – xizmatni o'tash (xizmat vazifalarini bajarish) munosabati bilan olgan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlar summalarini bo'yicha;

7) prokuratura organlarining daraja unvonlariga ega bo'lgan xodimlari – ularning xizmat vazifalarini bajarish munosabati bilan olgan daromadlari bo'yicha;

8) gastrol-kontsert faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bo'lgan shaxslar – ushbu faoliyatdan olingan daromadlari bo'yicha.

Quyidagi jismoniy shaxslar soliq solishdan qisman (daromad olingan har bir oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha) ozod qilinadi:

1) «O'zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar, urush nogironlari yoxud 1941–1945 yillardagi urush davrida yoki harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarishda yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar jumlasidan bo'lgan boshqa nogironlar, sobiq partizanlar jumlasidan bo'lgan nogironlar, shuningdek pensiya ta'minoti bo'yicha mazkur toifadagi harbiy xizmatchilarga tenglashtirilgan boshqa nogironlar. Bu imtiyozlarni berish uchun «O'zbekiston Qahramoni» guvohnomasi, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchasi, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlanganlarning orden daftarchasi, urush nogironlarining tegishli urush nogironi guvohnomasi yoxud mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning yoki boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi, boshqa nogironlarning – Nogironning imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnomasi asos bo'ladi;

2) xizmatni harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda o'tagan harbiy xizmatchilar, sobiq partizanlar jumlasidan bo'lib, 1941–1945 yillardagi urush, sobiq SSSRni himoya qilish bo'yicha boshqa jangovar operatsiyalarning qatnashchilari, 1941–1945 yillardagi urush davri mehnat frontining faxriylari va kontsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqinlari. Imtiyoz Urush qatnashchisining guvohnomasi asosida, 1941–1945 yillardagi urush davri mehnat frontining faxriylari va kontsentrantsion lagerlarning sobiq yosh tutqinlari – Imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma yoki mehnat va ijtimoiy ta'minot organlarining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

3) Leningrad shahrida 1941 yil 8 sentyabrdan 1944 yil 27 yanvargacha qamal davrida ishlagan fuqarolar. Imtiyoz ushbu shaxslar qamal davrida Leningrad shahri korxonalarini,

muassasalari va tashkilotlarida ishlaganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida beriladi;

4) ichki ishlar organlarining boshliqlari va oddiy xizmatchilari jumlasidan bo'lib, xizmat vazifalarini bajarishda yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida nogiron bo'lib qolganlar. Nogironning imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnomasi imtiyozlar berilishi uchun asos bo'ladi;

5) bolalikdan nogiron bo'lib qolganlar, shuningdek I va II guruh nogironlari. Imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

6) o'n va undan ortiq bolasi bor ayollar. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining bolalar borligini tasdiqlovchi ma'lumotnomasi mazkur imtiyoz berilishi uchun asos bo'ladi;

7) sobiq SSSRni himoya qilish yoxud harbiy xizmatning boshqa vazifalarini bajarish paytida yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoxud shikastlanganligi oqibatida yoki frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarining ota-onalari va rafiqalari. Imtiyoz «Halok bo'lган askarning bevasi (onasi, otasi)» shtampi qo'yilgan yoki pensiya guvohnomasini bergen muassasa rahbarining muhri va imzosi bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi. Agar mazkur shaxslar pensioner bo'lmasalar, imtiyoz ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizligi qo'mitasi yoki Ichki ishlar vazirligi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati yoki Ichki ishlar vazirligining tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchining halok bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotnomasi asosida beriladi. Sobiq SSSRni himoya qilish yoki harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarining rafiqalariga imtiyoz faqat ular boshqa turmush qurmagan taqdirda beriladi;

8) xizmatni Afg'oniston Respublikasida va jangovar harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo'lgan qo'shinlarning cheklangan kontingenti tarkibida o'tagan harbiy xizmatchilar hamda o'quv va sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar. Mazkur imtiyozni berish uchun Imtiyozlarga

bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma yoki sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizligi qo'mitasi yoki Ichki ishlar vazirligi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati yoxud Ichki ishlar vazirligi mudofaa ishlari bo'yicha bo'limlari, harbiy qismlari, harbiy-o'quv yurtlari, korxonalari, muassasalari yoki tashkilotlarining ma'lumotnomasi asos bo'ladi;

9) Chernobil AESdagi avariya oqibatida jabrlanganlar. Imtiyoz tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi, nogironning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish qatnashchisining guvohnomasi, shuningdek vakolatli organlar tomonidan berilgan, imtiyoz berilishi uchun asos bo'luvchi boshqa hujjatlar asosida beriladi;

10) ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'limgan bolalari bor yolg'iz onalar. Imtiyoz har bir bola uchun Fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish (FHDYo) organlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotnoma asosida beriladi;

11) ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'limgan bolalari bor va boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar. Imtiyoz arning (xotinning) vafot etganligi to'g'risidagi guvohnoma, bolalar tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnoma, qayta turmush qurmaganlik hamda mehnat va ijtimoiy ta'minot organining boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olinmasligi haqidagi ma'lumotnomasi taqdim etilgan taqdirda beriladi;

12) bolaligidan nogiron bo'lgan, doimiy parvarishni talab qiladigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota-onadan biri. Imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki sog'lqni saqlash muassasasining doimiy parvarish zarurligini tasdiqlovchi tibbiy ma'lumotnomasi, birgalikda yashashga taalluqli qismida – fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining ma'lumotnomasi asosida beriladi.

Ushbu imtiyozlar tegishli hujjatlar taqdim etilgan taqdirda qo'llaniladi.

Imtiyozlarga bo'lgan huquqlar kalendar yili davomida vujudga kelgan taqdirda, imtiyozlarga bo'lgan huquqlar vujudga kelgan paytdan e'tiboran qo'llaniladi.

Agar jismoniy shaxs bir nechta asos bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquqga ega bo'lsa, unga xohishiga qarab faqat bitta imtiyoz beriladi.

Imtiyozni qo'llash jismoniy shaxsning asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi bo'yicha, asosiy ish joyi bo'lмаган taqdirda – yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida soliqni hisoblab chiqarish chog'ida amalga oshiriladi. Imtiyozga bo'lgan huquq yo'qotilgan taqdirda, jismoniy shaxs imtiyoz yo'qotilgan paytdan e'tiboran o'n besh kun ichida bu haqda undan soliqni ushlab qoladigan yuridik shaxsga ma'lum qilishi kerak.

171-moddaga kiritilgan qo'shimcha xodimlarga xizmat qatnovlari uchun foydalaniladigan yo'l kartochkalari olish xarajatlari jismoniy shaxslarni daromadi sifatida qaralmasligini nazarda tutadi.

179-modda, amaldagi tartibga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan banklarga qo'yilgan omonatlar bo'yicha olinadigan daromadlar soliqqa tortilmaydi. Kredit uyushmalaridagi omonatlar foizlari esa jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga tortilar edi. Kiritilgan qo'shimchalar kredit uyushmalaridagi omonatlar bo'yicha foizlarni jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod etishni nazarda tutdi.

Yuqorida sanab o'tilgan imtiyozlar jismoniy shaxslarning foizlar va dividendlar tarzida olingan daromadlariga, shuningdek mol-mulkni ijaraga topshirishdan olingan daromadlariga ham tatbiq etiladi. Agar foizlar va dividendlar asosiy ish joyi bo'yicha hisoblansa, imtiyozni qo'llash asosiy ish joyi bo'yicha amalga oshiriladi, agar foizlar va dividendlar asosiy bo'lмаган ish joyi bo'yicha hisoblansa, imtiyoz jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish chog'ida jismoniy shaxsning yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan qo'llaniladi. Shunga o'xshash tartib mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

16-jadval

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad  
solig'i stavkalarining pasayib borish dinamikasi

Eng kam ish xaqi miqdori bo'yicha shkala	Yillar						
	2001	2002	2003	2004- 2005	2006	2007 2008	2009
5 barobarigacha (2008 yildan 6 barobarigacha)	12	13	13	13	13	13	12
5 barobari (+1 so'm)- 10 barobarigacha (2008 yildan 6 barobardan 10 barobarigacha)	25	23	22	21	20	18	17
10 barobari (+1 so'm) va undan yuqori	36	33	32	30	29	25	22

Manba: O'zR. Davlat statistika qumitasi ma'lumotlari asosida  
mualliflar tomonidan tayyorlandi.

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga belgilangan  
eng kam stavka bo'yicha soliq solinadi:

- baland tog'li, cho'l va suvsiz hududlarda ishlaganlik  
uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan  
belgilangan koeffitsientlar bo'yicha qo'shimcha to'lovlar  
tariqasida olingan daromadlarga. Bunda cho'l va suvsiz joylarda,  
baland tog'li va tabiiy-iqlim sharoiti noqulay hududlarda  
ishlaganlik uchun yuridik shaxslar xodimlarining ish haqiga  
koeffitsientlar hisoblashning eng yuqori summasi hisoblash  
paytidagi holatga ko'ra belgilangan eng kam ish haqining to'rt  
barvari miqdorida belgilanadi;

- korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan  
vaqtinchalik qishloq xo'jaligi ishlariga yuborilgan jismoniy  
shaxslarning shu ishlarni bajarishdan olingan daromadlariga.

Mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda band  
bo'lgan ayollarning daromadlaridan olish darajasi 20 foizdan  
oshmasligi lozim. Mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlar  
ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Hozirgi paytda soliq stavkalarini kamaytirish va aholi  
daromadlarini soliqqa tortishning uch bosqichli tizimidan ikki

bosqichli tizimiga asta-sekin o'tish kontseptsiyasini davom ettirish vazifasi turibdi.

17-jadval

**Jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliq stavkalari\*** (2009 yil uchun)

Soliq solinadigan daromad	Soliq stavkasi
Eng kam ish haqining olti baravarigacha miqdorda	Daromad summasining 12 foizi
Eng kam ish haqining olti baravaridan (+1 so'm) o'n baravarigacha miqdorda	Olti baravar miqdordan soliq + eng kam ish haqi miqdorining olti baravaridan oshadigan summadan 17 foiz
Eng kam ish haqining o'n baravari (+1 so'm) va undan yuqori miqdorda	O'n baravar miqdordan soliq + eng kam ish haqi miqdorining o'n baravaridan oshadigan summadan 22 foiz

\*1. Jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliq summasini hisoblash maqsadlari uchun eng kam ish haqining miqdori yil boshidan e'tiboran ortib boruvchi yakun bilan hisobga olinadi (yil boshidan tegishli davrning har bir oy uchun eng kam ish haqi summasi).

2. Belgilangan stavkalardan kelib chiqib hisoblangan jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq summasi, fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga o'tkaziladigan, jismoniy shaxslarning daromad solig'i solinadigan daromadlaridan 1% i miqdorida hisoblanadigan oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.

Jismoniy shaxsning – O'zbekiston Respublikasi norezidentining O'zbekiston Respublikasidagi daromadlar manbaidan olingan, doimiy muassasa bilan bog'liq bo'limgan daromadlariga manbada chegirmalarsiz quyidagi stavkalar bo'yicha soliq solinadi:

- dividendlar va foizlarga – 10 foiz;
- Xalqaro tashishlarda transport xizmatlari ko'rsatishdan olinadigan daromadlarga (fraxtdan olinadigan daromadlarga) – 6 foiz;

- intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan mulkiy huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazganlik uchun pul mukofoti, ijara bo'yicha daromadlar, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan, fuqarolik-huquqiy tusga ega shartnomalar bo'yicha olingan boshqa daromadlarga – 20 foiz.

To'lov manbaida soliq solish to'lov O'zbekiston Respublikasi hududida yoki uning hududidan tashqarida sodir etilganligidan qat'i nazar amalga oshiriladi.

Yil choragi daromad to'lash manbaidan jismoniy shaxslarning daromad soliqlarini ushlab qoluvchilar uchun hisobot davridir.

Jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliqni to'lov manbaida hisoblab chiqarish, ushlab qolish va to'lash majburiyati yuridik shaxslar, faoliyatni O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari hamda chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalari zimmasiga yuklatiladi.

Jismoniy shaxslarning daromadlariga to'lov manbaida soliq solinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

1) jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari;

2) jismoniy shaxslarning bir martalik ishlarni bajarishdan oladigan daromadlari;

3) jismoniy shaxslarning dividendlar, foizlar, pul mukofotlari tariqasida olgan daromadlari;

4) jismoniy shaxslarning bepul berilgan aktsiyalar yoki yuridik shaxslar mol-mulkining ulushi tariqasidagi daromadlari;

5) O'zbekiston Respublikasi norezidentlariga to'lanadigan daromadlar;

6) jismoniy shaxslarning mol-mulkni yuridik shaxsga ijaraga berishdan oladigan daromadlari;

7) roylati;

8) jismoniy shaxslarning tanlovlari va musobaqalar yakunlari bo'yicha sovrinlar, yutuqlar tariqasida oladigan daromadlari;

9) yuridik shaxs – grant oluvchi tomonidan jismoniy shaxsga beriladigan grantlarning summalari;

10) jismoniy shaxslarga yaratilgan fan, adabiyot va san'at asarlari (predmetlari) uchun yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan daromadlar;

11) jismoniy shaxsga yuridik shaxs tomonidan moddiy naf tariqasida to'lanadigan daromadlar.

To'lov manbaida soliq solish soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda soliq agentlari tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq agentlari soliq to'lovchining daromadlaridan hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini mazkur daromadlar haqiqatda to'lanayotganda ushlab qolishlari shart.

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning hisoblangan summasini soliq to'lovchidan ushlab qolish soliq agenti soliq to'lovchiga to'layotgan har qanday pul mablag'lari hisobidan, mazkur pul mablag'lari haqiqatda soliq to'lovchiga yoki uning topshirig'iga binoan uchinchi shaxslarga to'lanayotganda amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inining to'g'ri ushlab qolinishi va o'z vaqtida byudjetga o'tkazilishi uchun javobgarlik daromad to'layotgan soliq agentining zimmasida bo'ladi. Mazkur soliq summasi ushlab qolinmagan taqdirda, soliq agenti ushlab qolinmagan summani hamda u bilan bog'liq penyani byudjetga to'lashi shart.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliq stavkasini qo'llash maqsadida eng kam ish haqi miqdori yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha (yil boshidan tegishli davrning har bir oyi uchun eng kam ish haqlarining summasi) hisobga olinadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish va ushlab qolish ushbu bo'limda belgilangan soliq solinadigan baza hamda stavkalardan kelib chiqqan holda daromad hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha har oyda jismoniy shaxsning asosiy ish joyi bo'yicha soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inining hisoblab chiqarilgan summasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg'arib boriladigan

pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.

O'z xodimlariga moddiy yordam ko'rsatgan va qimmatbaho sovg'alar bergen soliq agentlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini soliq davrining oxirida amalda bo'lган eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda qayta hisob-kitob qiladi.

Jismoniy shaxsning asosiy bo'lмаган ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan moddiy yordam va qimmatbaho sovg'a olgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini qayta hisob-kitob qilish jismoniy shaxs daromadlar to'g'risida deklaratсия topshirgan taqdirda, davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq davrining oxirida amalda bo'lган eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Yil mobaynida asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi o'zgargan taqdirda, jismoniy shaxs joriy yilda o'ziga to'langan daromadlar va ushlab qoltingan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summалари to'g'risidagi ma'lumotnomani yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyidagi buxgalteriyaga dastlabki ish haqi hisoblanguniga qadar taqdim etishi shart. Ilgarigi ish (xizmat, o'qish) joyidan ma'lumotnomalari taqdim etilmagan yoki soliq to'lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilmagan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i belgilangan eng yuqori stavka bo'yicha ushlab qolinadi. Ma'lumotnomalari yoki identifikatsiya raqami keyinchalik taqdim etilgan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi ilgarigi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida olingan daromadlar inobatga olingan holda qayta hisob-kitob qilinadi.

Yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish kalender yil boshidan buyon ilgarigi va yangi ish (xizmat, o'qish) joylaridan olingan jami daromaddan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Mehnat shartnomasi bekor qilingandan so'ng xodimga ilgarigi asosiy ish joyida to'lov amalga oshirilgan taqdirda, mazkur to'lov larga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i imtiyozlar qo'llanilmagan holda solinadi. Yuridik shaxs bu xodimga to'lagan daromadning jami summasi va undan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inинг ushlab qoltingan

umumiyligi summasi haqida bu yuridik shaxs hisobga qo'yilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga o'ttiz kun ichida yozma ravishda ma'lum qilishi shart.

Asosiy bo'limgan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan olingan daromadlarga to'lov manbaida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish jami daromad summasidan, imtiyozlar qo'llanilmagan holda, belgilangan stavrular bo'yicha hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha amalga oshiriladi.

Agar asosiy bo'limgan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan daromadlar olayotgan jismoniy shaxs buxgalteriyaga o'z daromadidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inining eng yuqori stavkasi bo'yicha ushlab qolish to'g'risida ariza bersa, daromadlar to'layotgan yuridik shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini ushbu bo'limda nazarda tutilgan imtiyozlarni qo'llamagan holda eng yuqori stavka bo'yicha ushlab qoladilar.

Soliq agentlari ish haqi to'layotganda jismoniy shaxsning talabiga binoan unga daromadlarining summalarini va turlari haqida, shuningdek jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inining ushlab qoltingan summasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan shaklda ma'lumotnoma berishlari shart.

Jismoniy shaxslarning asosiy bo'limgan ish joyidan olgan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inining yakuniyligi summasi olingan daromadlar, qilingan xarajatlar va ushlab qoltingan soliq summalarini to'g'risida taqdim etilgan deklaratsiyaning ma'lumotlari bo'yicha davlat soliq xizmati organi tomonidan hisoblab chiqariladi.

Soliq agentlari:

1) soliq davri tugaganidan so'ng o'ttiz kun ichida davlat soliq xizmati organlariga daromadlar olgan jismoniy shaxslar to'g'risida, asosiy ish joyi bo'yicha daromadlar olgan jismoniy shaxslar bundan mustasno, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan shaklda ma'lumotnoma taqdim etishi shart, unda quyidagilar aks ettiriladi:

- soliq to'lovchining – jismoniy shaxsning identifikatsiya raqami;

- soliq to'lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, doimiy yashash joyi manzili;

- o'tgan soliq davri yakunlari bo'yicha daromadlarning umumiy summasi va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inining ushlab qolangan umumiy summasi;

- soliq agentining identifikatsiya raqami;

- soliq agentining nomi, joylashgan yeri (pochta manzili);

2) yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kuniga qadar, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliya hisobotini taqdim etish muddatida davlat soliq xizmati organlariga hisoblangan va amalda to'langan daromadlar summalarini hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inining ushlab qolangan summalarini to'g'risidagi ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shaklda taqdim etishi shart.

To'lov manbaida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inining hisoblab chiqarilgan summasi byudjetga soliq agenti tomonidan quyidagi muddatlarda to'lanadi:

- pul mablag'larini olish uchun xizmat ko'rsatuvchi bankka hujjatlarni taqdim etish bilan bir vaqtida;

- to'lov natura holida amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun ichida, agar bunday to'lovga qonun hujjatlarida ruxsat berilgan bo'lsa.

Agar yuridik shaxsning bank hisobvarag'ida ish haqini to'lash va bir vaqtning o'zida xodimlarning ish haqidani ushlab qolangan soliqlarni byudjetga o'tkazish uchun mablag'lar etarli bo'lmasa, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bank hisobvarag'idagi qoldiq mablag'larga mutanosib summada byudjetga o'tkaziladi.

Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining quyidagi daromadlari kiradi:

- mulkiy daromad, fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar, agar bu daromadlarga to'lov manbaida soliq solinmagan bo'lsa;

- agar ushbu moddaning ikkinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ikkita yoki undan ko'p manbadan olingan daromadlar;

- O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar.

Agar soliq to'lovchining asosiy bo'lmanan ish joyidan olgan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i belgilangan eng yuqori stavka qo'llanilgan holda uning arizasiga ko'ra ushlab qolningan bo'lsa, daromadlar to'g'risida deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik va ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida daromadlar oluvchi jismoniy shaxslar bunday faoliyatni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tmagan holda amalga oshirish huquqiga ega.

Fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik va ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi olayotgan jismoniy shaxs daromadlar olish bilan bog'liq daromadlar va xarajatlar hisobini yuritishi shart hamda u ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq, haqiqatda qilingan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarni daromaddan chegirish huquqiga ega, biroq chegirma olingan jami daromad summasining 30 foizidan ko'p bo'lmasligi kerak.

Ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish va ulardan foydalanish uchun zarur materiallar olishga doir xarajatlar;

- faqat fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish, nashr qilish, ijro etish yoki ulardan boshqacha tarzda foydalanish maqsadida foydalaniladigan bino va mol-mulk ijarasiga doir xarajatlar.

#### **4.3. Jismoniy shaxslarning daromadga solig'ini hisoblash tartibi, hisobotlar, hisob-kitoblar va deklaratsiyalar taqdim etish mexanizmi**

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya soliq to'lovchining olingan yillik daromadi to'g'risidagi yozma arizasidan iborat bo'ladi.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan hamda unda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak:

- soliq to'lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, jinsi, fuqaroligi, doimiy yashash joyi manzili;
- soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;
- soliq solinishi lozim bo'lgan daromadlar turlarga ajratib ko'rsatilgan holda olingan jami yillik daromad (bir martalik operatsiyalardan hamda mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadlarni deklaratsiya qilish uchun faqat ushbu operatsiyalarning o'zidan olish mo'ljallanayotgan daromad aks ettiriladi);
- daromadlarning manbalari;
- daromad olish bilan bog'liq xarajatlar, majburiy to'lovlар, chiqimlar va ajratmalarning summalar;
- jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar;
- hisoblab chiqarilgan soliq summasi;
- haqiqatda to'langan soliq summasi.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyada jismoniy shaxslarning jami yillik daromadini deklaratsiya qilish bilan bog'liq boshqa ma'lumotlar ham ko'rsatilishi mumkin.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya pochta orqali buyurtma xat shaklida, shuningdek elektron shakldagi axborot tarzida taqdim etilishi mumkin.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya blankalari soliq to'lovchilarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan bepul beriladi.

Jismoniy shaxs taqdim etgan jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyada to'lanishi lozim bo'lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasining kamayishiga olib keluvchi xatolar aniqlangan taqdirda, jismoniy shaxs deklaratsiyaga zarur o'zgarishlar kiritishi shart.

Agar jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyani o'zgartirish haqidagi ariza jismoniy shaxslardan

olinadigan daromad solig'ini to'lash muddati tugaguniga qadar berilsa, soliq to'lovchi belgilangan javobgarlikdan ozod qilinadi.

Agar jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyani o'zgartirish haqidagi ariza jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash muddati tugaganidan keyin, biroq xatolar davlat soliq xizmati organi tomonidan aniqlanguniga qadar berilsa, soliq to'lovchi soliqning etishmayotgan summasini hamda unga tegishli penyani to'lagan taqdirda, javobgarlikdan ozod etiladi.

Jismoniy shaxs davlat soliq xizmati organining taqdim etilgan jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyada aniqlangan xatolik to'g'risidagi bildirishnomasini olgan kun davlat soliq xizmati organi tomonidan xatolik aniqlangan kun deb hisoblanadi.

Soliq to'lovchilar olingan daromadlari bo'yicha jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani, doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreliдан kechiktirmay taqdim etishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lган chet ellik jismoniy shaxs o'tgan soliq davri uchun daromadlar to'g'risida joriy yilning 1 apreliгacha deklaratsiya taqdim etadi.

Chet ellik jismoniy shaxs – O'zbekiston Respublikasining rezidenti belgilangan tartibga muvofiq soliq solinishi lozim bo'lган daromad keltirayotgan faoliyatini kalendar yili ichida tugatgan va O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketayotgan bo'lsa, uning O'zbekiston Respublikasi hududida turgan vaqtda joriy soliq davrida haqiqatda olgan daromadlari to'g'risidagi deklaratsiya mazkur jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketishidan bir oy avval taqdim etilishi lozim. Agar chet ellik jismoniy shaxs – O'zbekiston Respublikasining rezidenti joriy yilning 1 fevraliga qadar doimiy yashash uchun xorijga chiqib ketayotgan bo'lsa, joriy yil uchun daromadlar bo'yicha deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Taqdim etish tartibi olingan daromadlar to'g'risidagi deklaratsiya bo'yicha hisoblab chiqarilgan jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni to'lash deklaratsiya topshirilgan paytdan e'tiboran o'n besh kun ichida amalga oshiriladi.

Grant olgan jismoniy shaxs daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani topshirayotganda grant bo'yicha olingan daromad summasini, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i miqdorini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo'yicha organning tegishli xulosasini ko'rsatadi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromad olayotgan jismoniy shaxs belgilangan tartibda daromadlar to'g'risidagi quyidagi deklaratsiyalarni taqdim etadi:

- dastlabki deklaratsiyani – shunday daromadlar yuzaga kelgan kundan e'tiboran bir oy o'tgach, besh kunlik muddatda, agar bu daromadlarga jismoniy shaxslar daromadlariga to'lov manbaida solinadigan soliq solinmagan bo'lsa;

- yakuniy deklaratsiyani – o'tgan soliq davridan keyingi yilning 15 yanvariga qadar.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlar olish tugagan taqdirda jismoniy shaxs doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organini bu haqda yozma shaklda xabardor etadi.

Jismoniy shaxslar – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyaning ma'lumotlari asosida hisoblab chiqarilgan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini o'tgan soliq davridan keyingi yilning 1 iyunidan kechiktirmay to'laydilar.

Jismoniy shaxslar – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari hisoblab chiqarilgan daromad solig'ini xorijiy davlatda joylashgan bank hisobvarag'idan chet el valyutasida to'lashi mumkin. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan, milliy valyutada ifodalangan soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'langan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha chet el valyutasida qayta hisoblab chiqiladi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlar oladigan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini taqdim etilgan dastlabki deklaratsiya asosida har oyda daromad olingan oydan keyingi oyning beshinchi kunigacha to'laydilar. Yil tugagach, jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning yillik summasi haqiqatda olingan daromad bo'yicha hisoblab chiqariladi. Bu summa bilan yil mobaynida

to’langan summalar o’rtasidagi farq kelgusi yilning 15 martigacha soliq to’lovchidan undirilishi yoki unga qaytarilishi kerak.

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq to’langan sana quyidagilardir:

- juridik shaxslar yoki jismoniy shaxslar tomonidan bankdagi hisobvarag’idan to’langani taqdirda – ularning bankdagi hisobvarag’idan mablag’lar hisobdan chiqarilgan kun;

- jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul mablag’lari kiritilgan taqdirda – bank kassasiga mablag’lar to’langan sana.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’ini to’lash to’lov xabarnomasida ko’rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi kerak.

O’zbekiston Respublikasi hududida chet ellik jismoniy shaxslarga O’zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari hisobga olingan holda soliq solinadi.

Chet ellik jismoniy shaxslardan soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarni undirish o’zarolik printsipi bo’yicha tugatilishi yoki cheklanishi mumkin.

Chet ellik jismoniy shaxslar bilan bitimlar tuzish chog’ida bunday bitimlarning shartlariga O’zbekiston Respublikasida faoliyatni amalga oshiradigan soliq to’lovchilar hamda boshqa shaxslar chet ellik jismoniy shaxslarning soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarni to’lash bo’yicha xarajatlarini o’z zimmasiga olishini nazarda tutadigan soliq haqidagi izohlar kiritilishiga ruxsat berilmaydi.

Chet ellik jismoniy shaxsning – O’zbekiston Respublikasi rezidentining daromadlariga ushbu bo’limda belgilangan tartibda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i solinadi.

O’zbekiston Respublikasining tegishli xalqaro shartnomasini qo’llash huquqiga ega bo’lgan O’zbekiston Respublikasi norezidentining O’zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i byudjetga to’langan taqdirda, O’zbekiston Respublikasining bunday norezidenti to’langan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’ini soliq majburiyati bo’yicha da’vo muddati mobaynida byudjetdan qaytarib olish huquqiga ega. Bunda O’zbekiston Respublikasi norezidenti jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’ini

to'lashdan ozod qilish to'g'risidagi yoki uning summasini kamaytirish to'g'risidagi iltimos bayon etilgan arizani, shuningdek quyidagi hujjatlarni O'zbekiston Respublikasining davlat soliq xizmati organiga taqdim etadi:

O'zbekiston Respublikasi bilan ikkiyoqlama soliq solishning oldini olish to'g'risida xalqaro shartnomaga ega bo'lgan davlatning rezidenti ekanligini rasmiy jihatdan tasdiqlovchi hujjatni;

- olingen daromadlarni tasdiqlovchi hujjatni;

- ushbu O'zbekiston Respublikasi norezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingen daromadlardan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'langanligi to'g'risidagi tegishli xorijiy davlatning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan hujjatni.

O'zbekiston Respublikasining davlat soliq xizmati organi arizani uch oy muddatda ko'rib chiqadi va hujjatlar ishonchli bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining norezidentiga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini byudjetdan qaytaradi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi g'ayriqonuniy qo'llanilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining davlat soliq xizmati organi O'zbekiston Respublikasi norezidentiga asoslangan rad javobini yuboradi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan, jismoniy shaxslardan – O'zbekiston Respublikasining rezidentlaridan olinadigan daromad solig'i summalari O'zbekiston Respublikasida soliq to'lashda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq hisobga olinadi.

Jismoniy shaxslarning yillik ish xaqlari, mukofot pullari va boshqa daromadlaridan soliq quyidagi miqdorda undiriladi:

$$6 A \times M / 100 \% \times 12\%;$$

$$(10 A - 6 A) \times M / 100 \% \times 17\%;$$

$$(D / M - 10 A) \times M / 100 \% \times 22\%,$$

bu yerda: A— eng kam ish xaqining miqdori, D— soliqqa tortiladigan ish xaqi (daromad) miqdori, M— oylar soni.

Soliq solish maqsadlari uchun eng kam ish xaqining miqdori yil boshidan e'tiboran o'sib boruvchi yakun tarzida xisoblanadi.

O'zbekistonda 2008 yilning 16 noyabridan boshlab oylik eng kam ish xaqi miqdori 28040 so'mni tashkil etadi.

#### **4.4. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliqni hisoblash va to'lash tartibi**

Qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar quyidagilar hisoblanadi:

- faoliyatning ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar;

- yakka tartibdagi tadbirkorlar.

Qat'iy belgilangan soliq solinadigan faoliyat turlarining ro'yxati, shuningdek faoliyatning mazkur turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Faoliyatning ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar faoliyatning qat'iy belgilangan soliq to'lash tatbiq etiladigan qismiga doir soliq solishning boshqa tartibini tanlash huquqiga ega emas.

Qat'iy belgilangan soliq to'lash tatbiq etiladigan faoliyat bilan bir qatorda faoliyatning boshqa turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faoliyatning mazkur turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari va umumbelgilangan soliqlarni to'lashlari shart.

Yuridik shaxslar — qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar uchun boshqa daromadlarga soliq solinmaydi, dividendlar va foizlar, birgalikdagi faoliyatdan olingan daromadlar, shuningdek ijaradan olingan daromadlar bundan mustasno.

Mol-mulkni ijara berishdan olingan daromadlarga umumbelgilangan soliqlar yoki yagona soliq to'lovi joriy etiladi.

Faoliyatning boshqa turlarini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar qat'iy belgilangan soliqni to'laydi.

Qat'iy belgilangan soliq belgilangan faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko'rsatkich soliq solinadigan ob'ekt hisoblanadi.

Soliq solinadigan baza fizik ko'rsatkichlarning sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Qat’iy belgilangan soliq summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq davri — bir oy.

Qat’iy belgilangan soliq hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

- yangi tashkil qilinayotgan (boshlovchi) soliq to'lovchilar tomonidan — davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay;

- faoliyat yuritayotgan soliq to'lovchilar tomonidan — hisobot yilining 15 yanvarigacha taqdim etiladi.

Soliq solish ob'ekti va ish haqining eng kam miqdori o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchilar aniqlik kiritilgan hisob-kitobni navbatdagi to'lovnii to'lash muddatidan kechiktirmay taqdim etishlari shart.

Qat’iy belgilangan soliqni to'lash:

- yuridik shaxslar tomonidan — har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;

- yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — har oyning 25-kuniga qadar amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish doirasida qat’iy belgilangan soliq to'lash bilan bir qatorda quyidagilarni to'laydilar:

1) bojxona to'lovlar;

2) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;

3) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq — suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda;

4) aktsiz solig'i — aktsiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarilganda;

5) byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;

6) davlat boji;

7) avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Agar yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq solinadigan mol-mulkka va yer uchastkasiga ega bo'lsalar, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash majburiyati ularning zimmasida saqlanib qoladi.

Agar yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini muayyan muddatga to'xtatsa, u o'z faoliyatini to'xtatguniga qadar tadbirkorlik sub'ektini ro'yxatdan o'tkazuvchi organga faoliyatni vaqtinchalik to'xtatish to'g'risida ariza berish bilan bir vaqtida davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomani topshiradi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to'xtatilganligi to'g'risidagi arizani va uning davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomasini olgan, tadbirkorlik sub'ektini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiradigan organ soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to'xtatilganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda axborot taqdim etadi.

Tadbirkorlik sub'ektini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to'xtatilganligi to'g'risida taqdim qilingan va davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingan axborot yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun qat'iy belgilangan soliqni hisoblashni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi.

Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari daromadlarning hamda amalga oshirilgan tovar operatsiyalarining hisobini yuritishlari shart.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari quyidagilardir:

- chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorning daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish daftari;

- Tovar cheklari daftari.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlaring shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari yakka tartibdagi tadbirkorni soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorning arizasi asosida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari oxirgi yozuv kiritilgan paytdan e'tiboran besh yil mobaynida yakka tartibdagi tadbirkorda saqlanadi va ular raqamlangan, ip o'tkazib bog'langan hamda tegishli davlat soliq xizmati organining muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Yakka tartibdagi tadbirkor faoliyati to'g'risidagi hisobotlar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

- savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan, bundan tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlar olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar mustasno, — yilning har bir choragi yakunlari bo'yicha hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay;

- tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — har oyning yakunlari bo'yicha hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyatining turi va soliq to'lovchining faoliyatni amalga oshirish joyiga qarab belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi.

Faoliyatning bir necha turi bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar qat'iy belgilangan soliqni faoliyatning har bir turi uchun mazkur turdag'i faoliyatga nisbatan belgilangan stavkalar bo'yicha alohida-alohida to'laydilar.

Qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 25-kuniga qadar har oyda, soliq to'lovchi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi. Agar faoliyat amalga oshirilgan joy uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalardan farq qilsa, qat'iy belgilangan soliq eng yuqori stavka bo'yicha to'lanadi.

18-jadval

Yuridik va jismoniy shaxslardan tadbirkorlik  
faoliyati ayrim turlari bo'yicha olinadigan  
qat'iy belgilangan soliq stavkalarini  
(2009 yil uchun)

N	Faoliyat turi	Soliq to'lovchilar	Mazkur faoliyat turini xarakterlov chi fizik ko'rsatkichl ar	Fizik ko'rsatkich birligiga har oyda qat'iy belgilangan soliq stavkasi (eng kam ish haqiga birlik uchun karrali miqdorlarda)		
				Toshk ent shahri	viloyat lardagi shaharl ar	tumanla r, shu jumlada n qishloq joylari
1.	Avtotranspor tni qisqa muddat saqlash joylari	yuridik shaxslar	egallagan maydon (1 kv.metr)	0,1	0,09	0,06
2.	Bolalar o'yin avtomatlari	yuridik va jismoniy shaxslar	jihozlanga n o'rinalar soni (bir birlikda)	3,0	2,0	1,0
3.	Bilyardxonalar	yuridik va jismoniy shaxslar	jihozlanga n o'rinalar, stollar soni (bir birlikda)	14,0	12,0	10,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrdagi PQ-1024-son qaroriga 10- ilova

Taqdim etilgan qat'iy belgilangan soliq hisob-kitobida hisobga olinmagan fizik ko'rsatkichlar aniqlangan holatda bu hol soliqlarni to'lashdan bo'yin tovplash sifatida qaraladi.

19-jadval

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati  
bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy  
belgilangan soliq stavkalari (2009 yil uchun)

N	Faoliyat turi	Qat'iy belgilangan soliqning bir oydag'i stavkasi (eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda)		
		Tosh kent shahr i	viloyatd agi shaharla r	Tumanlar , shu jumladan qishloq joylari
1.	Chakana savdo:  oziq-ovqat tovarlari bilan  deqqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan*	9,0  5,0	5,5  4,0	3,0  2,0
	nooziq-ovqat tovarlari bilan	10,5	7,0	3,5
	oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari bilan (turg'un shoxobchalardagi aralash savdo)	10,5	7,0	3,5
2.	Maishiy xizmatlar, 3-bandda ko'rsatilganlardan tashqari	5,5	2,0	1,0
3.	Sartaroshlik xizmatlari ko'rsatish, manikyur, pedikyur, kosmetolog xizmatlari va boshqa shunga o'xhash xizmatlar	6,5	3,5	2,0
4.	O'z mahsulotini ishlab chiqarish va sotish, shu jumladan milliy shirinliklar va non-bulka mahsulotlari tayyorlash va sotish, shuningdek uy sharoitlarida yoki davlat hokimiyati organlarining qarori bilan maxsus ajratilgan joylarda o'tirish joylari tashkil qilmasdan donalab sotiladigan ovqatlarning ayrim turlarini tayyorlash va sotish	3,5	2,5	1,5
5.	Boshqa faoliyat turlari, mol-mulkni	4,0	2,5	1,0

	ijaraga berishdan tashqari			
6.	Avtomobil transportida yuk tashishga oid xizmatlar:			
	3 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	5,5	4,0	3,0
	8 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	9,0	7,5	6,0
	8 tonnadan ortiq yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	13,5	10,0	9,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrdagi PQ-1024-son qaroriga 11-ilova

2009 yili 2008 yilga nisbatan qat'iy belgilangan soliq stavkalari 1-3 baravargacha pasaytirilgan.

Uy xo'jaligi (shu jumladan, dehqon xo'jaligi)da parvarishlangan, ham tirik ko'rinishdagi, ham ularni so'yib, xom va qayta ishlangan ko'rinishdagi mahsulotlar sifatida hayvonlar (chorva mollari, mo'ynali va boshqa hayvonlar qushlari, baliqlar va boshqalar), chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini (natura va qayta ishlangan ko'rinishda dekorativ bog'dorchilik (gulchilik) mahsulotlaridan tashqari), sanoatda qayta ishlashdan tashqari, sotish bundan mustasno.

Soliq solishdan ozod etish soliq to'lovchi tomonidan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, bog'dorchilik, bog'dorchilik-polizchilik shirkatlari boshqaruvi tomonidan berilgan hamda sotilgan mahsulot soliq to'lovchi tomonidan unga yoxud uning oila a'zolariga ajratilgan yer uchastkasida amalga oshirilganligini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi hujjatni taqdim etish sharti bilan amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxs:

a) bir necha faoliyat turi bilan shug'ullansa, har bir faoliyat turi uchun alohida soliq to'laydi;

b) tadbirkorlik faoliyatini ijaraga olingan uskunalar va binoda amalga oshirsa, yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga ijaraga beruvchi to'g'risida ma'lumotnoma (axborot) taqdim etishi shart;

v) davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan joyda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirsa, soliqni ro'yxatdan o'tkazilgan joyda va faoliyatni haqiqatda amalga oshirayotgan joyda belgilangan stavkalar orasida eng yuqori stavka bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan joyda to'laydi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olgan daromadlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 744-qaroriga 8-ilovada belgilangan stavkalar bo'yicha jismoniy shaxslar daromadlariga soliq solinadi.

## Xulosa va takliflar

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlarga juda extiyotkorlik va yuqori ilmiy saloxiyatga tayangan xolda yondashish talab qilinadi. Chunki ikkita muxim masalani, ya'ni davlat byudjet ko'rsatkichlarining bajaralishi (soliqlarning o'z vaqtida va to'liq undirilishini ta'minlash)ga erishish va jismoniy shaxslar faoliyatini rag'batlantirish (to'lov qobiliyati va mexnat faoliyatiga eng kam darajada salbiy ta'sir ko'rsatish) orqali farovon turmush sharoitini yaratish kabi jarayonlarni parallel ravishda olib borish lozim.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar amaliyotidagi eng murakkab muammolardan biri jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish muammosidir. Eng maqbul soliqqa tortish tizimini ishlab chiqgan holda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga ta'sir qilish, tadbirkorlikning taraqqiy etishiga yordam berish va ijtimoiy muammolarni hal etib borish bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ham, undan keyin ham davlatning bosh maqsadi bo'lib qolaveradi.

Jismoniy shaxslar daromad soliqlari tahlil qilinganda, asosiy soliqqa tortiladigan baza, ya'ni ish haqi nuqtai nazaridan mavjud sharoit qoniqarli hisoblanadi. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish bo'yicha fiskal siyosatning maqsadi, aholining o'rta va yuqori daromadli guruhlarini ko'paytirishdan iborat bo'lishi lozim.

Soliq tizimini bozor tamoyillari asosida isloh qilish sharoitida iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlarning jismoniy shaxslarni daromadlarini soliqqa tortish yuzasidan ilg'or tajribalarini o'rganish va samarali bo'lgan usullarini iqtisodiyotimizning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda tadbiq etish bosh masala hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i O'zbekiston Respublikasi soliq tizmining bir bo'g'ini hisoblanib, amalga oshirilayotgan soliq siyosati mamlakatning makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy ko'rsatkichlariga sezilarli tarzda ta'sir etadi.

### **Nazorat qilish bo'yicha savollar:**

1. Kimlar jismoniy shaxslar daromadiga solig'ini to'lovchilari hisoblanadi?
2. Soliq ob'ekti va jami daromadga nimalar kiradi?
3. Jismoniy shaxslar daromadlariga qanday soliq stavkalari mavjud?
4. Jismoniy shaxslar daromadiga soliqdan qanday imtiyozlar bor?
5. Kimlar daromadga soliqdan to'liq ozod etiladi va kimgarga 4 karrali minimal ish haqida imtiyoz beriladi?
6. Chet ellik jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning qanday xususiyatlari bor?
7. Jismoniy shaxslar daromadiga soliq kimlar tomonidan va nimalar asosida hisoblanadi?
8. Jismoniy shaxslarning daromadiga soliqni to'lov manbaida kimlar ushlab koladilar?
9. Jismoniy shaxslar daromadiga soliqni to'lash muddatlari qanday?

## V- bob.

### **Qo'shilgan qiymat solig'idan samarali foydalanishni tashkil etish masalalari**

#### **5.1. Qo'shilgan qiymat solig'ini iqtisodiy mohiyati va uning hisoblash mexanizmi**

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar to'laydigan egri soliqlar jumlasiga qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'i kiradi.

Korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqish va byudjetga to'lash mexanizmini ko'rib chiqamiz.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari quyidagilar:

1) soliq solinadigan oborotlarga ega bo'lgan yuridik shaxslar;

2) O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar;

3) tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar, o'z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno;

4) oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) oddiy shirkat shartnomasining sherigi (ishtirokchisi).

Quyidagilar qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar hisoblanmaydi:

- notijorat tashkilotlar, bundan tadbirkorlik faoliyati doirasida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlari mustasno;

- soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar (yagona yer solig'i to'lovchilari bo'lgan fermer va dehqon xo'jaliklari va boshqalar).

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yilning navbatdagi choragi boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmasdan, yangi tashkil etilayotgan yagona soliq to'lovini to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar esa faoliyat

boshlanguniga qadar taqdim etiladigan yozma bildirishga asosan ixtiyoriy asosda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashi mumkin.

Soliq solish ob'ekti quyidagilardir:

soliq solinadigan oborot;

soliq solinadigan import.

Tovarlarni realizatsiya qilish oborotiga quyidagilar kiradi:<sup>10</sup>

1) mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini o'tkazish yoki realizatsiya qilish shu jumladan:

- tovarlarni va boshqa mol-mulkni jo'natish;

- ustav fondiga qo'shilgan hissa;

- mol-mulkni bepul berish, shu jumladan yuridik shaxs xodimlariga ularning mazkur yuridik shaxs faoliyati bilan bog'liq bo'limgan shaxsiy ehtiyojlari uchun mol-mulkni bepul berish;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda xodimga ish haqi hisobiga yoki muassisiga dividendlar to'lash hisobiga mol-mulk berish;

- garov bilan ta'minlangan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, garovga qo'yuvchi tomonidan garov narsasini berish;

- zayom shartnomalari asosida tovar-moddiy zaxiralarni berish;

2) bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo'linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo'linmasiga, agar tarkibiy bo'linmalar mustaqil soliq to'lovchilar bo'lsa, mol-mulkni berish;

3) mol-mulkni moliya ijarasiga (shu jumladan lizingga) berish;

4) to'lojni bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan tovarni jo'natish;

5) mol-mulkni operativ ijaraga berish;

6) intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqni o'tkazish yoki ulardan foydalanish huquqini berish.

Quyidagilar tovarlarni realizatsiya qilish oboroti bo'lmaydi:

1) soliq to'lovchining xarajatlari sifatida qaraladigan uning o'z ehtiyojlari uchun tovar berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqarishda chegirilmaydigan xarajatlar bundan mustasno;

---

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi.-T.: «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami» nashriyoti, 2007 yil.

2) bitta yuridik shaxsnинг bir tarkibiy bo’linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo’linmasiga ishlab chiqarish ehtiyojlari (zavod ichki oboroti) uchun, agar tarkibiy bo’linmalar mustaqil soliq to’lovchilar bo’lmasa, mol-mulk berilishi;

3) soliq to’lovchining o’z ehtiyojlari uchun o’z kuchi bilan qurilish, montaj, qurilish-montaj ishlarini bajarishi;

4) tovarlarni va boshqa mol-mulkni qayta ishlash asosida berish;

5) ishonchli boshqaruv shartnomasi asosida mol-mulkni mulkdordan ishonchli boshqaruvchiga berish;

6) ishonchli boshqaruv shartnomasi tugatilgan taqdirda, mol-mulkni mulkdorga berish;

7) ob’ekt qiymatini ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) oladigan ijara (lizing) to’lovining bir qismi tarzida qoplash.

Tovarlarni realizatsiya qilish oboroti soliq solinadigan oborotdir, bundan quyidagilar mustasno:

- qo’shilgan qiymat solig’idan ozod qilingan oborot;
- realizatsiya qilingan joyi O’zbekiston Respublikasi bo’lmagan oborot.

Tovarlar jo’natilgan (berilgan) kun, tovarlarni realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sana hisoblanadi.

Agar tovarlarni jo’natish amalga oshirilmasa, tovarga bo’lgan mulk huquqi oluvchiga o’tkazilgan kun realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.

Soliq solinadigan baza, realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qiymati asosida, unga qo’shilgan qiymat solig’ini kiritmagan holda belgilanadi.

Tovarlar tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog’liq xarajatlar ham hisobga olingan holda) past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda, shuningdek tovarlar bepul berilganda soliq solish maqsadlari uchun soliq solinadigan baza tovarlarning tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog’liq xarajatlar hisobga olingan holda) kelib chiqqan holda belgilanadi.

Tovarlar qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan tayyorlangan taqdirda, soliq solinadigan baza qo’shilgan qiymat solig’ini kiritmagan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati asosida, aktsiz to’lanadigan tovarlar bo’yicha esa, ularni qayta ishlash xizmatlari qiymati asosida,

hisoblab chiqarilgan aktsiz solig'ini hisobga olgan holda belgilanadi.

Aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan bazaga aktsiz solig'inining summasi kiritiladi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, ularning realizatsiya qilish narxi bilan qoldiq qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi.

Mol-mulk moliya ijarasiga, shu jumladan lizingga berilgan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, chiqib ketayotgan aktiv qiymati bilan uning balans (qoldiq) qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi.

Qaytariladigan tara soliq solinadigan oborotga kiritilgan taqdirda, tara belgilangan muddatda qaytarilmasa, soliq solinadigan baza mazkur taraning qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan garov qiymati asosida belgilanadi.

Soliq to'lovchining soliq solinadigan bazasiga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi:

- 1) tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;
- 2) bitim shartlari o'zgarganda;
- 3) narxlar o'zgarganda, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan) foydalanganda;
- 4) bajarilgan ishlardan, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Soliq solinadigan bazaga tuzatishni kiritish bir yillik muddat ichida, kafolat muddati belgilangan tovarlar bo'yicha esa, kafolat muddati doirasida amalgalash oshiriladi.

Soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish qo'shimcha hisobvara-faktura yoki ko'rsatilgan hollar yuz bergenligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asosida amalgalash oshiriladi.

Tovarlarni import qilishda soliq solinadigan bazaga tovarlarning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati, shuningdek O'zbekiston Respublikasiga tovarlarni import qilishda to'lanishi lozim bo'lган aktsiz solig'inining, bojxona bojlarining summalarini kiradi.

## **5.2.Qo'shilgan qiymat solig'i imtiyozlari**

Qo'shilgan qiymat solig'idan quyidagi realizatsiya qilish oborotlari ozod etiladi:

- 1) davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda boshqa vakolatli tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan, davlat boji va yig'imlar undiriladigan xizmatlar (harakatlar);
- 2) mактабгача та'lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashga doir xizmatlar;
- 3) bemorlar va keksalarni parvarish qilishga doir xizmatlar;
- 4) dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlari, diniy ashyolarni realizatsiya qilish, diniy tashkilotlar hamda birlashmalarning udumlar va marosimlar o'tkazishga doir xizmatlari;
- 5) protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun mo'ljallangan inventarlar, shu jumladan ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan buyumlar va inventarlar, shuningdek nogironlarga ko'rsatilayotgan ortopedik protezlash xizmatlari, protez-ortopediya buyumlari va nogironlar uchun mo'ljallangan inventarlarni ta'mirlash hamda ulardan foydalanishga doir ishlar bo'yicha xizmatlar;
- 6) davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarining mazkur muassasalar tomonidan realizatsiya qilinadigan mahsulotlari;
- 7) pochta markalari (kolleksiya qilinadiganlaridan tashqari), markali otkritkalar, konvertlar;
- 8) aloqa tashkilotlarining pensiya va nafaqalar to'lash bo'yicha xizmatlari;
- 9) byudjet mablag'lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlari. Ushbu imtiyozni olish uchun tegishli moliya organining byudjetdan mablag'lar ajratish to'g'risidagi xulosasi asosdir;
- 10) shahar yo'lovchilar transportining xizmatlari (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari), shuningdek temir yo'l va umumiy foydalanishdagi avtomobil transportida (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari) shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashish xizmatlari. Shahar yo'lovchilar transportining xizmatlari jumlasiga yo'lovchilar tashish bo'yicha avtomobil va elektr transporti bilan shahar

doirasida muayyan yo'nalishlar bo'yicha qatnov jadvaliga binoan ko'rsatiladigan xizmatlar kiradi. Ushbu qoidalar umumiyl foydalanishdagi shahar yo'lovchilar tashish transporti yoki temir yo'l va avtomobil transportida xodimlarni ishdan va (yoki) ishga tashish bo'yicha xizmatlarga, yuridik va jismoniy shaxslar buyurtmalari asosida shahar atrofida tadbirlar o'tkazish uchun tashish bo'yicha xizmatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi;

11) oliv, o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarida, shuningdek kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda ta'lim berishning haq evaziga o'qitishga doir qismi bo'yicha xizmatlar;

12) vakolatli davlat organiga saqlab turish uchun topshirilgan qimmatbaho metallar;

13) tibbiy (veterinariya) xizmatlari, kosmetologiya xizmatlari bundan mustasno, shuningdek dori vositalari va tibbiy (veterinariya) buyumlari, shu jumladan ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan shunday vositalar va buyumlar. Ushbu qoidalarni qo'llash maqsadlarida:

- tibbiy xizmatlar jumlasiga tibbiy yordam xizmatlari va sanitariya xizmati ko'rsatish, diagnostika, profilaktika va davolash xizmatlari, gomeopatik, stomatologik xizmatlar, tish protezlari tayyorlash bo'limlari va kabinetlari, narkologiya ambulatoriyalari, haydovchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish komissiyalari, dezinfektsiya stantsiyalari, sanitariya va epidemiyaga qarshi kurash yo'nalishidagi laboratoriyalar hamda bo'linmalar, boshqa tibbiy hamda tibbiy-sanitariya yo'nalishidagi muassasalar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar kiradi;

- veterinariya xizmatlari jumlasiga hayvonlarni (chorva mollar, parrandalar, mo'ynali va boshqa hayvonlarni, baliqlar, asalarilarni, hayvonot bog'laridagi, tajribaxonalardagi va boshqa shu kabilardagi jonivorlarni) kasalliklardan muhofaza qilish va ularni davolash, ishlab chiqarish va aholining yaxshi sifatli chorvachilik mahsulotiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, odamlarning hayvonlarga va insonga xos kasalliklarga chalinishining oldini olish, shuningdek atrof muhitni muhofaza qilishning veterinariya-sanitariya muammolarini hal etish tadbirlari kiradi;

14) chet el havo kemalariga xizmat ko'rsatish yuzasidan bevosita O'zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O'zbekiston

Respublikasining havo bo'shlig'ida amalga oshiriladigan xizmatlar, shu jumladan aeronavigatsiya xizmati;

15) sanatoriy-kurort, sog'lomlashtirish, turistik-ekskursiya xizmatlari va bolalar dam olish oromgohlarining xizmatlari, shuningdek jismoniy tarbiya va sport muassasalarining tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan xizmatlari. Ushbuni qo'llash maqsadida:

- sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish xizmatlari, shuningdek bolalar dam olish oromgohlarining xizmatlari jumlasiga yo'llanmalar yoki joysiz davolanish uchun berilgan hujjat bilan rasmiylashtirilgan sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish xizmatlari, bolalar oromgohlarining xizmatlari kiradi. Sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish tashkilotlari dam oluvchilarga ko'rsatadigan yo'llanmaning (joysiz davolanish uchun berilgan hujjatning) qiymatiga kirmaydigan xizmatlarga ham qo'shilgan qiymat solig'i solinmaydi;

- turistik-ekskursiya xizmatlari jumlasiga safar tarkibida nazarda tutilgan turistik xizmatlar ko'rsatish uchun yo'llanmaning (vaucherning) qiymatiga kiritilgan barcha turistik-ekskursiya xizmatlari kiradi. Barcha turistik-ekskursiya xizmatlari turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasida belgilangan transportda xizmat ko'rsatishdan, yashab turishga, ovqatlanishga doir xizmatlardan, ekskursiya xizmati, madaniy, sport dasturlarini tashkil etish xizmatlari va boshqa xizmatlardan iborat bo'ladi;

- jismoniy tarbiya va sport muassasalarining xizmatlari jumlasiga sport inshootlarida sport musobaqalari, bayramlari, sport-tomosha tadbirlari, sport inshootlarida o'tkaziladigan kalendar va match uchrashuvlari, sport turlari bo'yicha o'quv guruhlari hamda komandalarida, sog'lomlashtirish, umumjismoniy tayyorgarlik, sog'lomlashtirish yo'nalishidagi, chiniqish, suzish, sog'lomlashtirish maqsadidagi yugurish va yurish, atletika, ritmika va davolash gimnastikasi maktablari hamda klublarida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari o'tkazish bo'yicha, sport inshootlariga qatnovchilarga biletlarning (abonnementlarning) qiymatida nazarda tutilgan sport-texnika asbob-uskunalarini, trenajyorlarni, inventarlarni, sport ust-boshlarini berib turish bo'yicha xizmatlar hamda boshqa xizmatlar kiradi;

16) davlat mulkini xususiylashtirish tartibida realizatsiya qilinayotgan mol-mulk;

17) gidrometeorologiya va aerologiya ishlari;

18) geologiya va topografiya ishlari;

19) bosma mahsulotlar, shuningdek bosma mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni realizatsiya qilish bilan bog'liq tahriri, matbaa va noshirlik ishlari (xizmatlari). Ushbuni qo'llash maqsadida:

- bosma mahsulotlar jumlasiga kitoblar, gazetalar, jurnallar, ma'lumotnomalar, risolalar, albomlar, plakatlar, bukletlar, otkritkalar, daftarlari, rasm va chizmachilik albomlari, blankalar hamda boshqa bosma mahsulotlar kiradi;

- tahriri, matbaa va noshirlik ishlari (xizmatlari) jumlasiga maket tayyorlash, kompyuter grafikasi, sahifalash, original maketlar tayyorlash, muqovalash, adadlarni tayyorlash, reklama murojaatlarini qabul qilib olish, rasmiylashtirish va nashrlarda joylashtirish, rang berish, yuridik va jismoniy shaxslarni axborot bilan ta'minlash, axborot toplash hamda uni qayta ishlash, matnlarni tarjima qilish ishlari, magnit va qog'oz nusxalarda pochta aloqasi hamda Internet orqali realizatsiya qilish, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa turdag'i tahriri, matbaa va noshirlik ishlari kiradi. Alovida va uzil-kesil ishlar (xizmatlar) tarzida amalga oshiriladigan, matbaa mahsuloti ishlab chiqarish hamda uni realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'limgan tahriri, matbaa va noshirlik ishlariga (xizmatlariga) qo'shilgan qiymat solig'i solinadi;

20) O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining, uning tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarning hamda O'zbekiston Milliy axborot agentligining asosiy faoliyatiga doir mahsulot va xizmatlar;

21) O'zbekiston Respublikasi hududidan eksport qilinayotgan tovarlarni tashish, yuklash, tushirish, qayta yuklash, ekspeditsiya qilishga doir xizmatlar, ishlar;

22) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiyl sonining kamida 50 foizini nogironlar tashkil etuvchi yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar), bundan

vositachilik, savdo, tayyorlov, ta'minot-sotish faoliyatini amalga oshirish bo'yicha realizatsiya qilish oborotlari mustasno;

23) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlar (kreditlar) yuridik shaxslar oladigan, shuningdek grantlar hisobiga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar);

24) uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash yuzasidan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar. Uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash yuzasidan ko'rsatiladigan xizmatlar jumlasiga sanitariya tozalash, lift xo'jaliklari, umumiyl foydalanishdagi antennalarini o'rnatish hamda ularni tasarruf etish bo'yicha xo'jaliklar, yer resurslari va davlat kadastri, uy-joy fondidan foydalanish, uni saqlash va ta'mirlash boshqarmalari hamda bo'limlarining bevosita aholi tomonidan haq to'lanadigan xizmatlari, shu jumladan ushbu xizmatlarga xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari orqali haq to'lash kiradi;

25) aholini elektr energiyasi bilan ta'minlash;

26) vakolatli davlat organining ixtisoslashgan ekspertiza bo'linmalari o'tkazadigan ekologik ekspertiza xizmatlari;

27) davlat tilini va davlat tilida ish yuritishni o'rgatish xizmatlari;

28) o'zi etishtirgan qishloq xo'jaligi mahsuloti;

29) ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlov bo'linmalari xizmatlari;

30) ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa yoki pay badali sifatida beriladigan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tugallanmagan qurilish ob'ektlari;

31) byudjet mablag'lari hisobidan bajariladigan yer-kadastr, yer tuzish, tuproq va geobotanika ishlari;

32) davlat rezervining tovar-moddiy zaxiralari, ular yangilanayotganda;

33) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnika vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar;

34) investor va davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatlari sifatida topshirilayotgan mol-mulk;

35) kitob mahsulotlari, maktab o'quv qurollari va ko'rgazmali qo'llanmalarning, dori vositalari va tibbiyot buyumlarining ulgurji savdosi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) kreditlar, zayomlar bo'yicha foizlarni hisoblab chiqarish va undirish, kreditlar, zayomlar berish, kafilliklar (kafolatlar), shu jumladan bank kafolatlari berish;

2) depozitlar qabul qilish, yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan vakil banklarda hisobvaraqlarini ochish va yuritish;

3) to'lovlar, o'tkazmalar, qarz majburiyatlari, cheklar va to'lov vositalari bilan bog'liq operatsiyalar, inkasso bo'yicha operatsiyalar;

4) milliy valyuta va chet el valyutasi bilan bog'liq operatsiyalar, numizmatika maqsadlarida foydalaniladiganlari bundan mustasno;

5) yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog'ozlar depo-hisobvaraqlarini, shu jumladan vakil depozitariylarini ochish hamda yuritish;

6) qimmatli qog'ozlar (aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar) bilan bog'liq operatsiyalar. Qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar jumlasiga qimmatli qog'ozlarni saqlash, qimmatli qog'ozlarga bo'lган huquqni hisobga olish, qimmatli qog'ozlarni o'tkazish hamda qimmatli qog'ozlar reestrini yuritish bo'yicha operatsiyalar, qimmatli qog'ozlar savdosini tashkil etish bo'yicha operatsiyalar kiradi, ularni tayyorlash bo'yicha xizmatlar bundan mustasno;

7) qimmatli qog'ozlarni, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarni (paylarni) realizatsiya qilish;

8) kliring operatsiyalari;

9) akkreditivlar ochish va ularga xizmat ko'rsatish;

10) pul mablag'larini konvertatsiya qilish bo'yicha operatsiyalar;

11) chet el valyutasi bilan ayirboshlash operatsiyalarini tashkil etish;

12) kassa operatsiyalari (banknot va tangalarni qabul qilib olish, berish, qayta hisoblab chiqish, maydalab berish, almashtirish, saralash va saqlash);

13) moliyaviy ijara (lizing) shartnomasining ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) foiz tariqasidagi daromadiga tegishli qismi bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;

14) forfeyting va faktoring operatsiyalari;

15) lombard operatsiyalari (garovga qo'yilgan mol-mulkka qisqa muddatli kreditlar berish);

16) jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining oboroti.

Soliqdan ozod qilinadigan sug'urta xizmatlari:

- sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish xizmatlari bo'yicha sug'urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta qilish bo'yicha xizmatlar bu xizmatlar natijasida:

1) sug'urta bozorining professional ishtirokchisi quyidagilarni olsa, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

a) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari;

b) qayta sug'urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo'yicha vositachilik haqi;

v) sug'urta agenti, sug'urta va qayta sug'urta brokeri, syurveyser hamda sug'urta bozorining boshqa professional ishtirokchilarining xizmatlari uchun vositachilik haqi;

g) qayta sug'urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo'yicha sug'urta to'lovlari ulushining qayta sug'urtalovchilar tomonidan to'lanadigan to'lovini;

d) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha uchinchi shaxslardan subrogatsiya (regress) tartibida talab qilish bo'yicha daromadlar;

e) sug'urta bozorining professional ishtirokchilari (aktuariylar, ajasterlar, syurveyserlar, assistans xizmatlari va shu singarilar) ko'rsatgan xizmatlardan olinadigan daromadlar;

j) qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha depo mukofotlariga hisoblangan hamda qayta sug'urta qildiruvchi tomonidan qayta sug'urtalovchiga o'tkazilgan foizlar;

z) hayotni sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta qildiruvchilar taqdim etgan zayomlardan olinadigan daromadlar;

i) sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) investitsiya faoliyatidan olinadigan daromadlar, shu jumladan sug'urta rezervlari va sug'urta fondlari mablag'larini investitsiyalashdan olinadigan daromadlar;

k) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha franshizlarni qoplashdan olinadigan daromadlar;

l) qonun hujjatlariga muvofiq sug'urtalovchiga o'tgan, sug'urta qildiruvchining (naf oluvchining) etkazilgan zarar uchun javobgar shaxslardan talab qilish huquqini realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;

m) qayta sug'urta qilish shartnomalari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, ular bo'yicha sug'urta mukofotlarining qaytarib berilgan qismi summalari;

n) bevosita sug'urta faoliyatini amalga oshirishdan olinadigan boshqa daromadlar;

2) sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) quyidagilarni olsa, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

a) sug'urta to'lovi (sug'urta tovoni);

b) preventiv tadbirlar o'tkazish uchun beriladigan mablag'lar;

v) sug'urta qilish shartnomasi zararsiz amal qilishi uchun sug'urtalovchi to'laydigan mablag'lar;

g) sug'urta qilish shartnomasiga muvofiq boshqa mablag'lar.

Quyidagi tovarlarni import qilish qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

1) O'zbekiston Respublikasi hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek butlovchi buyumlar va ehtiyyot qismlar, agar ularni yetkazib berish texnologik asbob-uskunalarни yetkazib berish kontrakti shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa. Import qilingan texnologik asbob-uskunalar olib kirilgan paytdan e'tiboran uch yil mobaynida eksportga realizatsiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyatlar tiklangan holda bekor qilinadi;

2) investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida olib kiriladigan mol-mulk;

3) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig'i mavjud bo'lган taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;

Tovarlarni chet el valyutasida eksportga realizatsiya qilish oborotiga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan bojxona to'g'risidagi qonun hujjalariiga muvofiq olib chiqish tovarlar eksporti hisoblanadi.

Tovarlarning eksport qilinganligi tasdiqlanmagan taqdirda, mazkur tovarlarni realizatsiya qilish oborotiga belgilangan 20% stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Byudjetga to'lanishi lozim bo'lган soliq summasini aniqlashda tovarlar oluvchi haqiqatda olingan tovarlar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lган (to'langan) qo'shilgan qiymat solig'inining summasini hisobga olish huquqiga ega, agar mazkur tovarlardan soliq solinadigan oborotlar, shu jumladan nol darajali stavka qo'llaniladigan oborotlar maqsadlarida foydalanilsa, shuningdek soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun foydalanilsa va agar quyidagi shartlar bajarilsa:

1) tovarlarni oluvchi qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi bo'lsa;

2) olingan tovarlarga yetkazib beruvchi tomonidan yozilgan hisobvaraq-faktura yoki taqdim etiladigan qo'shilgan qiymat solig'i alohida ajratib ko'rsatilgan boshqa hujjat mavjud bo'lsa;

3) tovarlar import qilinganda qo'shilgan qiymat solig'i byudjetga to'langan bo'lsa;

4) qo'shilgan qiymat solig'i byudjetga to'langan bo'lsa.

208-moddaga kiritilgan o'zgarish natijasida qimmatbaho metallar oboroti eksporti uchun qo'shilgan qiymat solig'inining nol darajali stavkasi bekor qilindi.

212-moddada - paxta tolasi va lint oborotlariga qo'shilgan qiymat solig'inining nol darajali stavkasi kiritildi.

216-moddaga kiritilgan qo'shimcha norma xalqaro yo'nalishda tashishlar bo'yicha yo'lovchilar, bagajlar va pochtani xalqaro yo'nalishda qo'llaniladigan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha nol darajali stavka yuk tashuvchilar uchun ham tadbiq etishni nazarda tutadi.

### **5.3. QQSni hisobga olish tartibi**

Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini aniqlashda tovarlar (ishlar, xizmatlar) oluvchi haqiqatda olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan) qo'shilgan qiymat solig'inining summasini hisobga olish huquqiga ega, agar mazkur tovarlardan (ishlardan, xizmatlardan) soliq solinadigan oborotlar, shu jumladan nol darajali stavka qo'llaniladigan oborotlar maqsadlarida foydalanilsa, soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun foydalanilsa va agar quyidagi shartlar bajarilsa:

- 1) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) oluvchi qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lsa;
- 2) olingan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) yetkazib beruvchi tomonidan yozilgan hisobvaraq-faktura yoki taqdim etiladigan qo'shilgan qiymat solig'i alohida ajratib ko'rsatilgan boshqa hujjat mavjud bo'lsa;
- 3) tovarlar import qilinganda qo'shilgan qiymat solig'i byudjetga to'langan bo'lsa;
- 4) qo'shilgan qiymat solig'i byudjetga to'langan bo'lsa.

Mol-mulk ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'yilma sifatida olinganda oluvchi yetkazib beruvchi tomonidan to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasini, yuqoridaq shartlarni inobatga olib, hisobga olish huquqiga ega bo'ladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i tovarlar (ishlar, xizmatlar) qaysi hisobot davrida olingan bo'lsa, o'sha hisobot davrida hisobga olinadi. Qo'shilgan qiymat solig'i to'langan bo'lsa, to'langan soliq haqiqatda qaysi hisobot davrida byudjetga o'tkazilgan bo'lsa, o'sha hisobot davrida hisobga olinadi.

Tovar vositachilik, topshiriq shartnomasi asosida olingan taqdirda, komitent, vakolat beruvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti hisoblansa, bojxonada to'langan qo'shilgan qiymat solig'i hisobot davrida realizatsiya qilingan tovarlar ulushida hisobga olinadi.

Umumbelgilangan soliqlarni to'lashga va qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy to'lashga o'tilgan taqdirda, yuridik shaxs bunday turdag'i to'lovlarg'a o'tilgan paytdan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qoldiqlari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisobga olish huquqiga ega. Xuddi shunday tartib imtiyozlar bekor qilingan taqdirda, qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyat yuzaga kelgan soliq to'lovchilarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchida soliq solinadigan va soliq solinmaydigan oborotlar, shu jumladan qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan oborotlar mavjud bo'lган taqdirda, qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinadi. Ushbuni qo'llash maqsadida mol-mulkni ijaraga berishga, intellektual mulk ob'ektlaridan foydalanish huquqini berishga xizmatlar sifatida qaraladi.

Quyidagilar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasi hisobga olinmaydi:

1) olinayotgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va qurilishi tugallanmagan ob'ektlar bo'yicha;

2) qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lмаган yuridik shaxslar tomonidan, shuningdek qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar tomonidan foydalanish uchun olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha;

3) garov qiymatiga ega bo'lган, ushbu tarada tovarni jo'natishda soliq solinadigan oborotga kiritilmaydigan qaytariladigan tara, shu jumladan shisha idish bo'yicha;

4) O'zbekiston Respublikasi hududi realizatsiya qilish joyi deb e'tirof etilmaydigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha;

5) tekinga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha, bundan oluvchi tomonidan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobga olinishi lozim bo'lган qo'shilgan qiymat solig'i to'langan hollar mustasno;

6) bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ko'ngilochar tomoshalar tashkil etish maqsadida olingan moddiy resurslar bo'yicha, bundan soliq to'lovchi bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va ko'ngilochar tomoshalar sohasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun olgan moddiy resurslar mustasno.

Ilgari hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i quyidagi hollarda hisobga olishdan chiqarib tashlanishi kerak:

- qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish uchun yuridik shaxslar tomonidan foydalanilayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha;

- belgilangan qoidalarga rioya etilmagan taqdirda.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga (qo'shilgan qiymat solig'i to'lamaydiganlar toifasiga) o'tganda ilgari hisobga olingan tovar-moddiy zaxiralar qoldiqlari, shuningdek tayyor mahsulot qoldiqlari bo'yicha hisobga olishga kiritilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga tuzatish kiritiladi. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bo'yicha imtiyoz berilganligi munosabati bilan soliq solinmaydigan oborotlar yuzaga kelgan soliq to'lovchilarga ham tuzatish kiritishning shunga o'xhash tartibi tatbiq etiladi.

Olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati o'zgarganda sotib oluvchi ilgari hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga tegishli tarzda tuzatish kiritadi.

Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga tuzatish kiritish tegishli soliq davrida amalga oshiriladi.

Soliq solinmaydigan oborot uchun foydalaniladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha mahsulot yetkazib beruvchilarga va import bo'yicha to'lanishi lozim bo'lган (to'langan) qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinmaydi, balki ushbu tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymatida hisobga olinadi.

Soliq solinadigan va soliq solinmaydigan oborot mavjud bo'lгanda soliq solinadigan oborotga, shu jumladan nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborotga, shuningdek yuridik shaxsning o'z ehtiyojlari uchun (xarajatlar sifatida qaraladigan) oborotga to'g'ri keladigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi hisobga olinadi.

Hisobga olinadigan summa qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchining tanloviiga binoan alohida-alohida va mutanosib usulda aniqlanadi.

Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini aniqlashning tanlangan usuli kalender yil mobaynida o'zgartirilishi mumkin emas.

Mutanosib usul qo'llanilganda hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi soliq solinadigan oborotning umumiy oborot summasidagi ulushidan kelib chiqib aniqlanadi.

Alohida-alohida usul qo'llanilganda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan oborot maqsadlarida foydalanish uchun olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yuzasidan xarajatlar hamda qo'shilgan qiymat solig'i summalar bo'yicha alohida-alohida hisob yuritadi. Bunda alohida-alohida hisobni yuritish imkonni bo'lмаган umumiy xarajatlar bo'yicha xarajatlarni taqsimlash mutanosib usulda amalga oshiriladi.

#### **5.4. Hisobvaraq – fakturani yuritish tartibi**

Hisobvaraq-faktura qat'iy hisobot hujjati bo'lib, unda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

- 1) hisobvaraq-fakturaning tartib raqami va yozib berilgan sanasi;
- 2) hisobvaraq-faktura ilova qilinadigan tovar jo'natish hujjatlarining yoki shartnomaning raqami va sanasi;
- 3) soliq to'lovchining va tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib oluvchining nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) hamda identifikatsiya raqami;
- 4) realizatsiya qilingan tovarlarning, bajarilgan ishlarning, ko'rsatilgan xizmatlarning nomi va o'lchov birlklari (ularni ko'rsatishning imkoniyati bo'lsa);
- 5) o'lchov birligidan (ularni ko'rsatishning imkoniyati bo'lsa) kelib chiqqan holda realizatsiya qilingan tovarlarning, bajarilgan ishlarning, ko'rsatilgan xizmatlarning hisobvaraq-faktura bo'yicha soni (hajmi);
- 6) shartnoma (kontrakt) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olmagan holda, qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga oladigan davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar (tariflar) qo'llanilgan taqdirda esa, soliq summasini hisobga olgan holda o'lchov birligiga to'g'ri keladigan narx (tarif);
- 7) realizatsiya qilinayotgan tovarlar, bajarilayotgan ishlar, ko'rsatilayotgan xizmatlar jami sonining (hajmining) qo'shilgan qiymat solig'isiz qiymati;
- 8) aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aktsiz solig'inining stavkasi va summasi;

9) tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) sotib oluvchisiga taqdim etilayotgan qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi va summasi;

10) realizatsiya qilingan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar jami sonining (hajmining) aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aktsiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olingan qiymati.

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan oborotni va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan oborotni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar, shuningdek qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lмаган yuridik shaxslar tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) oluvchi shaxsga hisobvaraq-faktura taqdim etishlari shart, quyidagi hollar bundan mustasno:

1) yo'lovchilar tashishni yo'l chiptalari bilan rasmiylashtirish;

2) tovarlar (ishlar, xizmatlar) aholiga naqd pulda realizatsiya qilingan hollarda sotib oluvchiga fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasi cheki, terminal cheki, kvitantsiya berish;

3) tovarlarning eksport-import tarzida yetkazib berilishini rasmiylashtirish;

4) qabul qilib olish-topshirish dalolatnomasi rasmiylashtiriladigan moliyaviy ijara (shu jumladan lizing) shartnomasi bo'yicha mol-mulkni topshirish. Bunda tegishli hujjatlar (moliyaviy ijara shartnomasining tarkibiy qismi bo'lgan ijara (lizing) to'lovleri jadvali; hisobvaraq; ijaraga (lizingga) oluvchiga ijara (lizing) to'lovlarini to'lash uchun yuborilgan yozma bildirish va shu kabilalar bilan rasmiylashtirilgan har bir ijara (lizing) to'loviga ham hisobvaraq-faktura yozilmaydi;

5) bank operatsiyalarini mijozning shaxsiy hisobvarag'idan ko'chirma berish orqali rasmiylashtirish;

6) sug'urta xizmatlarini kafillik shartnomasi va sug'urta polisi orqali rasmiylashtirish;

7) ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan ma'lumotlar mavjud bo'lgan taqdirda, ishlarni (xizmatlarni) haqiqatda mazkur ishlar bajarilganligini (xizmatlar ko'rsatilganligini) tasdiqlovchi hujjatlar bilan rasmiylashtirish.

Yuqorida ko'rsatilgan hujjatlar hisobvaraq-faktura o'rnini bosadigan hujjatlardir.

Kelgusida tovarlarni yetkazib berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish uchun oldindan to'langan haq (bo'nak) yozilgan hisobvaraq hisobvaraq-faktura bo'lmaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lмаган, shuningdek qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod qilingan oborotni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar hisobvaraq-fakturada qo'shilgan qiymat solig'i summasini ko'rsatmaydilar hamda «qo'shilgan qiymat solig'isiz» degan shtamp bosadi (yozib qo'yadi).

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi uchun hisobvaraq-faktura qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olish uchun asos bo'ladi.

Hisobvaraq-faktura tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanada yoziladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan elektr energiyasi, suv, gaz, aloqa xizmatlari, kommunal xizmatlar, temir yo'lda tashishlar, transport-ekspeditorlik xizmati, bank operatsiyalari, shuningdek tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) uzluksiz yetkazib berishni amalga oshirayotgan soliq to'lovchilar hisobot davrining oxirgi kunida bir marta hisobvaraq-faktura yozadi.

Hisobvaraq-fakturada tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati va qo'shilgan qiymat solig'i summasi milliy valyutada ko'rsatiladi.

Tuzilgan shartnomalarning shartlariga binoan tovarlariga, ishlari va xizmatlariga narxlar (tariflar) chet el valyutasida belgilanadigan yuridik shaxslar hisobvaraq-fakturalarni chet el valyutasida yozib, ayni bir vaqtda uni hisobvaraq-faktura yozib berilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha qayta hisoblagan holda milliy valyutada ifodalaydi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchi soliq solinadigan bazaga uni ko'paytirishga (kamaytirishga) qaratilgan o'zgarish kiritgan taqdirda, mazkur tovarlar (ishlar, xizmatlar) oluvchisi tomonidan tasdiqlanadigan yangi hisobvaraq-faktura yozib beriladi. Yangi hisobvaraq-faktura «ilgari yozilgan hisobvaraq-faktura o'rniga» degan belgi bilan yozib beriladi.

Soliq to'lovchilar kelib tushgan va taqdim etilgan hisobvaraq-fakturalar reestrini yuritishlari shart.

Hisobvaraqturaning shakli hamda uni to’ldirish tartibi O’zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi va O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

### **5.5. QQSni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to’lash tartibi**

Hisobot davri quyidagilardir:

- qo’shilgan qiymat solig’i to’laydigan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun — yil choragi;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to’lovchilar uchun — bir oy.

Soliq solinadigan oborotlar bo’yicha qo’shilgan qiymat solig’i soliq solinadigan baza va belgilangan 20 va 0 stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Byudjetga to’lanishi lozim bo’lgan qo’shilgan qiymat solig’i soliq solinadigan oborot bo’yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan hisobga olinadigan soliq summasi o’rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Tovarlarni import qilish bo’yicha qo’shilgan qiymat solig’ining summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Qo’shilgan qiymat solig’ining hisob-kitobi soliq bo’yicha hisobda turgan joydagи davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan:

- qo’shilgan qiymat solig’i to’lovchisi bo’lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo’yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshirilgan muddatda;

- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to’lovchilar tomonidan — har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo’yicha esa — yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Qo’shilgan qiymat solig’ining hisob-kitoblari bilan bir vaqtida soliq davri mobaynida olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo’yicha hisobvaraqturanalar reestri taqdim etiladi. Hisobvaraqturanalar reestrining shakli O’zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi tomonidan belgilanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini byudjetga to'lash qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitoblarini taqdim etish uchun belgilangan kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini byudjetga to'lash bojaxona rasmiylashtiruviga qadar yoki bojaxona rasmiylashtiruvi vaqtida amalga oshiriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha to'langan summasi soliq to'lovchining boshqa soliqlar bo'yicha qarzi bo'lмаган taqdirda soliq to'lovchiga qaytariladi.

Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining navbatdagi hisobot davri uchun hisoblab chiqarilgan soliq summasidan ortgan summasi, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha navbatdagi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi.

Nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborot hisobidan hosil bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha summasi davlat soliq xizmati organi soliq to'lovchining soliqni qaytarib berish to'g'risidagi yozma arizasini olgan paytdan e'tiboran o'ttiz kun ichida soliq to'lovchiga qaytariladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi qoplanadi;

- soliq to'lovchining boshqa soliqlar bo'yicha mavjud qarzi qoplanadi;

- nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborot uchun foydalilanilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga tegishli qismi bo'yicha soliq to'lovchining bank hisobvarag'iga pul mablag'lari o'tkaziladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i summasini pul mablag'larini bank hisobvarag'iga o'tkazish yo'li bilan soliq to'lovchiga qaytarish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchi qo'shilgan qiymat solig'i summasini qaytarish uchun soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi hujjatlarni yozma arizaga to'rt nusxada ilova etgan holda taqdim etadi:

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha yuridik shaxs qarzlarining solishtiruv dalolatnomasi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzlarning solishtiruv dalolatnomasi hisobot oyidan keyingi oyning 15-kuniga qadar tuziladi va bir kalendar oy mobaynida amal qiladi;

- qo'shilgan qiymat solig'inining hisob-kitobi;

- agar yuridik shaxsga ilgari qo'shilgan qiymat solig'i qaytarib berilgan bo'lsa, qaytarilgan summalar va qaytarib berish sanasi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Soliq to'lovchilar yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarga qo'shimcha ravishda quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

1) tovarlarni eksport qilishni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar —hujjatlarning nusxalarini;

2) chet el diplomatik vakolatxonalar hamda ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga rasmiy foydalanish uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilayotgan yuridik shaxslar — belgilangan shaklda rasmiylashtirilgan hisobvaraq-fakturalarning nusxalarini;

3) «bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha ishlar bajarayotgan, xizmatlar ko'rsatayotgan, shuningdek chet el yuklarini O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tashish (tranzit tashish) bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan yuridik shaxslar:

- ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish uchun tuzilgan kontraktning nusxasini;

- bajarilgan ishlarga, ko'rsatilgan xizmatlarga chet ellik sotib oluvchi (to'lovchi) tomonidan haq to'langanligini tasdiqlovchi bank ko'chirmasi nusxasini;

- ishlarni (xizmatlarni) sotuvchi va sotib oluvchi tomonidan imzolangan ishlar bajarilganligini (xizmatlar ko'rsatilganligini) tasdiqlovchi hujjat nusxasini;

4) aholiga suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti, gaz ta'minoti bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan yuridik shaxslar — nol darajali stavka qo'llanganligini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalarini.

Qo'shilgan qiymat solig'i summasini qaytarish to'g'risidagi yozma arizani ko'rib chiqish hamda mablag'larni soliq to'lovchining hisobvarag'iga o'tkazish tartibi O'zbekiston

Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Misol: "Uzneftmahsulot" aktsiyadorlik kompaniyasi korxonalarini tomonidan 2006 yilda byudjetga 61 059 400 ming so'm qo'shilgan qiymat solig'i to'langan bo'lsa, 2007 yil bu ko'rsatgich 83 239 887 ming so'mni tashkil etgan yoki 2006 yilga nisbatan 36 foizga QQS oshgani ma'lum bo'ldi. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisob-kitob 2007 yil uchun quyidagi jadvalda keltirilgan.

20-jadval

**Qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobi  
("Uzneftmahsulot" AK bo'yicha 2007 yil uchun)**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa ming so'mda
1	2	3
Hisobot davrida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) summasi	010	23 625 104
Avvalgi soliq davrida eksportga realizatsiya qilingan tovarlar bo'yicha tushum joriy soliq davrida kelib tushishi munosabati bilan hisobga olinadigan QQS summasi	020	-
Hisobga olinadigan jami QQS summasi (010-satr + 020-satr)	030	23 625 104
Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti bo'yicha QQS summasi	040	106 864 991
Byudjetga to'lanadigan (kamaytiriladigan) QQS summasi (040-satr - 030-satr)	050	83 239 887

Manba: "Uzneftmahsulot" aktsiyadorlik kompaniyasi ma'lumoti.

### **Qisqacha xulosalar**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining tadrijiy rivojlanish jarayonlarida soliq solish tartibi va soliq munosabatlari uzlucksiz ravishda o'zining takomillashish tavсifiga ega bo'lган. Soliq munosabatlari tizimini bugungi soliq islohatlari talablari darajasida yanada samaraliroq tashkil etish va amalga oshirish, soliq sub'ektlari tomonidan

undagi ayrim elementlar mexanizmini maqbul tartiblar asosida qabul qilish zaruriyatini ko'rsatadi.

Soliq munosabatlaridagi muhim soliq solish elementlari mexanizmidan biri, bu qo'shilgan qiymat solig'iga tortish mexanizmidir. Qo'shilgan qiymat solig'iga tortish mexanizmining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun soliq sub'ektlarining soliq qonunchiligi tartiblariga to'liq rioya qilgan holda faoliyat ko'rsatishlarini talab etadi.

### **Nazorat qilish bo'yicha savollar:**

1. Qo'shilgan qiymat va qo'shilgan qiymat solig'ininng iqtisodiy mohiyati nimada?
2. QQS ni qanday shaxslar to'laydi va soliq ob'ekti nima?
3. Soliqqa tortiladigan oborot qanday aniqlanadi?
4. QQS stavkalari va ularni qo'llash tartibi qanday?
5. Qanday yuridik shaxslar QQSdan ozod etiladi? Qanday tovarlar va mahsulotlar (ishlar xizmatlar) QQSdan ozod bo'ladi?
6. Schyot-fakturalarning to'lg'azilish tartibi qanday?
7. Byujetga to'lanadigan va hisobga olinadigan QQS summasini aniqlash tartibi qanday?
8. QQSni to'lash va hisobotni taqdim etish muddatlari qanday?
9. Import tovarlar, ishlar va xizmatlar bo'yicha QQSni hisoblash va byudjetga to'lash tartibi qanday?
10. Evropa davlatlari amaliyotida QQSni hisoblashning qanday usullari mavjud?
11. QQS bo'yicha nollik stavka nima maqsadda qo'llaniladi va uning qo'llanilish tartibi qanday?

## **VI – bob.**

### **Aktsiz solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibini takomillashtirish masalalari**

#### **6.1. Aktsiz solig'ini iqtisodiy mohiyati va uning hisoblash mexanizmi**

Korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan aktsizosti mahsulotlarga aktsiz solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash mexanizmi bilan tanishib chiqamiz.

Quyidagi operatsiyalar aktsiz solig'i solinadigan ob'ekt hisoblanadi:<sup>11</sup>

1) aktsiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan:

- tovarki sotish (jo'natish);

- garov bilan ta'minlangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo'yilgan aktsiz to'lanadigan tovarlarni garovga qo'yuvchi tomonidan topshirish;

- aktsiz to'lanadigan tovarlarni bepul topshirish;

- aktsiz to'lanadigan tovarlarni ish beruvchi tomonidan ish haqi hisobiga yollangan xodimga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda topshirish yoki hisoblangan dividendlar hisobiga yuridik shaxsning muassisiga topshirish;

- aktsiz to'lanadigan tovarlarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tovarlarga ayriboshlash uchun topshirish;

2) aktsiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga hissa yoki pay badali tariqasida topshirish;

3) aktsiz to'lanadigan tovarlarni ulush qo'shish asosida qayta ishslashga topshirish, shuningdek ulush qo'shish asosida xom ashyo va materiallarni, shu jumladan aktsiz to'lanadigan xom ashyo va materiallarni qayta ishslash mahsuli bo'lган aktsiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi tomonidan qayta ishslashga berilgan xom ashyo va materiallarning mulkdoriga topshirish;

4) ishlab chiqarilgan va qazib olingan aktsiz to'lanadigan tovarlarni o'z ehtiyojlari uchun topshirish;

5) aktsiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilish.

Quyidagilarga aktsiz solig'i solinmaydi:

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi.-T.: «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami» nashriyoti, 2007 yil.

1) aktsiz to'lanadigan tovarlarni ularning ishlab chiqaruvchilari tomonidan eksportga realizatsiya qilishga;

2) tabiiy ofatlar, qurolli mojarolar, baxtsiz hodisalar yoki avariylar yuz berganda yordam ko'rsatish uchun, insonparvarlik yordami va beg'araz texnik ko'mak sifatida, shuningdek xayriya maqsadlari uchun aktsiz to'lanadigan tovarlarni davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilishga;

256-moddaga kiritilgan qo'shimcha ayrim turdag'i foydali qazilmalarga (tabiiy gaz) aktsiz solig'i solinishini hisobga olib barcha yer qa'ridan foydalanuvchilariga soliq solishda bir xillikni ta'minlash maqsadida aktsiz solig'i kiritildi.

Endi chet el investorlari va mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun soliq solish mexanizmi bir xil bo'lishi ta'minlandi hamda chet ellik investorlar uchun mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida mahalliy ishlab chiqaruvchilar kabi aktsiz solig'i to'lashi belgilandi.

Aktsiz to'lanadigan tovarlar oluvchiga jo'natilgan (topshirilgan) kun, aktsiz to'lanadigan tovarlarga doir soliq solinadigan operatsiyalar amalga oshirilgan sana hisoblanadi.

Import qilinayotgan aktsiz to'lanadigan tovarlar bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilgan sana ularga doir operatsiya amalga oshirilgan sanadir.

Aktsiz solig'inining stavkalari mutlaq summada (qat'iy) belgilangan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aktsiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmi asosida aniqlanadi.

Aktsiz solig'inining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan ishlab chiqarilayotgan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, realizatsiya qilingan aktsiz to'lanadigan tovarlarning aktsiz solig'i hamda qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Ish haqi hisobiga, hisoblab chiqarilgan dividendlar hisobiga, bepul yoki boshqa tovarlarga ayirboshlash uchun beriladigan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, shuningdek tovarlar tannarxidan past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda soliq to'lovchi tovarlarni topshirish paytida uning haqiqiy tannarxidan kam bo'lмаган darajada belgilaydigan narx asosida hisoblangan qiymat soliq solinadigan baza hisoblanadi.

Qayta ishslashga berilgan xom ashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aktsiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini hamda qayta ishslashga berilgan xom ashyo va materiallar qiymatini o'z ichiga oladi.

Aktsiz solig'inining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan import qilinayotgan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan bojxona qiymati asosida belgilanadi.

Soliq solinadigan bazaga quyidagi hollarda soliq to'lovchida tuzatish kiritiladi:

- tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;
- bitim shartlari o'zgartirilganda;
- baholar o'zgarganda, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan) foydalanganda.

Soliq solinadigan bazaga tuzatishni kiritish bir yillik muddat doirasida, kafolat muddati belgilangan tovarlar bo'yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish yangi hisobvaraq - faktura yoki ko'rsatilgan hol yuz bergenligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Aktsiz to'lanadigan tovarlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi.

Aktsiz solig'ini hisoblab chiqarish aniqlangan soliq solinadigan bazadan va aktsiz solig'inining belgilangan stavkalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Hisoblab chiqarilgan aktsiz solig'inining summasi belgilangan chegirma summasiga kamaytiriladi.

Aktsiz to'lanadigan tovarlar olinayotganda yoki O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilinayotganda, agar mazkur tovarlardan keyinchalik aktsiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida foydalanilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida to'langan aktsiz solig'i summasi chegirib tashlanadi.

Aktsiz to'lanadigan tovar (xom ashyo) yetkazib beruvchilar mazkur tovar (xom ashyo) bo'yicha aktsiz solig'i summasini hisobvaraq-fakturada ajratib ko'rsatishlari kerak. Olinayotgan aktsiz to'lanadigan tovar (xom ashyo) bo'yicha aktsiz solig'i

summasi hisobvaraq-fakturada ajratib ko'rsatilmagan bo'lsa, aktsiz solig'inining mazkur summasi chegirib tashlanmaydi.

Chegirma soliq davrida realizatsiya qilingan aktsiz to'lanadigan tovarlar hajmiga to'g'ri keladigan aktsiz to'lanadigan tovar (xom ashyo) hajmidan kelib chiqqan holda aniqlangan aktsiz solig'inining hisobvaraq-fakturada yoki bojxona yuk deklaratsiyasida ko'rsatilgan summasiga nisbatan amalga oshiriladi.

Qayta ishslashga berilgan xom ashyo va materiallardan tayyorlangan aktsiz to'lanadigan tovarlar topshirilayotganda ham qayta ishslashga berilgan aktsiz to'lanadigan xom ashyo va materiallarning mulkdori aktsiz solig'i to'laganligini tasdiqlashi sharti bilan qo'llaniladi.

Aktsiz to'lanadigan tovarlar eksportini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilardir:

- eksport qilinadigan aktsiz to'lanadigan tovarlarni yetkazib berish uchun tuzilgan kontrakt;
- tovarlarni eksport rejimida chiqarishni amalga oshiruvchi bojxona organining belgisi qo'yilgan bojxona yuk deklaratsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidagi o'tkazish punktida joylashgan bojxona organining tovarlar tayinlangan mamlakatga jo'natilganligini tasdiqlovchi belgisi qo'yilgan tovarga ilova qilinadigan hujjatlar.

## 6.2. Aktsiz solig'i stavkalari

Aktsiz solig'i stavkalari tovarning qiymatiga nisbatan foizlarda (advalor) va (yoki) naturada ifodalangan o'lchov birligiga mutlaq summada (qat'iy) belgilanadi.

21-jadval

Aktsiz solig'iga tortiladigan tovarlar turlarining yillar bo'yicha qiskarishi haqida ma'lumot

Yillar	Aktsizosti tovarlari turlarining soni
2001	28
2002	27
2003	26
2004	22
2005	22

2006	19
2007	19
2008	13
2009	14

Manba: O'zR. Davlat statistika qumitasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi.

### 22-jadval

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan aktsizosti tovarlarga nisbatan aktsiz solig'i stavkalari (2009 yil 1 yanvardan)

Tovarlar nomi	Soliq stavkasi aktsiz solig'i va QQSni hisobga olmagan holda sotilgan tovarlar qiymatiga nisbatan foizlarda	bir o'lchov birligig a so'mlar da
1. Etil spirti (1 dal uchun)		1410
2. Vino (1 dal tayyor mahsulot uchun)		3300*
3. Konyak, aroq va boshqa alkogolli mahsulotlar (1 dal tayyor mahsulot uchun)		12430 *
4. Pivo (1 dal tayyor mahsulot uchun)		1500
5. O'simlik (paxta) yog'i (1 tonna uchun) : oziq-ovqat yog'i (salomac ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan yog' va "O'zbekiston" yog'idan tashqari);		544 500 **
texnik moy (kislota miqdori 0,3 mg KON/g dan yuqori, oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga qo'shishga yaroqsiz bo'lган)		361 900
6. Sigaretalar (1 ming dona uchun) :		
Filtrli		5 727
filtrsiz, papiroslar		1 919
7. Zargarlik buyumlari	25	
8. "GM O'zbekiston" AJ ishlab chiqargan avtomobillar	29	
9. Kumushdan ishlangan oshxona anjomlari	11	
10. Qimmatbaho metallar		
11. Neft mahsulotlari		

Ai-80 benzini	40%, lekin tonnasiga 221000 so'mdan kam emas	
Ai-91, Ai-92, Ai-93 benzini	40%, lekin tonnasiga 243000 so'mdan kam emas	
Ai-95 benzini	40%, lekin tonnasiga 281000 so'mdan kam emas	
dizel yoqilg'isi	34%, lekin tonnasiga 188000 so'mdan kam emas	
aviakerosin	9%, lekin tonnasiga 38000 so'mdan kam emas	
12. Tabiiy gaz (aholiga sotiladigan tabiiy gaz hajmlaridan tashqari)	25	
13. Ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan sotiladigan suyultirilgan gaz ("O'ztransgaz" AK mintaqalararo unitar korxonalari tomonidan aholiga sotiladigan gaz hajmi bundan mustasno), shu jumladan eksport	26	
14. Paxta tolasi		

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrdagi PQ-1024-son qarori

\*) a) Basharti aktsiz solig'i prognozlari bajarilsa hamda unga doir boqimondalar mavjud bo'lmasa, qonun hujjatlariga muvofiq aktsiz solig'i summasi quyidagi miqdorlarda "O'zvinsanoat-xolding" xolding kompaniyasini rekonstruktsiya qilish va rivojlantirish fondi hisobraqamiga yo'naltiradi:

- vinoga belgilangan stavkadan 410 so'm (1 dal tayyor mahsulot uchun);

- konyak, aroq va boshqa alkogolli mahsulotlarga belgilangan stavkadan 710 so'm (1 dal tayyor mahsulot uchun);

b) Hajmiy ulushda etil spirti 40 foizdan ko'p bo'lgan konyak, aroq va boshqa alkogolli mahsulotlarga aktsiz solig'i stavkasi 1 dal tayyor mahsulot uchun 20482 so'm miqdorida belgilanadi.

\*\*) Aktsiz solig'i Davlat byudjetiga 1 tonna uchun 517 275 so'mlik stavka bo'yicha, qolgan qismi esa - Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tasdiqlagan Nizomga muvofiq Yog'-moy va oziq-ovqat sanoati uyushmasining maxsus hisobraqamiga o'tkaziladi.

Qat'iy miqdorlarda belgilangan aktsiz solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan narxlarning dinamikasi hamda mahsulotning sotilishi hajmidan kelib chiqqan holda yil mobaynida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

"GM O'zbekiston" AJ avtomobilari, tabiiy va suyultirilgan gaz, shuningdek qimmatbaho metallarga aktsiz solig'ini to'lovchilari va uni to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

### **6.3. Aktsiz solig'i bo'yicha hisob-kitobni taqdim etish tartibi**

Soliq davri quyidagilardir:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun – yil choragi;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun – bir oy.

Aktsiz solig'inining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

- aktsiz solig'i to'lovchilar bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;

- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan – har oyda soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Hisoblab chiqarilgan aktsiz solig'i summasi byudjetga quyidagi muddatlarda to'lanadi:

- joriy oyning 13-kunidan kechiktirmay – joriy oyning birinchi o'n kunligi uchun;
- joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay – joriy oyning ikkinchi o'n kunligi uchun;
- kelgusi oyning 3-kunidan kechiktirmay – hisobot oyining qolgan kunlari uchun.

Import qilinadigan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aktsiz solig'i tovarlarning bojxona rasmiylashtiruviga qadar yoki bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida import qiluvchi tomonidan to'lanadi.

Aktsiz markalari bilan tamg'alanishi lozim bo'lган import qilinadigan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aktsiz solig'i aktsiz markalari olinguniga qadar to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan, shuningdek uning bojxona hududiga import qilinadigan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aktsiz markalari bilan tamg'alanishi shart.

## **Qisqacha xulosalar**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, soliqqa tortish tizimiga ko'ra aktsiz solig'i bilvosita soliqlardan hisoblanib, mahsulot, tovar bahosi tarifiga ustama shaklda qo'yilib, iste'mol mahsulotining bahosining yuqori bo'lishiga narx-navoni o'sishiga bevosita ta'sir etadi. Aktsizlar - tovarlar uchun qo'yiladigan bilvosita soliqlarning bir turi bo'lib, qo'shilgan qiymat solig'idan farqli ma'lum bir chegaralangan tur va guruhdagi mahsulotlarning narxiga qo'shiladi. Aktsizlar qadimda barcha davlatlar byudjeti daromadlarini shakllantirishda munosib hissa qo'shib kelgan. Chunki aktsizlar orqali davlat zarurati uchun zarur bo'lган moliyaviy mablag'lar tez va oddiy soliqqa tortish mexanizmi orqali undirish imkoniyati mavjud bo'lган.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida aktsizlar davlat moliyaviy resurslarining shakllanib borishida asosiy o'rinn tutadi. Alovida tovarlardan aktsiz solig'ini undirish zarurligi ulardan davlat byudjetini daromadlarini shakllantirishning qo'shimcha manbai sifatida foydalanishdan tashqari, alovida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish uchun zarurligidir.

Bilvosita soliqlar xususan, aktsiz solig'i davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy soliqlardan bir bo'lib, davlat byudjeti daromadlari tarkibida eng yuqori soliq tushumlari ushbu soliqlardan tashkil topadi.

### **Nazorat qilish bo'yicha savollar:**

1. Aktsiz tushunchasining mohiyati nimadan iborat?
2. Aktsiz solig'ining iqtisodiy mohiyatini tushuntirib bering.
3. Aktsiz osti tovarlarini aniqlash mezonlari qanday?
4. Aktsiz solig'i ob'ekti nimalardan iborat?
5. Aktsiz solig'i stavkalari qanday?
6. Aktsiz solig'i qanday hisoblanadi?
7. Aktsiz solig'ini hisobga olish tartibi qanday?
8. Aktsiz solig'i hisobini taqdim etish va soliqni to'lash muddatlari qanday?
9. Aktsiz markalarini rasmiylashtirish qanday?
10. Xom-ashyodan tayyorlangan mahsulotlardan aktsiz solig'ini undirish tartibi qanday?

## VII- bob.

### **Resurslardan samarali foydalanishda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va maxsus to'lovlarning ahamiyati**

#### **7.1. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va maxsus to'lovlarning iqtisodiy mohiyati va ularni hisoblash mexanizmi**

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan o'rnatilgan yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlarni hisoblash va byudjetga to'lash mexanizmi bilan tanishib chiqamiz.

Yangi qabul qilingan Soliq Kodeksining IX bo'limida yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlarni mexanizmi keng yoritilgan.<sup>12</sup>

O'zbekiston Respublikasi hududida konlarni aniqlash va qidirish, foydali qazilmalarni kovlab olish, shu jumladan texnogen mineral hosilalardan foydali qazilmalarni ajratib olishni amalga oshirayotgan va foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida yer qa'ridan foydalanuvchilar hisoblanadi.

Yer qa'ridan foydalanuvchilar quyidagi soliqlar va maxsus to'lovlarni to'laydilar:

- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- qo'shimcha foyda solig'i;
- bonus (imzoli va tijoratbop topilma bonuslar).

Kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning hajmi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish ob'ekti. Tayyor mahsulotlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlangan.<sup>13</sup>

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi belgilangan va realizatsiya qilish yoki topshirish, shu jumladan bepul berish, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish maqsadida o'z iste'moli va boshqa ehtiyojlari uchun mo'ljallangan foydali qazilma (foydali komponent) tayyor mahsulot deb e'tirof etiladi.

Soliq solish ob'ekti tayyor mahsulotning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Uglevodorodlar uchun soliq solish ob'ekti quyidagilardir:

<sup>12</sup> Soliq Kodeksinin 242-254- moddalari

<sup>13</sup> 12.12.2007 y. ПК-744-sonli qarori

- sanoat yo'sinida dastlabki qayta ishlovdan o'tkazilgan kovlab olingan uglevodorodlar, shu jumladan qo'shilib chiqadigan foydali qazilmalar va foydali komponentlar;

- uglevodorodlarni qayta ishlash jarayonida ajratib olingan, lekin oldingi kovlab olinganda va qayta ishlanganda qayta ishlanadigan foydali qazilmalar tarkibida tayyor mahsulot sifatida soliq solinmagan foydali komponentlar.

Qatlamdagi bosimni saqlab turish va gaz kondensatini tugal texnologik jarayon doirasida ajratib olish uchun mahsuldor qatlamga qayta haydab kiritiladigan tabiiy gaz hajmi soliq solish ob'ekti bo'lmaydi.

Ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, shu jumladan texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar uchun soliq solish ob'ektidir.

Quyidagilar qattiq foydali qazilmalar bo'yicha soliq solish ob'ektidir:

- kovlab olingan va (yoki) ajratib olingan, shu jumladan texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan qattiq foydali qazilmalar;

- qayta ishlovchi korxonalar tomonidan qayta ishlash jarayonida ajratib olingan foydali qazilmalar.

Soliq to'lovchilarga berilgan yer uchastkalari doirasida kovlab olingan hamda o'zining xo'jalik va ro'zg'or ehtiyojlari uchun foydalanilgan keng tarqalgan foydali qazilmalar soliq solish ob'ekti bo'lmaydi.

Keng tarqalgan foydali qazilmalar ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish uchun kovlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot hajmining hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati soliq solinadigan baza hisoblanadi.

Hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi har bir kovlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot bo'yicha alohida, pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlarini (qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'ini chegirgan holda) naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Hisobot davrida tayyor mahsulot realizatsiya qilinmagan bo'lsa, soliq solinadigan baza realizatsiya qilish amalga oshirilgan oxirgi hisobot davrida tayyor mahsulotni realizatsiya qilishning o'rtacha olingan bahosidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tayyor mahsulot umuman realizatsiya qilinmagan taqdirda, soliq solinadigan baza hisobot davrida mazkur foydali qazilmalarni kovlab olishning (ajratib olishning) ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunda soliq to'lovchi realizatsiya qilish amalga oshirilgan o'sha hisobot davrida hisoblangan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasiga hisobot davrida tarkib topgan o'rtacha olingan bahodan kelib chiqqan holda keyingi tuzatishni kiritishi shart.

Tayyor mahsulot tannarxidan past bahoda realizatsiya qilingan yoki topshirilgan taqdirda o'rtacha olingan bahoni hisobkitob qilish uchun tannarx qabul qilinadi, lekin u deklaratsiya qilinayotgan baholardan yuqori bo'lmasligi kerak.

Tayyor mahsulot (tayyor mahsulotning bir qismi) boshqa tayyor mahsulotni ishlab chiqarish uchun xom ashyo bo'lган yoki tayyor mahsulot (qayta ishlab hosil qilingan mahsulot) o'zining ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalananilgan hollarda bunday mahsulot uchun soliq solinadigan baza kovlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

## 7.2. Yer qa'riidan foydalanganlik uchun soliq stavkalari

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

23-jadval

### Yer qa'riidan foydalanganlik uchun soliq stavkalari (2009 yil uchun)

Soliq solinadigan ob'ekt nomi	Soliq stavkasi, soliq solinadigan bazaga nisbatan
-------------------------------	--

	%da
1. Asosiy va qo'shimcha foydali qazilmalar qazib olinishi uchun	
Energiya manbalari:	
Tabiiy gaz	30,0
Yer ostidan qazib olingan gaz	2,6
Nostabil gaz kondensati	20,0
Neft	20,0
Ko'mir	3,8
<b>Rangli va noyob metallar:</b>	
Tozalangan mis	8,1
Molibdenli sanoat mahsuloti	1,3
Kontsentratlangan qo'rg'oshin	1,3
Metall rux	1,3
Volfram kontsentrati	10,4
<b>Asl metallar:</b>	
Oltin	5,0
Kumush	8,0
Qimmatbaho, yarim qimmatbaho va zeb-ziynat uchun toshlar xom ashyosi	24,0
<b>Qora metallar:</b>	
Temir	3,9
<b>Kon-kimyo xom ashyosi:</b>	
Tosh tuz (ovqatga ishlataladigan)	1,7
Kaliy tuzi	0,4
Natriy sulfat	0,4
Fosforitlar (grafitlarga)	4,8
Karbonat xom ashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar)	3,3
Glaukonit	3,3
Mineral pigmentlar	4,8
<b>Kon-ruda xom ashyosi:</b>	
Plavik shpatli kontsentrat	21,2
Tabiiy grafit	7,8
Ikkilamchi boyitilmagan kulrang kaolin	7,9
Kvarts-dala shpati xom ashyosi	6,5
Shisha xom ashyosi	1,8
Bentonitli loy	4,8

Talk va talk toshi	3,9
Talkomagnezit	3,9
Mineral bo'yoqlar	5,7
Vollostanit	3,9
Asbest	3,9
Mineral tola ishlab chiqarish uchun bazalt	2,3
Bariy kontsentrati	2,0
<b>Metallurgiya uchun noruda xom ashyo:</b>	
O'tga chidamli, qiyin eruvchan, qoliplash gilmoyasi	3,3
Ohaktoshlar, dolomitlar	3,9
Kvarts va kvartsitlar	6,5
Qoliplash qumlari	1,8
<b>Noruda qurilish materiallari:</b>	
Цемент xom ashyosi	2,0
Tabiiy bezaktoshdan bloklar	1,8
Marmar ushog'i	3,8
Gips toshi, ganch	5,3
Keramzit xom ashyosi	3,0
G'isht-cherepitsa xom ashyosi (qumoqsimon, lyossimon jinslar, zichlovchi sifatida lyosslar, qumlar va boshqalar)	3,1
Gips va angidrit	3,8
Arralanadigan, xarsangtosh va shag'al uchun toshlar	3,8
Qurilish qumlari	3,0
Tosh-shag'al aralashmasi, shag'al aralashmasi, mayda toshlar, shag'al	3,8
Qumtoshlar	1,6
Chig'anoq	3,8
Slanetslar	3,8
Agloporit	2,5
Boshqa keng tarqalgan foydali qazilmalar (margellar, argelitlar, amvritlar va boshqalar)	1,6
2. Foydali qazilmalarni qazib olish va mineral xom ashyoni qayta ishlash jarayonida olingan texnogen hosilalardan foydalanish huquqi uchun	Asosiy foydali qazilma boyligini qazib olganlik

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrdagi PQ-1024-son qaroriga 14-ilova

### **7.3. Maxsus to'lovchlarni undirish tartibi**

Qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar quyidagilar hisoblanadir:

- ayrim foydali qazilmalarni (foydali komponentlarni) kovlab olishni (ajratib olishni) amalga oshiruvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar;

- foydali qazilmalardan ishlab chiqariladigan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar.

Mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi.

Soliq to'lovchining hisobot davridagi daromadining bir qismi qo'shimcha foyda solig'ini solish ob'ektidir.

Soliq solinadigan baza qonun hujjatlarida belgilangan hisob-kitob bahosi bilan realizatsiya qilish bahosi o'rtaqidagi farq sifatida aniqlanadi.

Qo'shimcha foyda solig'i solinadigan foydali qazilmalar va mahsulot turlari ro'yxati, shuningdek soliqni hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Bonus yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan bir martalik to'lovdir.

Yer qa'ridan foydalanuvchi quyidagi turdag'i bonuslarni to'laydi:

- imzoli bonus;
- tijoratbop topilma bonusi.

Davlat boshqaruvi organlari bonuslar to'lamaydi.

Imzoli bonus yer qa'ridan foydalanuvchining tegishli litsenziya asosida foydali qazilmalarni aniqlash, qidirish va kovlab olish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun bir martalik qat'iy belgilangan to'lovdir.

Imzoli bonus litsenziya olingan kundan e'tiboran soliq to'lovchi tomonidan o'ttiz kundan kechiktirmay byudjetga

to'lanadi va bu haqda soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yozma shaklda xabar qilinadi.

Tijoratbop topilma bonusi tegishli litsenziyada ko'rsatilgan yer qa'ri uchastkasida foydali qazilma konlarining har bir tijoratbop topilmasi uchun, shu jumladan dastlabki belgilangan ajratib olinayotgan zaxiralarni ko'paytirishga olib keluvchi konlarni qo'shimcha qidirish o'tkazish chog'idagi foydali qazilmalar topilmasi uchun to'lanadigan to'lovdir.

Foydali qazilma konlarini keyinchalik ularni kovlab olishni nazarda tutmaydigan qidirish o'tkazishda tijoratbop topilma bonusi to'lanmaydi.

Vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan konda foydali qazilmalarning qazib olinadigan zaxiralari hajmi soliq solish ob'ektidir.

Foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymati soliq solinadigan bazadir. Foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymati vakolatli davlat organi belgilagan axborot manbalarining ma'lumotlariga ko'ra xalqaro birjada belgilangan birja bahosi bo'yicha hisoblab chiqiladi. Jahon bozorida narx mavjud bo'limgan taqdirda, qazib olinadigan foydali qazilmalarning qiymati vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Tijoratbop topilma bonusi soliq solinadigan bazadan va bonusning belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Mahsulot taqsimotiga oid bitim shartnoma bo'lib, bu shartnomaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi haq olish asosida hamda muayyan muddatga chet ellik investorga bitimda ko'rsatilgan yer qa'ri uchastkasida konlarni aniqlash, qidirish va foydali qazilmalarni kovlab olish uchun mutlaq huquqlar beradi.

Mahsulot taqsimotiga oid bitim quyidagilarni nazarda tutadi:

- hisob-kitob yuritish va hisobot berish tartibini;
- soliq va boshqa to'lovlarini to'lash shartlarini;
- chet ellik investorning ulushini olib chiqib ketish tartibini.

Chet ellik investor mahsulot taqsimotiga oid bitimning amal qilish muddati mobaynida quyidagilarni to'laydi:

1) foyda solig'i;

- 2) yer solig'i;
- 3) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 4) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar, bundan qo'shimcha foyda solig'i mustasno;
- 5) mehnat haqi fondidan ajratmalar.

Chet ellik investorga soliq solish quyidagi xususiyatlar inobatga olingan holda amalga oshiriladi:

1) foyda solig'i mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajarish chog'ida olingan daromad bo'yicha va faoliyatning boshqa turlari bo'yicha olingan daromad bo'yicha alohida-alohida to'lanadi. Mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajarish chog'ida olingan daromadlar yuzasidan foyda solig'i solish ob'ekti bitim shartlariga binoan chet ellik investorga tegishli bo'lган, chegirmalar qilinmagan holda foydaga qolgan mahsulotning qiymatidir;

2) chet ellik investor yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun quyidagi soliqlar va maxsus to'lovlar to'laydi:

- mahsulot taqsimotiga oid bitim tuzilganda va (yoki) muayyan natijaga erishilganda, bitim shartlariga muvofiq belgilangan bonuslar;

- mineral xom ashyni kovlab olish hajmiga yoki ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga nisbatan foizli nisbatda mahsulot taqsimotiga oid bitim shartlariga muvofiq belgilanadigan va pul shaklida yoki kovlab olingan mineral xom ashyoning bir qismi tarzida to'lanadigan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

3) atrof muhitni ifloslantirganlik uchun kompensatsiya to'lovleri qonun hujjalariiga muvofiq to'lanadi;

4) investorlarga va mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajarishda ishtirok etayotgan operatorlarga yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan beriladigan tovarlarga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi;

Agar yuridik shaxs maqomiga ega bo'lмаган yuridik shaxslar birlashmasi investor sifatida ish yuritayotgan bo'lsa, bunday birlashmaning ishtirokchilaridan biri yoki mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajaruvchi operator soliq majburiyatlarining bajaruvchisi bo'ladi. Bunda litsenziya olgan investor bir oylik muddatda davlat soliq xizmati organini mazkur

birlashmadan soliq majburiyatini bajaruvchi bo'lib qatnashadigan ishtirokchi to'g'risida yozma ravishda xabardor etishi shart.

### **Qisqacha xulosalar**

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq umumdavlat soliqlari tarkibida yangi soliq turlaridan bo'lib, atrof-muhitga etkaziladigan zarar oqibatlarni bartaraf etish maqsadida joriy etilgan. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq davlatning moliyaviy resurslarga bo'lган ehtiyojni qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan me'yorda va o'rnatilgan muddatda O'zbekiston Respublikasi hududida foydali qazilmalarni qazib olish, texnogen hosilalardan foydalanish, shuningdek chaqnoq toshlar xom ashyosi namunalari, paleontologik qoldiqlar va boshqa geologik kolleksiya materiallarini yig'ish bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to'lovlardir. Ushbu soliq turining davlat byudjetidagi ulushi yil sayin ko'payib borish tendentsiyasi kuzatilmoqda.

### **Nazorat qilish bo'yicha savollar:**

1. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishdan maqsad nimada?
2. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning byudjet daromadlaridagi hissasi qanday?
3. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning to'lovchilari kimlar?
4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari va soliqqa tortiladigan ob'ekt qanday aniqlanadi?
5. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to'lash tartibi qanday?

## VIII- bob.

### Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va byudjetga to'lash tartibini takomillashtirish masalalari

#### 8.1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni iqtisodiy mohiyati va uni hisoblash mexanizmi

Endi suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq undirish mexanizmi bilan tanishib chiqamiz.

Yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari soliq solish ob'ekti hisoblanadi.<sup>14</sup>

257-moddaga kiritilgan qo'shimcha asosida faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan va o'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi norezidentlar xuddi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi rezidentlar singari suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lashlari shartligi belgilab qo'yildi.

Suv resurslarining yer usti manbalariga quyidagilar kiradi: daryolar, ko'llar, suv omborlari, turli xil kanallar va hovuzlar, yer ustidagi boshqa suv havzalari hamda suv manbalari.

Suv resurslarining yer osti manbalariga artezian quduqlari va skvajinalar, vertikal va gorizontal drenaj tarmoqlari hamda boshqa inshootlar yordamida chiqazib olinadigan suvlar kiradi.

Foydalanilgan suvning hajmi soliq solinadigan bazadir.

Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi suvdan foydalanishning buxgalteriya (birlamchi) hisobga olish hujjatlarida aks ettirilgan suv o'lchagich asboblarining ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi.

Suvdan o'lchagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suvdan foydalanish limitlaridan, suv iste'molining texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda dovdaraxtlarni sug'orish normalaridan yoki ma'lumotlarning to'g'riliгини ta'minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida-alohida hisobini yuritadilar. Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan suv keladigan vodoprovod tarmoqlaridagi suvdan foydalanilgan

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi.-T.: «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami» nashriyoti, 2007 yil.

taqdirda, soliq solinadigan baza manbaning har bir turi bo'yicha alohida-alohida aniqlanadi. Suv yetkazib beruvchi yuridik shaxslar vodoprovod tarmog'iga suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan keladigan suv hajmlarining nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1 fevraliga qadar taqdim etishlari kerak. Davlat soliq xizmati organlari bu ma'lumotlarni soliq to'lovchilar e'tiboriga etkazishi lozim.

Soliq to'lovchi issiq suv hamda bug' hosil qilinishi bo'yicha soliq solinadigan bazani ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun o'zi foydalangan suv resurslari hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Binolarning bir qismi, alohida joylar ijaraga topshirilganda soliq solinadigan baza suv yetkazib beruvchi yuridik shaxs bilan shartnomaga tuzgan ijaraga beruvchi tomonidan aniqlanadi.

Binolarning bir qismini, alohida joylarni ijaraga olgan va suv yetkazib beruvchi yuridik shaxs bilan shartnomaga tuzgan yuridik shaxslar soliq solinadigan bazani mustaqil ravishda aniqlaydi.

Soliq to'lovchilar yuridik shaxslar bilan suv yetkazib berilishi yuzasidan solishtirib ko'rish jarayonida olingan suvning hajmini aniqlashtirishda suv hajmi farqini solishtiruv amalga oshirilgan davrdagi hisob-kitoblarda aks ettiradi.

Yuridik shaxslarning hududida ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajaruvchi soliq to'lovchilar bu ishlarni bajarish jarayonida foydalananiladigan suv uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lamaydi. Ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajarayotganda foydalananiladigan suv hajmi uchun bu ishlar qaysi yuridik shaxslar uchun bajarilayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydi. Qurilish ishlari yangi qurilish maydonida bajarilgan taqdirda, qurilishda foydalananiladigan suv hajmi uchun qurilish tashkiloti suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) suv uchun byudjetga soliq o'tkazgan yuridik shaxslardan suv olgan iste'molchilar;

2) birlamchi foydalananilgan suv uchun to'lov amalga oshirilgan suvdan ikkilamchi foydalanuvchi suv iste'molchilar;

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarishda soliq solinadigan baza quyidagi hajmlarga kamaytiriladi:

1) atrof muhitga zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olish maqsadida chiqazib olinadigan yer osti suvlari hajmiga, ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi bundan mustasno;

2) shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish vaqtida chiqazib olingan va qatlAMDAGI bosimni saqlab turish uchun yer qa'rige qaytarib quyiladigan yer osti suvlari hajmiga, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

3) gidroelektr stantsiyalari gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv hajmiga;

## **8.2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari**

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

24-jadval  
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari (2009 yil uchun)

To'lovchilar	stavka 1 kub metr uchun (so'm)	
	Yer osti suv resurslari manbalari	Yer osti suv resurslari manbalari
1. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (2-4-bandlarda ko'rsatilganlaridan tashqari)	21,6	27,5
2. Elektrostantsiyalar	6,3	9,3
3. Kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari	11,9	15,4
4. Yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari, dehqon xo'jaliklari (yuridik va jismoniy shaxslar) hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida suvdan foydalanadigan	1,1	1,3

### **8.3. Hisobot taqdim etish va to'lash muddatlari**

Hisobot davri quyidagilardir:

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan solig'inining umumiyligi summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining ellik baravaridan ko'pni tashkil etadigan yuridik shaxslar (mikrofirmalar va kichik korxonalardan tashqari) uchun — bir oy;

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan solig'inining umumiyligi summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining ellik baravaridan kamni tashkil etadigan yuridik shaxslar, shuningdek mikrofirmalar va kichik korxonalar hamda yakka tartibdagi tadbirdorlar uchun — yil choragi;

- qishloq xo'jaligi korxonalari va yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari uchun — kalender yil.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning hisobkitobi suvdan foydalanish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

1) suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliqning umumiyligi summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining ellik baravaridan ko'pni tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan (qishloq xo'jaligi korxonalari, mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno) — har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunigacha;

2) suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliqning umumiyligi summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining ellik baravaridan kamni tashkil etadigan yuridik shaxslar, shuningdek mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida, yilning hisobot choragidan

keyingi oyning 25-kunigacha, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

3) yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan — yilda bir marta hisobot davrining 15 dekabrigacha;

4) yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — yilning har choragida yilning hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunigacha.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklariga davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisobot davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay topshiriladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lashni to'lovchilar tomonidan suvdan foydalanish joyida hisob-kitob taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash yiliga bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 may oyigacha amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslar joriy yilning 15 yanvarigacha suvdan foydalanish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash to'g'risidagi yozma bildirishni belgilangan limitdan kelib chiqqan holda yoki suv yetkazib berish shartnomasiga muvofiq har oyda yoki yilning har choragida erkin shaklda taqdim etadilar.

### **Qisqacha xulosalar**

Suv resurslari mamlakatimizning katta boyligi hisoblanib, undan samarali foydalanish har bir O'zbekiston Respublikasi fuqarosining burchi hisoblanadi. Shuning uchun suv resurslaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash mexanizmi qanchalik mukammal bo'lmasin uni suv tanqisligi sharoitida qayta ko'rib chiqish zarurdir. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni belgilashda soliq to'lovchilarni iqtisodiy holati va hududiy joylashishiga qarab o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda belgilash lozim.

## **Nazorat qilish uchun savollar**

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishdan maqsad nimada?
2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilari kimlar hisoblanadi?
3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning byudjet daromadlaridagi hissasi qanday?
4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari qanday va soliqqa tortiladigan ob'ekt nima?
5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig'ini hisoblash va to'lash tartibi qanday?

## **IX- bob. Davlat boji**

### **9.1. Davlat boji to'lovchilari va uni undiruvchi vakolatli organlar**

Soliq Kodeksining XVII bo'limida davlat bojini hisoblash va undirish tartibi keltirilgan bo'lib, unga ko'ra, davlat boji yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va mansabdar shaxslar tomonidan hujjatlar bergenlik uchun olinadigan majburiy to'lov hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalari tomonidan konsullik harakatlarini amalga oshirganlik uchun davlat boji konsullik yig'imi tariqasida undiriladi.

Davlat bojining stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. (3 noyabr 1994 yil 533-sonli qarori va unga kiritilgan qo'shimcha o'zgartirishlar).

Yuridik ahamiyatga molik harakatlar amalga oshirilishi va hujjatlar berilishi xususida vakolatli muassasalar va mansabdar shaxslarga murojaat qilayotgan yuridik va jismoniy shaxslar davlat bojini to'lovchilardir.

Davlat boji quyidagilardan undiriladi:

1) sudlarga beriladigan da'vo arizalaridan, organlarning va ular mansabdar shaxslarining harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlardan, alohida tartibda yuritiladigan ishlarga doir arizalardan, sudlarning qarorlari ustidan beriladigan apellyatsiya, kassatsiya shikoyatlaridan va arizalaridan, nazorat tartibida protest keltirish to'g'risidagi shikoyatlar va arizalardan, hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi arizalardan, hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizalardan, shuningdek sudlar tomonidan hujjatlarning nuxalarini bergenlik uchun;

2) da'vo arizalaridan, tashkilotlarni va fuqarolarni bankrot deb topish to'g'risidagi arizalardan, nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablarni bildirgan uchinchi shaxs sifatida ishga kirishish to'g'risidagi arizalardan, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi arizalardan, xo'jalik sudining qarorlari, ish yuritishni tugatish to'g'risidagi ajrimi ustidan berilgan, da'veoni ko'rmasdan qoldirish to'g'risidagi, sud

jarimalarini solish to'g'risidagi apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlaridan, hakamlik sudining qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi, hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizalardan, xo'jalik sudining hakamlik sudi qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi, shuningdek hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish to'g'risidagi va ijro varaqasini berishni rad etish to'g'risidagi ishlar bo'yicha ajrimlari ustidan berilgan apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlaridan;

3) davlat notarial idoralari, O'zbekiston Respublikasining konsullari va shaharchalar, qishloqlar, ovullarning fuqarolar yig'ini raislari (oqsoqollari) tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirganlik uchun;

4) fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etganlik uchun, shuningdek fuqarolarga fuqarolik holati dalolatnomalari qayd etilganligi to'g'risida takroriy guvohnoma bergenlik uchun hamda fuqarolik holati dalolatnomalari yozuviga o'zgartishlar, qo'shimchalar, tuzatishlar kiritilishi va uning qayta tiklanishi munosabati bilan guvohnoma bergenlik uchun;

5) chet eldan O'zbekiston Respublikasiga kelish huquqini beruvchi hujjatlarni, O'zbekiston Respublikasiga taklif qilish to'g'risida hujjatlarni bergenlik uchun; yashash guvohnomasini bergenlik yoki uning muddatini uzaytirganlik uchun; respublika hududiga kelish va respublika hududidan chet elga chiqish huquqini beradigan chet el pasportiga yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatga viza bergenlik uchun, shuningdek O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish va O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to'g'risida beriladigan arizalardan;

6) O'zbekiston Respublikasining fuqarosi pasportini yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatlarni, O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga chet elga chiqish huquqi uchun hujjatlar bergenlik uchun;

7) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini, chet davlatlar fuqarolarini hamda fuqaroligi bo'limgan shaxslarni turar joyga qayd etganlik va ro'yxatdan chiqarganlik uchun;

8) yuridik shaxslarni va yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun;

9) faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirishga litsenziya bergenlik uchun;

10) ov qilish huquqiga ega ekanligi to'g'risida ruxsatnoma bergenlik uchun.

## **9.2. Davlat boji imtiyozlari**

Umumiy yurisdiktsiya sudlarida davlat bojini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) da'vogarlar — ish haqini undirib olish to'g'risidagi da'volar va mehnat huquqlari munosabatlaridan kelib chiqadigan boshqa talablar yuzasidan;

2) da'vogarlar — mualliflik huquqlari va turdosh huquqlardan, shuningdek ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va tovar kelib chiqqan joy nomiga, selektsiya yutug'iga bo'lgan huquqdan kelib chiqadigan da'volar yuzasidan;

3) da'vogarlar — alimentlar undirish to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

4) da'vogarlar — mehnatda mayib bo'lganligi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanganligi, shuningdek boquvchisi vafot etganligi tufayli etkazilgan zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

5) da'vogarlar — noqonuniy hukm etish, jinoiy javobgarlikka tortish, ma'muriy jazo berish tufayli jismoniy shaxsga etkazilgan zararning o'rnini qoplash bilan bog'liq nizolar yuzasidan;

6) da'vogarlar — jinoyat tufayli etkazilgan moddiy zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

7) jinoyat tufayli etkazilgan moddiy zararning undirib olinishi to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi nizolashilayotgan jinoyat ishlari bo'yicha apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlari bilan murojaat qilgan shaxslar;

8) nikohni bekor qilish to'g'risidagi mol-mulkni bo'lismish bilan bog'liq bo'limgan ishlar bo'yicha apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlari bilan murojaat qilgan shaxslar;

9) yuridik va jismoniy shaxslar — jinoyat ishlari va alimentlarni undirishga doir fuqarolik ishlari bilan bog'liq hujjatlarni ularga bergenlik uchun;

10) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslarning qonun bilan muhofaza qilinadigan huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilinishini so'rab sudga ariza bilan murojaat etgan yuridik va jismoniy shaxslar;

11) yuridik va jismoniy shaxslar:

- sudning ishni tugatish yoki uni ko'rmasdan qoldirish to'g'risidagi ajrimini bekor qilish to'g'risidagi ariza bo'yicha;

- sudning hal qiluv qarori ijrosini kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib ijro etish, ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish to'g'risidagi ariza bo'yicha;

- da'voni ta'minlash yoki da'voni ta'minlashning bir turini boshqasi bilan almashtirish to'g'risidagi ariza bo'yicha;

- sudning yangi ochilgan holatlar bo'yicha hal qiluv qarorini, ajrimini yoki qarorini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi ariza bo'yicha;

- sud tomonidan belgilangan jarimani bekor qilish yoki kamaytirish to'g'risidagi, sudning hal qiluv qarori ijrosini o'zgartirish to'g'risidagi, o'tkazib yuborilgan muddatni tiklash to'g'risidagi ariza bo'yicha;

12) yuridik va jismoniy shaxslar — sud ijrochisining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyatlar yuzasidan, sudning jarimani bekor qilish yoki kamaytirishni rad etish to'g'risidagi ajrimi ustidan xususiy shikoyatlar hamda sud ajrimi ustidan boshqa xususiy shikoyatlar yuzasidan;

13) tadbirdorlik sub'ektlari tadbirdorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lган huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan davlat organlari hamda boshqa organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga murojaat qilganda;

14) iste'molchilar — o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishi bilan bog'liq da'volar yuzasidan; tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xavfsiz bo'lishi va sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat organlari; iste'molchilarning jamoat birlashmalari — iste'molchilarning (iste'molchilar nomuayyan doirasining) manfaatlarini ko'zlab qo'zg'atilgan da'volar yuzasidan;

15) da'vogarlar — o'rmon daraxtlarini o'zboshimchalik bilan kesish hamda o'rmondan foydalanish, o'rmonni qo'riqlash va muhofaza qilishning tartibi va shartlarini boshqacha tarzda

buzish tufayli o'rmon fondiga etkazilgan zararni undirish to'g'risidagi ishlar yuzasidan;

16) davlat organlari — o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni buzish to'g'risidagi da'volar yuzasidan, shuningdek jismoniy shaxslarga tegishli bo'lган, tarixiy, badiiy qimmatga yoki jamiyat uchun boshqa qimmatga ega bo'lган mol-mulkni jismoniy shaxslar bu mol-mulkka xo'jasizlarcha munosabatda bo'lган hollarda jismoniy shaxslardan davlat mulkiga olib qo'yish to'g'risidagi ishlar yuzasidan;

17) O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi — palata a'zolarining manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar bo'yicha, shuningdek davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan palata a'zolarining manfaatlarini ko'zlab qilingan shikoyatlar yuzasidan;

18) nodavlat notijorat tashkilotlari — o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzayotgan davlat organlarining g'ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilganda;

19) nogironlarning jamoat birlashmalari, shuningdek ularning muassasalari, o'quv-ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalari — barcha da'volar yuzasidan;

20) xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, kommunal-foydalanish tashkilotlari — majburiy badallarni kiritish va communal xizmatlar haqini to'lash bo'yicha qarzni undirish to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

21) xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, communal-foydalanish tashkilotlari, shuningdek fuqarolar — tuzilgan shartnomalar shartlari aholiga uy-joy-kommunal xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi tufayli etkazilgan zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

22) tumanlar, shaharlar (shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlar) hokimliklari — communal xizmatlar ko'rsatuvchilar yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining communal xizmatlar haqini to'lash va majburiy badallarni kiritish bo'yicha qarzni undirish to'g'risidagi taqdimnomasiga muvofiq kiritiladigan da'volar yuzasidan;

23) tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limlari — zarar etkazuvchidan quyidagi summalarini undirib olish to'g'risidagi regress da'volar bo'yicha:

- jabrlanuvchiga yoki uning oila a'zolariga to'langan pensiyalar va nafaqalar summalarini;

- benzinga, avtomototransport vositalarini ta'mirlashga, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ehtiyoj qismlar olishga, nogironlarni avtomototransport vositalarini haydashga o'rgatishga ketadigan xarajatlarni qoplash summalarini, shuningdek noto'g'ri to'langan pensiyalar va nafaqalarning summalarini undirish to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

24) O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda uning joylardagi organlari — ko'chish joyiga bormagan yoki ko'chib borgan joylarini o'zboshimchalik bilan tark etgan ko'chirib keltiriluvchilarga nisbatan ko'chish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning o'rnini qoplash to'g'risida taqdim etilgan da'volar yuzasidan;

25) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va uning joylardagi organlari — atrof muhitni ifloslantirganlik, tabiatdan o'zboshimchalik bilan foydalanganlik va tabiiy resurslardan foydalanish hamda ularning muhofaza qilishning tartibi va shartlarini boshqacha tarzda buzganlik tufayli tabiiy ob'ektlarga va komplekslarga etkazilgan zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

26) O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hamda uning joylardagi organlari — suv to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik tufayli davlatga etkazilgan zararning o'rnini qoplash uchun mablag'larni davlat daromadiga undirish to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

27) sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish organlari — majburiy sug'urta operatsiyalari bilan bog'liq ishlar yuzasidan;

28) qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi — investorlarning, shuningdek davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir da'volar yuzasidan;

29) davlat soliq xizmati organlari, moliya hamda bojxona organlari, shuningdek monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash organlari — barcha ishlar va

hujjatlar yuzasidan, shuningdek alohida yuritiladigan ishlar bo'yicha sudga arizalar bergenlik uchun;

30) ichki ishlar organlari — alimentlar va boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlayotgan shaxslarni qidirish uchun qilingan xarajatlarni undirish to'g'risidagi ishlar yuzasidan;

31) prokuratura organlari — davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar hamda berilgan arizalar yuzasidan;

32) adliya organlari — davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar hamda berilgan arizalar yuzasidan;

33) undiruvchi yoki sud ijrochisi — qarzdorni yoki uning mol-mulkini qidirish bo'yicha xarajatlarning o'rnini qarzdor tomonidan qoplash to'g'risidagi ishlar yuzasidan.

Xo'jalik sudlarida davlat bojini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar — pul mablag'lari bo'limganda, bu bank muassasasi tomonidan tasdiqlangan taqdirda, xo'jalik sudining ajrimi bo'yicha;

2) qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar — tayyorlov va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar shartnomasi majburiyatlarini bajarmaganligi bilan bog'liq da'volar bo'yicha;

3) tadbirkorlik sub'ektlari — tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan davlat organlari hamda boshqa organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga murojaat qilganda;

4) arizachi va javobgar — qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va o'z ustav fondini (ustav kapitalini) shakllantirmagan korxonalarni tugatishga doir ishlar bo'yicha;

5) da'vogarlar — o'rmon daraxtlarini o'zboshimchalik bilan kesish hamda o'rmondan foydalanish, o'rmonni qo'riqlash va muhofaza qilish tartibi va shartlarini boshqacha tarzda buzish tufayli o'rmon fondiga etkazilgan zararni undirish to'g'risidagi, o'rmon xo'jaligi daromadi summalarini (shu jumladan, o'rmon daraxtlarini o'sib turgan joyida sotish qoidalarini buzganlik uchun zarar va neustoykani, shuningdek o'zboshimchalik bilan o'rmon

daraxtlarini kesganlik, pichan o'rganlik va mollarni o'tlatganlik uchun jarimalarni) undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha;

6) O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi — palata a'zolarining manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar yuzasidan, shuningdek davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan palata a'zolarining manfaatlarini ko'zlab qilingan shikoyatlar bo'yicha;

7) nodavlat notijorat tashkilotlari — o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan davlat organlarining g'ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilganda;

8) xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, kommunal-foydalanish tashkilotlari — majburiy badallarni to'lash va kommunal xizmatlar to'lovi bo'yicha qarzlarni undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

9) xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, kommunal-foydalanish tashkilotlari — tuzilgan shartnomalar shartlari aholiga uy-joy-kommunal xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi tufayli etkazilgan zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

10) tumanlar, shaharlar (shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar) hokimliklari — kommunal xizmatlar ko'rsatuvchilar yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining kommunal xizmatlar haqini to'lash va majburiy badallarni to'lash bo'yicha qarzni undirish to'g'risidagi taqdimnomasiga muvofiq kiritiladigan da'volar yuzasidan;

11) nogironlarning jamoat birlashmalari, shuningdek ularning muassasalari, o'quv-ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalari — barcha da'volar bo'yicha;

12) tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limlari — zarar etkazuvchidan quyidagi summalarini undirish to'g'risidagi regress da'volar bo'yicha:

jabrlanuvchiga yoki uning oila a'zolariga to'langan pensiyalar va nafaqalar summalarini;

benzinga, avtomototransport vositalarini ta'mirlashga, ularga texnik xizmat ko'rsatishga va ehtiyyot qismlar olish,

nogironlarni avtomototransport vositalarini haydashga o'rgatishga ketadigan xarajatlarni qoplash summalarini;

13) da'vogarlar va javobgarlar — sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish organlari — majburiy sug'urta operatsiyalari bilan bog'liq barcha ishlar bo'yicha;

14) «O'zagrosug'urta» davlat-aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasi, uning direktsiyasi va joylardagi bo'linmalari — qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan bank kreditlarini to'lamaslik xavfini hamda qishloq xo'jaligi mahsuloti etishtirish, shuningdek fyuchers kontraktlar bo'yicha ishlarni amalga oshirish uchun oldindan beriladigan mablag'larning qaytarilishini sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha to'langan sug'urta toponi uchun qishloq xo'jaligi korxonalaridan qarzni undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

15) O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, uning joylardagi organlari — suv to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik tufayli davlatga etkazilgan zararning o'rnini qoplash uchun mablag'larni davlat daromadiga undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

16) tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari — qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining manfaatlarini ko'zlab berilgan da'volar bo'yicha;

17) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va uning joylardagi organlari — atrof muhitni ifoslantirganlik, tabiatdan o'zboshimchalik bilan foydalanganlik va tabiiy resurslardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilishning tartib va shartlarini boshqacha tarzda buzganlik tufayli tabiiy ob'ektlarga va komplekslarga etkazilgan zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

18) O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi hamda uning joylardagi organlari — standartlarni, texnik shartlarni joriy etish va ularga riosa etilishi hamda mahsulotlar sifati ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlar yoki shunday vakolatga ega bo'lgan boshqa organlar jo'natishni man etgan mahsulotlarni yetkazib bergen yuridik shaxslardan byudjet daromadiga jarimalar undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

19) O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi va uning joylardagi organlari — davlat mulkiga

etkazilgan zararning o'rnini qoplash uchun davlat daromadiga mablag'lar undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

20) qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi — investorlarning, shuningdek davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir da'volar bo'yicha;

21) davlat soliq xizmati organlari, moliya hamda bojxona organlari, shuningdek monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash organlari — barcha ishlar va hujjatlar bo'yicha, shuningdek alohida yuritiladigan ishlar bo'yicha sudga arizalar bergenlik uchun;

22) prokuratura organlari — davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar hamda berilgan arizalar yuzasidan;

23) adliya organlari — davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar hamda berilgan arizalar yuzasidan;

24) undiruvchi yoki sud ijrochisi — qonunda nazarda tutilgan taqdirda, qarzdorni yoki uning mol-mulkini qidirish bo'yicha xarajatlarning o'rnini qarzdor tomonidan qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan.

Notarial harakatlar amalga oshirilganda davlat bojini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) shaxslar — davlat pensiyalari va nafaqalarini olish uchun zarur bo'lgan, shuningdek vasiylik qilish va farzandlikka olish to'g'risidagi ishlar yuzasidan hujjatlarning ko'chirma nusxalari to'g'riliqini ularga tasdiqlab bergenlik uchun;

2) shaxslar — mol-mulkini davlat foydasiga, shuningdek yuridik shaxslar foydasiga hadya qilish to'g'risidagi vasiyatnomalari va shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun;

3) davlat soliq xizmati organlari va moliya organlari — ularga davlatning merosga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnomalarni (guvohnomalarning dublikatini) bergenlik, shuningdek ushbu guvohnomalarni (guvohnomalarning dublikatini) olish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar uchun;

4) nogironlarning jamoat birlashmalari, ularning muassasalari, o'quv-ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalari — barcha notarial harakatlar bo'yicha;

5) shaxslar — ularga qo'yidagilar uchun merosga bo'lgan huquqi to'g'risida guvohnoma bergenlik uchun:

Vatanni himoya qilish chog'ida, boshqa davlat yoki jamoat vazifalarini bajarayotganligi munosabati bilan yoxud inson hayotini qutqarish, davlat mulkini va huquq-tartibotni muhofaza qilish bo'yicha fuqarolik burchini ado etish munosabati bilan halok bo'lgan shaxslarning mol-mulki uchun;

- uy-joy (kvartira) uchun yoki uy-joy-qurilish kooperatividagi pay uchun, agar ular meros qoldiruvchining vafot etish kunigacha birga yashagan, turar joyda qayd etilgan bo'lsa va meros qoldiruvchining vafotidan keyin ham shu uy-joyda (kvartirada) yashayotgan bo'lsa;

- banklardagi omonatlar, shaxsiy va mulkiy sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta summalar, davlat zayom obligatsiyalari uchun, ish haqi summalar uchun, adabiyot va san'at asarlari muallifi va ijrochisining mulkiy huquqlari, ixtiro, foydali model va sanoat namunasi uchun mualliflik va ijrochilik haqi summalar uchun;

6) shaxslar — pensiyalar va nafaqalar olish uchun ishonchnomani tasdiqlatganlik uchun;

7) onalar — ko'p bolalik uchun ularga ordenlar va medallar berilganligi haqidagi ishlar bo'yicha hujjatlar ko'chirma nusxalarining to'g'riliгини tasdiqlab bergenlik uchun;

8) mакtab-internatlar — farzandlarining maktab-internatdagi ta'minoti uchun ota-onalardan qarzlarni undirish to'g'risidagi ijro yozuvlarini amalga oshirganlik uchun;

9) moliya organlari — farzandlarining O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining ixtisoslashtirilgan mакtablaridagi ta'minoti uchun ota-onalardan qarzlarni undirish to'g'risidagi ijro yozuvlarini amalga oshirganlik uchun;

10) ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa tufayli vafot etish va halok bo'lish hodisasiga korxonalar va tashkilotlar hisobidan sug'urta qilingan jismoniy shaxslarning merosxo'rlari — sug'urta puliga vorislik huquqini tasdiqlovchi guvohnoma bergenlik uchun;

11) surunkali ruhiy kasallikka chalingan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vasiylik belgilangan shaxslar — mol-mulkka vorislik qilishlari to'g'risida guvohnoma olganliklari uchun;

12) O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda uning joylardagi organlari — xodimlarni tashkiliy yo'sinda ishga qabul qilish tartibida tuziladigan mehnat shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun;

13) 1941—1945 yillardagi urush nogironlari, 1941—1945 yillardagi urush frontlarida yaralangan shaxslar va 1941—1945 yillardagi urush frontlarida halok bo'lgan yoki bedarak yo'qolgan shaxslarning oila a'zolari, 1941—1945 yillardagi urush qatnashchilari hamda vatanni himoya qilishda va sovet armiyasida o'z xizmat burchini o'tayotganda yaralangan shaxslar, Afg'oniston Respublikasida baynalmil burchini o'tagan shaxslar, shuningdek 1986—1987 yillarda Chernobil AESining zaharlangan mintaqasi doirasida avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslar, 1986 yilda Chernobil AESidagi avariya munosabati bilan zaharlangan mintaqadan ko'chirilgan (shu jumladan, o'z ixtiyori bilan chiqib ketgan) shaxslar, agar ular vafot etgan bo'lsa, ularning oila a'zolari — imtiyozlar berilishi uchun zarur bo'lган hujjatlar ko'chirma nusxalarining to'g'riligini tasdiqlatganligi uchun;

14) O'zbekiston mualliflik huquqini himoya qilish respublika agentligi — mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan mukofotning undirilishi to'g'risidagi ijro yozuvlarini amalga oshirganlik uchun;

15) shaxslar — ularga yo'lovchilarining majburiy sug'urtasi yuzasidan sug'urta summalariga hamda fuqarolarga qarashli mol-mulkning majburiy sug'urtasi yuzasidan sug'urta tovoni summalar bo'yicha merosga bo'lgan huquqi to'g'risida guvohnoma bergenlik uchun;

16) fermer xo'jaligida faoliyatni davom ettirayotgan merosxo'rlar — ularga fermer xo'jaligining mol-mulki bo'yicha merosga bo'lgan huquqi to'g'risida guvohnoma bergenlik uchun;

17) yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaligida faoliyatni davom ettirayotgan merosxo'rlar — ularga dehqon xo'jaligi mol-mulki bo'yicha merosga bo'lgan huquqi to'g'risida guvohnoma bergenlik uchun;

18) xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, kommunal-foydalanish tashkilotlari — majburiy badallarni to'lash va kommunal xizmatlar to'lovi bo'yicha qarzlarni undirish to'g'risidagi ijro yozuvlarini amalga oshirganlik uchun.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etishda davlat boji to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) xalq ta'limi organlari, balog'atga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar — etim bolalarni va ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni bolalar muassasalariga va o'quv yurtlariga yuborish uchun tug'ilganlik to'g'risida takroriy guvohnomalar bergenlik uchun;

2) jismoniy shaxslar — tug'ilish, o'lim qayd etilganligi uchun, ularga farzandlikka olingan, otalik belgilangan, jinsi o'zgartirilgan hollarida, shuningdek fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish chog'ida yo'l qo'yilgan xatolar munosabati bilan tug'ilganlik to'g'risidagi hujjatlar yozuvlari o'zgartirilgan, to'ldirilgan va tuzatilgan taqdirda guvohnomalar bergenlik uchun;

3) jismoniy shaxslar — ularga belgilangan tartibda bedarak yo'qolgan deb yoki ruhiy holatining buzilganligi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar yoxud qilgan jinoyatlari uchun uch yildan kam bo'limgan muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar bilan nikohni bekor qilish to'g'risida sudning hal qiluv qarori asosida guvohnomalar bergenlik uchun;

4) jismoniy shaxslar — ularga reabilitatsiya qilingan qarindoshlarining vafot etganligi to'g'risidagi takroriy guvohnomalar bergenlik yoki ilgari berilgan guvohnomalarni almashtirganlik uchun;

5) tabiiy ofatlar natijasida jabrlangan jismoniy shaxslar — ularga takroriy guvohnomalar bergenlik uchun.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari davlat bojini to'lashdan quyidagi hollarda ozod qilinadi:

1) diplomatik pasport bergenlik uchun;

2) quyidagi hollarda xorijga chiqish uchun ruxsatnoma bergenlik uchun:

- yaqin qarindoshlari vafot etgan yoki ular dafn etilgan joylarni ziyorat qilgan taqdirda;

- fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi shartnomalarga (bitimlarga) binoan ular chet el sudlariga fuqarolik va jinoyat ishlari yuzasidan taraflar, guvohlar va ekspertlar sifatida chaqirilganda;

3) o'n olti yoshga to'limgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi guvohnomasini bergenlik uchun;

4) to'liq davlat ta'minotida bo'lganlar — O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportini bergenlik uchun.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hujatlarga biron bir o'zgartirish kiritilgan taqdirda ham davlat boji to'lashdan ozod qilinadi.

Konsullik yig'implari quyidagi hollarda undirilmaydi:

1) O'zbekiston Respublikasining konsullik yig'implarini undirishdan voz kechish to'g'risidagi xalqaro shartnomasi mavjud bo'lsa;

2) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini repatriatsiya qilish ishlari bo'yicha;

3) chet el diplomatik pasportlariga o'zarolik asosida viza qo'yganlik uchun;

4) mehnat staji, fuqarolarning ijtimoiy ta'minoti to'g'risidagi, alimentlar undirish to'g'risidagi ishlarga doir hujjatlarni so'rab olganlik va legallashtirganlik uchun;

5) chet davlatlarning belgilangan tartibda akkreditatsiyadan yoki ro'yxatdan o'tkazilgan doimiy vakolatxonalar, xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning va chet davlatlar hukumat tashkilotlarining vakolatxonalar, xalqaro va xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlarining vakolatxonalar hamda filiallari xodimlaridan (ularning oila a'zolaridan);

6) belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tkazilgan matbuot vakillaridan (ularning oila a'zolaridan);

7) insonparvarlik yordamini kuzatib keluvchi chet davlatlarning fuqarolaridan;

8) o'n olti yoshga to'limgan bolalardan;

9) O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи, shuningdek byudjet tashkilotlari taklifiga binoan O'zbekiston Respublikasiga keluvchi chet davlatlar fuqarolaridan, agar kontrakt shartlariga ko'ra viza olish bilan bog'liq xarajatlar qabul qiluvchi tarafga yuklatilgan bo'lsa;

Fuqarolarni turar joyga qayd etganlik va ro'yxatdan chiqarganlik (yashash joyini qayd etganlik) uchun davlat boji to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

- qariyalar va nogironlarning internat-uylarida yashovchi qariyalar va nogironlar;

- maktab-internatlar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining to'liq davlat ta'minotida bo'lgan va yotoqxonalarda yashovchi o'quvchilari.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarini, shuningdek davlat korxonalar negizida tuzilayotgan aktsiyadorlik jamiyatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun davlat boji undirilmaydi.

### **9.3. Davlat bojini to'lashning o'ziga xos xususiyatlari**

Davlat boji undiriladigan harakatlar amalga oshirilguniga qadar naqd pulli yoki naqd pulsiz shaklda to'lanadi.

To'lovchining davlat bojini naqd pulsiz shaklda to'laganligi fakti bankning to'lov ijro etilganligi to'g'risidagi belgisi bo'lgan to'lov topshiriqnomasi bilan tasdiqlanadi.

To'lovchining davlat bojini naqd pul shaklida to'laganligi fakti bank tomonidan to'lovchiga beriladigan belgilangan shakldagi kvitantsiya yoki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi belgilagan shaklda to'lojni amalga oshirgan mansabdar shaxs yoxud davlat organi va tashkilotning kassasi tomonidan to'lovchiga beriladigan kvitantsiya bilan tasdiqlanadi.

Davlat bojini to'lashning o'ziga xos xususiyatlari amalga oshirilayotgan yuridik ahamiyatga molik harakatlarning turiga, to'lovchilarning toifalariga yoki boshqa holatlarga ko'ra belgilanadi.

Davlat boji to'lov hujjatlari asosida byudjet tasarrufiga o'tkaziladi, davlat bojining xizmatlari uchun davlat boji undirilayotgan davlat organi tasarrufida qoldirilayotgan qismi bundan mustasno.

Davlat bojining bir qismi davlat organi tasarrufida qoldirilgan taqdirda davlat boji quyidagi tartibda to'lanadi:

- harakatlari uchun davlat boji undirilayotgan davlat organi tasarrufida qoldiriladigan summaga taalluqli alohida to'lov hujjatlari orqali;

- byudjet daromadlarining tasnifiga muvofiq byudjetga o'tkazilishi kerak bo'lган summaga taalluqli alohida to'lov hujjati orqali.

Davlat bojining davlat organi tasarrufida qoldiriladigan qismining miqdori qonun hujjatlarida belgilanadi.

Mulkiy nizo bo'yicha sudga da'vo arizasi berilganda, shuningdek mol-mulkning oldi-sotdi, hadya, ayirboshlash shartnomasini notarial tartibda tasdiqlashda, merosga bo'lган huquqni rasmiylashtirishda, agar da'vo qiymati, shartnoma summasi yoki meros miqdori chet el valyutasida belgilansa, davlat boji qonun hujjatlarida belgilangan hollarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda chet el valyutasida undirilishi mumkin.

Sudlarga beriladigan da'vo arizalaridan, alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo'yicha arizalardan, ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha sudlarga beriladigan shikoyatlardan, sudlarning hal qiluv qarorlari ustidan apellyatsiya, cassatsiya va nazorat tartibidagi shikoyatlardan, shuningdek sudlar tomonidan hujjatlarning nusxalarini bergenlik uchun davlat boji quyidagi tartibda undiriladi:

shartnomalarni haqiqiy emas deb e'tirof etish to'g'risidagi, shartnomalarni bekor qilish to'g'risidagi yoki ularning shartlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi da'vo arizalariga shartnoma to'laligicha yoki uning biron bir qismi nizolashilayotganligidan qat'i nazar, shartnoma oldi nizolari bo'yicha arizalar uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi;

qarshi da'vo arizalaridan, shuningdek uchinchi shaxslarning ishga mustaqil da'vo talablari bilan kirishganligi to'g'risidagi arizalardan davlat boji umumiylashtiriladi;

Sud dastlabki da'vogarni uning roziligi bilan boshqa shaxs bilan almashtirganda, bu shaxs davlat bojini umumiylashtiriladi;

Ishdan dastlabki da'vogar chiqib ketgan va u huquqiy voris bilan almashtirilgan hollarda, davlat boji, agar u dastlabki da'vogar tomonidan to'lanmagan bo'lsa, huquqiy vorisdan undiriladi.

Sudya bir yoki bir nechta birlashgan da'vo talablarini alohida ish yuritish uchun ajratgan taqdirda, da'vo taqdim etilganda to'langan davlat boji qayta hisoblab chiqilmaydi va qaytarilmaydi. Alohida ish yurituvga ajratganlik yuzasidan davlat boji ikkinchi bor to'lanmaydi.

Ilgari ko'rmasdan qoldirilgan takroran berilgan arizalar bo'yicha davlat boji qaytadan umumiy asoslarda to'lanadi. Agar ariza ko'rmasdan qoldirilganligi munosabati bilan davlat boji qaytarilishi kerak bo'lga, lekin qaytarilmagan bo'lsa, agar davlat boji byudjetga o'tkazilgan kundan e'tiboran fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq da'vo muddati tugamagan bo'lsa, davlat boji to'langanligi to'g'risidagi dastlabki hujjat takroran berilgan arizaga ilova qilinishi mumkin.

Davlat boji hisoblab chiqariladigan da'vo bahosi da'vogar tomonidan, belgilangan hollarda esa, fuqarolik protsessual va xo'jalik-protsessual qonun hujjatlariga muvofiq sud tomonidan aniqlanadi.

Agar ishni muhokamaga tayyorlash paytida da'vogar alimentlarni undirish to'g'risidagi ishni tugatish haqida ariza bergen bo'lsa, bunday hollarda javobgardan davlat boji undirilmaydi.

Da'vogar tomonidan da'vo talablari kamaytirilgan taqdirda, to'langan davlat boji qayta hisoblab chiqilmaydi.

Da'vo summasi ko'paytirilgan taqdirda, davlat bojining etishmayotgan summasi da'veoning ko'paytirilgan summasiga muvofiq undiriladi.

Da'vogar davlat bojini to'lashdan ozod etilgan taqdirda da'vo qanoatlantirilsa, davlat boji javobgardan (agar u davlat bojini to'lashdan ozod etilmagan bo'lsa) davlat daromadiga belgilangan da'vo summasiga muvofiq undiriladi.

Da'vo birgalikda bir nechta da'vogar tomonidan bir yoki bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilganda, davlat boji da'veoning umumiy summasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi va da'vogarlar tomonidan ular qo'ygan talablar ulushiga mutanosib tarzda to'lanadi.

Da'veoning umumiy summasidan kelib chiqqan holda davlat boji quyidagi hollarda ham undiriladi:

da'vo da'vogar tomonidan bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilganda;

da'vo arizalarini qabul qiladigan suda bir tusdagi bir necha talabni bir ish yurituviga birlashtirganda.

Davlat bojini to'lashdan ozod etilgan bir yoki bir nechta da'vogar tomonidan bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilgan da'vo to'liq yoki qisman qanoatlantirilganda davlat bojini

undirish sudning hal qiluv qaroriga binoan har bir javobgardan belgilangan qarz summasidan kelib chiqqan holda alohida-alohida amalga oshiriladi. Agar bunday da'vo bir nechta da'vogarlar tomonidan bir javobgarga nisbatan taqdim etilgan bo'lsa, davlat boji javobgardan umumiy belgilangan qarz summasidan kelib chiqqan holda byudjetga undiriladi.

Sud boshqa shaxsni ikkinchi javobgar sifatida jalb qilgan va da'vo summasining bir qismini bir javobgardan, qolgan qismini esa ikkinchisidan undirishga hukm qilgan taqdirda va, agar bunda da'vogar davlat bojini to'lashdan ozod qilingan bo'lsa, davlat boji da'veoning qanoatlantirilgan umumiy summasidan hisoblab chiqariladi hamda har bir javobgardan unga belgilangan da'vo summasi miqdoriga mutanosib ravishda byudjetga undiriladi.

Davlat bojini to'lashdan ozod qilingan da'vogar o'z talablarini da'vo berilganidan keyin ular javobgar tomonidan ixtiyoriy ravishda to'liq yoki qisman qanoatlantirilganligi tufayli qo'llab-quvvatlamagan hollarda davlat bojining summasi javobgardan sud ajrimi bo'yicha byudjetga undirilishi lozim.

Da'vogar arizada da'vo summasini ko'rsatmagan hollarda sudya da'vo arizasini qabul qilish asnosida, da'veoning taxminiy bahosidan kelib chiqqan holda to'lanishi lozim bo'lgan davlat bojining miqdorini dastlabki tarzda belgilaydi. Agar sud hal qiluv qarorini chiqarganda da'veoning umumiy summasi oshsa, davlat boji da'veoning oshgan summasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Bunda vujudga kelgan farq da'vogardan yoki da'vo to'liq qanoatlantirilgan taqdirda — javobgardan byudjet daromadiga undirilishi lozim. Sud qonun hujjalarda belgilangan hollarda ish holatlariga bog'liq ravishda da'vogar arizada ko'rsatgan talablar doirasidan chiqib ketganda, davlat boji shunday tartibda hisoblab chiqariladi. Bunday hollarda da'vo qisman qanoatlantirilgan taqdirda, davlat boji javobgardan da'veoning qanoatlantirilgan qismiga mutanosib ravishda undiriladi, davlat bojining qolgan qismi esa da'vogardan undirilishi lozim.

Sud mol-mulkni meros qilib olish huquqi to'g'risida hal qiluv qarori qabul qilgan taqdirda, davlat boji mol-mulkning umumiy qiymatidan kelib chiqqan holda sud tomonidan hisoblab

chiqariladi va har bir merosxo'rdan uning ulushiga mutanosib ravishda undiriladi.

Mol-mulkka bo'lган mulk huquqi to'g'risidagi, mol-mulkni boshqa shaxsga berishga doir shartnomalarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi, mol-mulkdagi ulushgaga bo'lган huquqni e'tirof etish to'g'risidagi, umumiylar mol-mulkdan ulush ajratish to'g'risidagi va merosxo'rlarning o'zlariga tegishli mol-mulk ulushini talab qilib olish to'g'risidagi da'vo arizalari uchun davlat boji ushbu mol-mulk yoki uning ulushi qiymatidan kelib chiqqan holda to'lanishi lozim.

Bir vaqtning o'zida mulkiy va nomulkiy xususiyatga ega bo'lган da'vo arizalari uchun mulkiy xususiyatdagi da'vo arizalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha va nomulkiy xususiyatdagi da'vo arizalari uchun belgilangan stavkalarga ko'ra har bir talab bo'yicha alohida-alohida davlat boji to'lanadi.

Qiymat jihatidan baholanmaydigan talablar (o'zboshimchalik bilan egallangan joylarni bo'shatish to'g'risidagi, natura shaklida maydon berish to'g'risidagi, topshirish balansini qabul qilishga majburlash bilan bog'liq nizolar va boshqalar) nomulkiy xususiyatdagi da'vo arizalari jumlasiga kiradi.

Nikohni bekor qilish bilan bir vaqtida mol-mulkni bo'lish to'g'risidagi da'vo arizalaridan nikohni bekor qilganlik uchun va mol-mulkni bo'lganlik uchun davlat boji undiriladi.

Arizani (iltimosnoman) qabul qilishni rad etishga yoki ish yuritishni tugatishga asos bo'lган sharoitlar bartaraf etilganidan so'ng takroran beriladigan arizalarga, davlat boji takroran to'lanishing oldini olish uchun, davlat boji to'langanligi to'g'risidagi dastlabki hujjat ilova qilinishi mumkin.

Arizachi davlat bojini to'lashdan ozod qilingan hollarda da'vo qanoatlantirilgan taqdirda davlat boji, agar javobgar davlat bojini to'lashdan ozod qilinmagan bo'lsa, qanoatlantirilgan da'vo talablari miqdoriga mutanosib ravishda javobgardan undiriladi.

Muayyan sudda ko'riliши kerak bo'lган bir necha ishlар uchun bir to'lov topshiriqnomasi bo'yicha davlat boji o'tkazilgan hollarda topshiriqnomasi ishlarning biriga ilova qilinadi. Mazkur ish bo'yicha to'langan davlat bojining summasi to'g'risida qolgan ishlarga belgi qo'yiladi va to'lov topshiriqnomasi qo'shib qo'yilgan ish ko'rsatiladi.

Shartnomalarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi, shartnomalarni bekor qilish to'g'risidagi yoki ularning shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi sudsiga beriladigan da'vo arizalaridan, mazkur da'volar bo'yicha sudning hal qiluv qarorlarini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi arizalardan davlat boji, shartnoma to'liq yoki qisman nizolashilayotganligidan qat'iy nazar, shartnoma oldi nizolari bo'yicha arizalar uchun belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi.

Sud buyrug'i bekor qilingan taqdirda, undiruvchi tomonidan to'langan davlat boji qaytarilmaydi. Da'vo undiruvchi tomonidan qarzdorga nisbatan da'vo ishini yuritish tartibida qo'zg'atilgan taqdirda u to'lanishi lozim bo'lган davlat boji hisobiga olinadi.

Notarial harakatlar davlat notarial idoralari hamda shaharcha, qishloq va ovullar fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollar) tomonidan bajarilganligi uchun davlat boji notarial harakatlar amalga oshirilganda undiriladi, notarial idoralardagi ishlarda mavjud bo'lган hujjatlarning dublikatini, hujjatlarning nusxalarini bergenlik uchun esa ular berilayotganda undiriladi.

Davlat boji to'lashdan bir taraf ozod etiladigan bitimlar bo'yicha davlat bojini boshqa taraf to'liq to'laydi.

Davlat notarial idorasi depozitiga qabul qilish uchun pul summalar pochta orqali yoki bankdan kelib tushgan hollarda davlat bojining tegishli summalar kelib tushgan puldan ushlab qolinadi, ularning qoldig'i esa depozitga qabul qilinadi. Ushlab qolning davlat boji summalar davlat notarial idorasi depozit summalarini bankka navbatdagi topshirish chog'ida byudjetga o'tkazilib, bank kvitantsiyasi notarial idora ishlarida saqlanadi.

Davlat notarial idorasi binosidan tashqarida amalga oshiriladigan notarial harakatlar uchun davlat boji ikki baravar miqdorda undiriladi, ozodlikdan mahrum qilish joylaridagi yoki qamoqda saqlanayotgan shaxslarning ishonchnomalarini notarial tartibda tasdiqlash bundan mustasno.

Merosga bo'lган huquq to'g'risida guvohnoma bergenlik uchun davlat boji meros ochilgan kunda (meros qoldiruvchi vafot etgan kunda) vorislik tartibida o'tayotgan butun mol-mulkning qiymatidan undiriladi.

Bir nechta merosxo'r (shu jumladan qonun bo'yicha, vasiyatnoma bo'yicha va merosdan majburiy ulush olish

huquqiga ega merosxo'rlar) bo'lган hollarda davlat boji har bir merosxo'rga tegishli meros ulushidan hisoblab chiqariladi.

Voyaga etmagan merosxo'rlar bo'lган (shu jumladan meros qoldiruvchilarining bolalari bo'lмаган) taqdirda ham davlat boji butun meros mol-mulk qiymatidan hisoblab chiqariladi, lekin faqat voyaga etgan merosxo'rlardan ularning merosdagi ulushiga tegishli summadan undiriladi.

Agar merosga bo'lган huquq to'g'risidagi guvohnoma merosxo'rlarning arizasi bo'yicha meros mol-mulkning bir qismiga berilayotgan bo'lsa, davlat boji berilayotgan guvohnomada ko'rsatilgan mol-mulk qismining qiymati uchun belgilangan stavka bo'yicha hisoblab chiqariladi. Keyinchalik mol-mulkning qolgan qismiga guvohnoma berilganida davlat boji mol-mulkning umumiyligi qiyatidan hisoblab chiqariladi, to'lashga esa hisoblab chiqarilgan summa bilan birinchi guvohnoma berilganligi uchun to'langan summa o'rtasidagi farq taqdim etiladi.

Qonun bo'yicha bir vaqtning o'zida boshqa merosxo'rlar mavjud bo'lган taqdirda, meros mol-mulkning bir qismi merosxo'rlarga vasiyatnomalar bo'yicha o'tgan hollarda davlat boji vasiyatnomalar bo'yicha mol-mulk qiymatidan alohida hisoblab chiqariladi, qolgan mol-mulk qiymatidan esa umumiyligi tartibda hisoblab chiqariladi.

Qonun bo'yicha va vasiyatnomalar bo'yicha meros qilib olinayotgan mol-mulkdan merosning majburiy ulushi ajratilgan hollarda davlat boji qonunga binoan vorislik huquqi bo'yicha o'tayotgan butun mol-mulk qiymatidan, shu jumladan majburiy ulush bilan birga hisoblab chiqariladi.

Sudlarning ilgari berilgan guvohnomalar haqiqiy emasligi to'g'risidagi hal qiluv qarorlari asosida beriladigan merosga bo'lган huquq to'g'risidagi takroriy guvohnomalar uchun davlat boji umumiyligi asoslarda undiriladi. Bunda birlamchi guvohnoma uchun to'langan davlat boji summasi qaytarilishi yoki soliq to'lovchining arizasiga ko'ra yangi guvohnoma bergenlik uchun beriladigan summa hisobiga, agar summalar byudjetga o'tkazilgan kundan e'tiboran fuqarolik qonun hujjatlarida nazarda tutilgan da'vo muddati tugamagan bo'lsa, o'tkazilishi lozim. Sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan har qanday shartnomalar bo'yicha.

takroran tasdiqlangan taqdirda, masala xuddi shunday tartibda hal qilinadi.

Davlat notarial idorasi reestrida takroriy guvohnomalar va shartnomalarni qayd qilishda tegishli katakchada davlat boji qachon va qancha summada undirilganligi hamda undirish to'g'risidagi yozuv qayerda borligi ko'rsatiladi. Bunda notarial idora ishlarida qoladigan asosiy hujjatlarga sudning tegishli guvohnomalar va shartnomalarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi hal qiluv qarorlari ilova qilinishi kerak.

Kredit tashkilotlari tomonidan beriladigan sertifikatlar va akkreditivlarga doir merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma bergenlik uchun davlat boji umumiy asoslarda undiriladi.

Er-xotinning birgalikda yashaganda olingan va er-xotindan birining vafotidan keyin qolgan mol-mulkka doir merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma bergenlik uchun davlat boji meros bo'yicha haqiqatda o'tayotgan mol-mulk qismining qiymatidan undiriladi.

Davlat boji mutanosib ravishda undiriladigan notarial harakatlar bajarilganda uni hisoblab chiqarish taraflar ko'rsatgan summadan ushbu moddada belgilangan qoidalarga rioya etgan holda amalga oshiriladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli uylar, kvartiralar, dala hovlilari, garajlar, boshqa imoratlar, binolar va inshootlarni boshqa shaxsga o'tkazish shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun davlat boji summasi ularning turar joyi yoki umumiy maydonidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

To'lovlar vaqtি-vaqtি bilan amalga oshiriladigan shartnomalarni tasdiqlashda davlat boji shartnoma bo'yicha u amal qilgan butun vaqt uchun to'lovlarning umumiy miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi va undiriladi. Agar shartnoma uning amal qilish muddati ko'rsatilmagan holda tuzilgan bo'lsa, davlat boji shartnoma bo'yicha uch yil uchun to'lovlar summasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi va undiriladi.

Eng kam va eng ko'p summa ko'rsatilgan shartnomalarni tasdiqlashda davlat boji eng ko'p summadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi va undiriladi.

Talablardan o'zganining foydasiga voz kechish va qarzni o'tkazish to'g'risidagi, ilgari tuzilgan shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi yoki shartnomaning dastlabki summasini ko'paytirish to'g'risidagi shartnomalarni tasdiqlashda davlat boji amalga oshirilmagan huquqlarni hamda ijro etilmagan majburiyatlarni baholashdan yoxud ilgari tuzilgan shartnoma summasi ko'payayotgan summadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi va undiriladi.

Ayirboshlash shartnomalari bo'yicha davlat boji qiymati yuqori bo'lgan mol-mulkdan hisoblab chiqariladi.

Shartlariga ko'ra to'lovlar summasida ijaraga oluvchi tomonidan quriladigan imoratlar va boshqa inshootlar, xonalarni jihozlash qiymati, shuningdek ijaraga oluvchi tomonidan amalga oshiriladigan kapital ta'mirlash va boshqa shu kabilarning qiymati hisobga olinadigan mulk ijarasi shartnomasini tasdiqlashda hisoblab chiqariladigan va undiriladigan davlat bojining summasi amalga oshiriladigan xarajatlarning qiymati hisobga olingan holda belgilanadi.

Ijro yozuvlari bo'yicha yozuvni amalga oshirganlik uchun tegishli davlat boji summasi undiruvchi uni to'lashdan ozod qilingan taqdirda yozuv bo'yicha qarz undirilayotganda qarzdordan undiriladi.

Konsullik yig'imi konsullik harakatlari amalga oshirilguniga qadar to'lanadi. Konsullik yig'imlari byudjet daromadiga o'tkaziladi. Konsullik yig'imlarining to'langan summalarini qaytarilmaydi.

Konsullik yig'imlari summalarini byudjetga, shuningdek chet elda to'langan konsullik yig'imlarini O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonasi va uning konsullik muassasasining maxsus bank hisobvaraqlariga hisoblab chiqarish, undirish va hisobga o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan belgilanadi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etganlik uchun davlat boji dalolatnomalarni ro'yxatda qayd etish chog'ida, takroriy guvohnomalar bergenlik uchun esa, ular berilayotganida to'lanadi.

Shaharcha, qishloq va ovullar fuqarolar yig'irlari raislari (oqsoqollari) tomonidan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etganlik hamda ular tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirganlik uchun davlat boji tasdiqlangan shakldagi kvitantsiya berilgan holda naqd pulda to'lanadi.

Chet elga chiqish, O'zbekiston Respublikasiga taklif qilish huquqini beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirganlik uchun, bu hujjatlarga o'zgartirishlar kiritganlik uchun, shuningdek yashash guvohnomasini, fuqaroligi bo'limgan shaxs guvohnomasini bergenlik yoki ularning muddatini uzaytirganlik yoxud chet ellik fuqarolarning pasportlariga yoki ularning o'rnini bosadigan hujjatlariga chiqib ketish yoki kirib kelish huquqini beradigan vizalar qo'yganlik uchun davlat boji tegishli hujjatlar olinguniga qadar, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to'g'risidagi arizalardan esa, bunday arizalar berilguniga qadar to'lanadi.

Chet eldan kirish va chet elga chiqish huquqini beruvchi hujjatlarni, yashash guvohnomasini, fuqaroligi bo'limgan shaxs guvohnomasini bergenlik yoki ularning muddatini uzaytirganlik, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish va O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to'g'risidagi arizalardan, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan chet elga xizmat safariga yuboriladigan fuqarolarning xorijga chiqish huquqini beruvchi hujjatlardan davlat boji belgilangan tartibda ushbu korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan to'lanadi.

Chet elga xizmat safariga yuborilgan xodimlar bilan birgalikda ularning xotini va bolalari xizmat safarining butun muddatiga safarga borganida davlat boji xizmat safariga yuborilganlarning o'zlaridan undirilgani kabi tartibda va miqdorlarda undiriladi. Oila a'zolari chet elga xizmat safariga yuborilgan shaxsning oldiga mehmon bo'lib oddiy safarga borganlarida davlat boji umumiy asoslarda undiriladi.

Chet ellik fuqarolarga O'zbekiston Respublikasidan chiqishga vizalar bergenlik uchun davlat boji har bir shaxsga alohida viza yoki bir nechta shaxsga umumiy viza berilayotganligidan qat'i nazar, o'n olti yoshga to'lgan har bir shaxsdan undiriladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini turar joyga qayd etganlik, ov qilish huquqi uchun ruxsatnoma berganlik uchun davlat boji hujjat berilayotganda to'lanadi.

Davlat boji naqd pulsiz o'tkazilganligiga doir to'lov topshiriqnomalari, bankning davlat bojini to'lash uchun pul qabul qilib olinganligi to'g'risidagi kvitantsiyasi davlat bojini undiradigan davlat organlarida qoladigan tegishli materiallarga qo'shib qo'yiladi.

Notarial harakatlarni ro'yxatdan o'tkazish reestrda kiritilgan davlat boji summasi, bank hujjatining sanasi va raqami ko'rsatiladi.

Shaharcha, qishloq va ovullar fuqarolar yig'inlarining raislari (oqsoqollari) to'lovchiga davlat boji to'langanligi to'g'risida kvitantsiya beradi, to'lovchilarga beriladigan tasdiqlangan hujjatlarga, ushbu hujjatlarning nusxalariga hamda shaharcha, qishloq va ovullar fuqarolar yig'inlari daftarlari esa, undirilgan davlat boji summasi to'g'risidagi kvitantsiyaning raqami ko'rsatilgan holda belgi qo'yiladi.

Shaharcha, qishloq va ovullar fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) tomonidan fuqarolik holati dalolatnomalari qayd etilayotganda to'langan davlat boji summasi to'g'risidagi yozuv dalolatnomalar daftaridagi maxsus shu uchun mo'ljallangan joyga yoki dalolatnoma oxiriga kiritiladi. Bunda davlat boji to'langanligi to'g'risidagi yozuv davlat bojini to'lagan shaxs tomonidan albatta tasdiqlanishi kerak.

Davlat bojini to'lashdan tushgan summalar tushumlar ro'yxatiga yoziladi va kunning oxirida umumiylashtiriladi yakun bilan shaharcha, qishloq va ovullar fuqarolar yig'inlarining kassa daftariga kiritiladi.

To'lovchilar davlat bojini to'lashdan ozod etilgan hollarda, tegishli hujjatlarga (reestrler, daftarlarga va boshqa shu kabilarga) tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalarini ilova qilingan holda belgi qo'yiladi.

Davlat boji tushumlarini hisobga olish davlat bojini undiradigan davlat organlari va tashkilotlari tomonidan tegishli davlat organlari bilan kelishilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat boji tushumlari bo'yicha hisobot davlat bojini undiruvchi davlat organlari va tashkilotlari tomonidan o'zлari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga yilning har choragida, hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmasdan taqdim etiladi.

Davlat boji quyidagi hollarda to'liq yoki qisman qaytarilishi kerak:

1) davlat boji qonun hujjatlarida talab qilinganidan ortiqcha miqdorda to'langanida;

2) sud arizani (shikoyatni) qabul qilishni rad etganida, shuningdek davlat notarial idoralari yoki shaharcha, qishloq va ovullar fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) notarial harakatlarni amalga oshirishni rad etganda;

3) arizasi (shikoyat) harakatsiz qoldirilganligi munosabati bilan da'vogarga qaytarib berilganda;

4) agar ish sudga taalluqli bo'lmasa, ishni yuritish tugatilganda;

5) ariza ko'rmasdan qoldirilganda, agar u muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo'lsa;

6) ishda qatnashgan shaxs vafot etganida, agar nizoli huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo'l qo'ymasa;

7) da'vogar nizoni sudga qadar hal etish (pretenziya bildirish) tartibiga rioya etmaganida, agar bu hol qonunda ushbu toifadagi nizolar uchun yoki taraflarning shartnomasida nazarda tutilgan hamda bunday hal etish imkoniyati boy berilgan bo'lsa;

8) voyaga etmagan bolalari bo'lмаган er-xotinning nikohi o'zaro rozilik asosida bekor qilinganligini qayd etish uchun davlat boji to'langanda, agar er-xotinning yarashishi yoki ulardan birining sudga kelmaganligi tufayli nikohni bekor qilish amalga oshirilmagan bo'lsa;

9) agar ishda qatnashayotgan yuridik shaxs tugatilgan bo'lsa;

10) sud buyrug'i chiqarish to'g'risidagi arizani qabul qilish rad etilganda;

11) O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga chet elga chiqish huquqi uchun hujjat berish rad etilganda.

Davlat boji O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan boshqa hollarda ham to'liq yoki qisman qaytarilishi mumkin.

Davlat boji summalarini qaytarish to'lovchining yozma arizasiga binoan yoki sudning hal qiluv qarorlari asosida amalga oshiriladi. Davlat boji summasini qaytarish uchun arizachi davlat bojini undirgan tegishli davlat organiga yoki tashkilotga murojaat qilishi kerak. Davlat bojini undirgan davlat organi yoki tashkilotning rahbari uni qaytarish qonuniyligini tasdiqlagan taqdirda, davlat organi yoki tashkilot va davlat bojining boshqa oluvchilari ilgari o'z hisobvaraqlariga o'tkazilgan davlat boji summalarining tegishli qismlarini qonun hujjatlariga muvofiq qaytaradilar. O'z navbatida, davlat organi yoki tashkilot qaytarilishi lozim bo'lган, ilgari davlat byudjeti daromadiga o'tkazilgan davlat boji summasining bir qismini qaytarish to'g'risida davlat soliq xizmati organiga yozma shaklda xabar yuboradi.

Davlat boji summasini qaytarish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

### **Qisqacha xulosalar**

Ko'pgina mamlakatlarda olib kirilayotgan tovar-moddiy boyliklar uchun bojxona bojlarini bojxonada undirib, soliq va yig'imlar shu mamlakat xududida tovarni sotish vaqtida undiriladi.

Shuningdek, davlat ichida undiriladigan bojlar majburiy pullik to'lovdan iborat bo'lib, ular asosan huquqiy xizmat ko'rsatilganda undiriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boj to'lovlari O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiyoti bilan samarali integratsiyalashuvi uchun shart-sharoit yaratish va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishda asosiy o'rinni tutadi.

### **Nazorat qilish uchun savollar**

1. Davlat bojini joriy etishdan maqsad nimada?
2. Davlat bojini byudjet daromadlaridagi hissasi qanday?
3. Davlat boji qaysi harakatlardan undiriladi?
4. Qaysi organlar davlat bojini undirish huquqiga ega?
5. Davlat bojining to'lovchilari kimlar hisoblanadi?
6. Davlat bojii bo'yicha imtiyozlar turlari?
7. Davlat boji stavkalarini qaysi organ tasdiqlaydi va uning miqdori hozirgi davrda qanday?
8. Davlat bojini hisoblash va undirish tartibi qanday?

## X - bob.

### Byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar va to'lovlarining mohiyati

#### 10.1 Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini amalga oshirishni takomillashtirish

Soliq Kodeksining XV bo'limida ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlari bo'yicha alohida band ajratilgan bo'lib, uning 51-bobining 305-311-moddalarida yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini to'lovchilari va uning hisoblash tartibi keng yoritilgan.

Yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchilari quyidagilardir:

- yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasi rezidentlari;
- O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa, chet ellik yuridik shaxslarning vakolatxonalari va filiallari orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari.

Jismoniy shaxslar — O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi va ishlovchi fuqaroligi bo'lмагan shaxslar fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari (bundan buyon sug'urta badallari deb yuritiladi) to'lovchilardir.

Sug'urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati, shuningdek ularning to'g'ri hisoblab chiqarilishi uchun javobgarlik ish beruvchi zimmasiga yuklatilgan, bundan sug'urta badallari to'lovchi yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari a'zolari mustasno.

Ish haqi tarzidagi daromadlar yagona ijtimoiy to'lovning va sug'urta badallarining soliq solish ob'ektiidir.

Yagona ijtimoiy to'lovni va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan baza to'lanadigan daromadlar summasi sifatida belgilanadi.

Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari quyidagi to'lovlariga nisbatan hisoblanmaydi:

- 1) kompensatsiya to'lovleri;

2) xodimga hisoblanadigan va uning roziligi bilan tegishli byudjet yoki xayriya jamg'armalarga (shanbaliklar, yakshanbaliklar va shu kabilar uchun) o'tkaziladigan ish haqi tarzidagi daromadlar;

3) xodimning muhim sanasi, uzoq yillik xizmati, jamoat faoliyatida erishgan yutuqlari munosabati bilan unga beriladigan rag'batlantirish tarzidagi to'lovlar;

4) xodimga tabiiy ofat, boshqa favqulodda holatlar munosabati bilan to'lanadigan to'lovlar;

5) yosh mutaxassislarga oliy o'quv yurtini tamomlaganlaridan so'ng ta'til vaqtি uchun yuridik shaxslar hisobidan to'lanadigan nafaqalar.

Hisobot davri quyidagilardir:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun — yil choragi;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun — bir oy.

Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari har oyda soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan tegishli ravishda 24 va 3,5 foiz stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

25-jadval

Ish haqi fondidan hisoblanadigan Yagona ijtimoiy to'lov stavkasining pasayib borish dinamikasi

Yillar	Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi,%
1998-2002	40
2003	37,2
2004	33
2005	31
2006	25
2007-2009	24

Manba: O'zR. Davlat statistika qumitasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi.

Yagona ijtimoiy to'lov yuridik shaxslarning mablag'lari hisobidan to'lanadi, sug'urta badallari esa xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadi va soliq agentlari tomonidan o'tkaziladi.

Yagona ijtimoiy to'lovning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda hisobot davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Sug'urta badallarining hisob-kitobi ro'yxatdan o'tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

To'lov quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- yagona ijtimoiy to'lov — har oyda, keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay;

- sug'urta badallari — ish haqiga pul mablag'lari olish uchun bankka hujjatlarni taqdim etish bilan bir vaqtida.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari sug'urta badallari miqdorini oyiga eng kam ish haqidan kam bo'limgan miqdorda, qoramollarni etishtirish bilan shug'ullanuvchi dehqon xo'jaliklarining a'zolari esa oyiga eng kam ish haqining 50 foizidan kam bo'limgan miqdorda belgilaydi. Dehqon xo'jaliklarining a'zolari sug'urta badallarini ixtiyoriy ravishda to'laydi.

Soliq kodeksining 311-moddasida yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari sug'urta badallari miqdorini oyiga eng kam ish haqidan kam bo'limgan miqdorda belgilangan. 2009 yil uchun Soliq byudjet siyosati kontsetsiyasiga muvofiq, yuridik shaxslar tashkil etgan va tashkil etmagan dehqon xo'jaliklar uchun to'lanadigan sug'urta badallarini ikki barobar kamaytirildi.

Bu esa, avvalgidek pensiyaga chiqishda to'qqiz minimal ish haqi to'lanmasdan, balki to'rt yarim minimal ish haqi to'langanda ish stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinishi imkonini beradi. Shuningdek, dehqon xo'jaliklar uchun sug'urta badallarini har oy emas, balki hisobot yilining 1 oktyabrigacha to'lash imkoniyatini beradi. Mazkur chora dehqon

xo'jaliklarining davlat ijtimoiy sug'urtalash tizimida qatnashish manfaatdorligini oshirishga qaratilgan.

Yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lган, shuningdek I va II guruh nogironlari bo'lган yakka tartibdagи tadbirkorlar hamda yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari uchun sug'urta badalining miqdori eng kam ish haqining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak.

Sug'urta badallarini to'lash har oyda keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

To'lov topshiriqnomasida (kirim orderida) soliq to'lovchining identifikatsiya raqami va to'lov to'lanayotgan davr albatta ko'rsatilishi kerak. Agar davr ko'rsatilmagan bo'lsa, to'lov u amalga oshirilayotgan oy uchun to'langan deb hisoblanadi.

## **10.2 Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar mexanizmi**

Soliq Kodeksining 52-bobiga esa byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar mexanizmi keltirilgan. Unga ko'ra, yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilari hisoblanadi.

Quyidagilar esa byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning to'lovchilari bo'lmaydi:

- notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno;
- yagona soliq to'lovini to'lovchi yuridik shaxslar.

Sof tushum byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan bazani tashkil etadi.

Soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan baza quyidagilardir:

- 1) kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari uchun — mahsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning) qo'shilgan qiymat solig'i va tegishinchalik issiqlik ta'minoti korxonalari uchun quvvatining, suv ta'minoti korxonalari uchun suvning, gaz ta'minoti korxonalari uchun tabiiy gazning xarid qiymati chegirib tashlangan holda realizatsiya qilingan hajmi;

2) qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun — o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishinchalish qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarining qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi qiymati;

3) vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi, shu jumladan tovarlarni sotish bo'yicha, vositachilik va topshiriq shartnomalari bo'yicha hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun — ko'rsatilgan xizmatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi pul mukofoti summasi;

4) savdo faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar uchun — tovar oboroti;

5) kredit tashkilotlari va sug'urta tashkilotlari uchun — daromad;

6) asosiy faoliyati mol-mulkni lizingga berishdan iborat bo'lган yuridik shaxslar uchun — moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi.

Boshqa daromadlar esa soliq solish ob'ekti sifatida qaralmaydi.

Soliq to'lovchilar turli xil soliq solish ob'ektlariga ega bo'lган hollarda, ular soliq solish ob'ektlarining alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli ob'ektlar uchun belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarini to'lashi shart.

Hisobot davri quyidagilardir:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun — yil choragi;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun — bir oy.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar har oyda soliq solinadigan bazadan va belgilangan 1.0 foiz stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan

kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarini to'lash hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshirilishi lozim.

### **10.3 Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlarni amalga oshirish tartibi**

Soliq Kodeksining XVI bo'limida Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlarni amalga oshirish ko'rsatib o'tilgan. Bunda to'lovchilar bo'lib yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari hisoblanadi.

Quyidagilar Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarining to'lovchilari bo'lmaydi:

- notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno;

- yagona soliq to'lovi to'lovchi yuridik shaxslar;

- ixtisoslashtirilgan yo'l xo'jaligi boshqaruvi organi tuzilmasiga kiradigan korxonalar, Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan umumiyl foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash, ta'mirlash, rekonstruktsiya qilish va qurish bo'yicha ishlarni bajarganlik uchun olingan daromadlar qismi bo'yicha.

Sof tushum Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarining soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan bazasidir.

Tarmoqlar bo'yicha Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarining soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan bazasi quyidagilar:

1) kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari uchun — mahsulotlarning (ishlarning,

xizmatlarning) qo'shilgan qiymat solig'i va tegishincha issiqlik ta'minoti korxonalari uchun issiqlik quvvatining, suv ta'minoti korxonalari uchun suvning, gaz ta'minoti korxonalari uchun tabiiy gazning xarid qiymati chegirib tashlangan holda realizatsiya qilingan hajmi;

2) qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun — o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarining qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi qiymati;

3) vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi, shu jumladan tovarlarni sotish bo'yicha, vositachilik va topshiriq shartnomasi bo'yicha hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun — ko'rsatilgan xizmatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi mukofot summasi;

4) savdo faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar uchun — tovar oboroti;

5) kredit tashkilotlari va sug'urta tashkilotlari uchun — daromad;

6) asosiy faoliyati mol-mulkni lizingga berishdan iborat bo'lган yuridik shaxslar uchun — moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi.

Boshqa daromadlar soliq solish ob'ekti sifatida qaralmaydi.

Soliq to'lovchilar turli xil soliq solish ob'ektlariga ega bo'lган hollarda, ular soliq solish ob'ektlarining alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli ob'ektlar uchun belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarни to'lashi shart.

Hisobot davri quyidagilardir:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun — yil choragi;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun — bir oy.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar soliq solinadigan bazadan va tasdiqlangan stavkadan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lash hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Respublika yo'l jamg'armasi yig'imlariga quyidagilar kiradi:

- avtotransport vositalarini olganlik va O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im;

- chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im.

Avtotransport vositalarini oluvchi va O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirishni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari avtotransport vositalarini olganlik va O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im to'lovchilardir.

Chet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki foydalanuvchilari ushbu vositalarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im to'lovchilardir.

Yig'imlar uchun soliq solish ob'ekti quyidagilar:

- avtotransport vositalarini olish va O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish;

- chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tish.

Soliq solinadigan baza quyidagilar:

- olingan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalarining qiymati;

- O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganida yoki uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganida chet davlatlarning avtotransport vositalari.

Avtotransport vositalarini olish va O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig'imni to'lashdan quyidagilar ozod qilinadilar:

1) ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan qo'l bilan boshqarishga moslashtirilgan yengil avtomobilni va motoaravachani oluvchi barcha guruhlardagi nogironlar;

2) ixtisoslashtirilgan savdo tarmog'idan O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan yangi avtomobil oluvchi fuqarolar, shuningdek yaqin qarindoshlaridan hadya shartnomasi yoki meros asosida avtomobillar va motoaravachalarni oluvchi fuqarolar;

3) umumiyl foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash, ta'mirlash, rekonstruktsiya qilish va qurishni amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan yo'l xo'jalik boshqaruvi organi tuzilmasiga kiradigan korxonalar — mazkur ishlarni amalga oshirishda bevosita foydalaniladigan avtotransport vositalari bo'yicha;

4) faoliyatining asosiy turi yo'lovchilar tashish bo'lgan, qonun hujjatlariga muvofiq yo'lovchilar tashish uchun belgilangan namunadagi litsenziyaga ega bo'lgan avtotransport korxonalari — yo'lovchilar tashishni amalga oshiruvchi transport vositalari bo'yicha (yengil avtomobillar va yo'nalishli taksilardan tashqari);

5) yuridik shaxslar — qirq tonnadan ortiq yuk ko'taradigan, olingan kon avtosamosvallari bo'yicha;

6) homiylik (beg'araz) yordami sifatida avtomobillarni olgan (sotib olgan) bolalar uylari, ixtisoslashtirilgan makkab-internatlar, qariyalar va kichik yoshdagi nogironlar uchun internat-uylar, shuningdek byudjet hisobidan moliyalashtiriladigan tibbiyot muassasalari;

7) yuridik shaxslar — avtotransport vositalarini bitta tizim (davlat va xo'jalik boshqaruvi organi) ichida balansdan balansga bepul o'tkazishda;

8) qayta tashkil etish natijasida avtotransport vositasini olgan huquqiy voris;

9) avtotransport vositalarini yuridik shaxslarga lizingga berish uchun oluvchi lizing beruvchilar.

Avtotransport vositalarini olganlik va O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im ular O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilayotganda, qayta ro'yxatdan o'tkazilayotganda quyidagi hollarda undiriladi:

1) avtotransport vositalari oldi-sotdi, almashtirish, hadya, bepul berish shartnomasi asosida, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa bitimlar asosida mulk qilib olinganda;

2) avtotransport vositalari yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda dividendlar sifatida olinganda;

3) avtotransport vositalari lizingga berish uchun olinganda. Yig'im taraflarning yozma kelishuviga ko'ra lizing beruvchidan yoki lizing oluvchidan undiriladi. Lizing beruvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan taqdirda, yig'im lizing oluvchidan undiriladi. Lizing shartnomasi muddati tugaganidan so'ng mazkur lizing (ikkilamchi lizing) shartnomasi predmeti bo'lgan avtotransport vositasi qayta ro'yxatdan o'tkazilayotganida takroran yig'im undirilmaydi;

4) avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganda.

2009 yilning 1 yanvaridan 323-moddaga kiritilgan o'zgartirish avtotransport vositalarini olganlik va O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'imni hisoblab chiqarishni soddalashtirish maqsadida, avvalgidek, yig'imni avtotransport vositasining qiymatidan emas, balki uning xizmat qilgan muddatidan kelib chiqqan holda dvigatelining ot kuchidagi quvvatidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqishni nazarda tutadi.

Avtotransport vositalarini olish va O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig'im to'langanligi to'g'risidagi hujjat taqdim etilmagan holda avtotransport vositalarini ro'yxatdan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish yoki texnik ko'rikdan o'tkazish amalga oshirilmaydi.

Chet davlatlar avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im chet davlatning avtotransport

vositasi O'zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganida undiriladi.

### **Qisqacha xulosalar**

Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar - pensiya, yo'l, maktab ta'limini rivojlantirish va boshqa jamg'armalarga ajratmalar va to'lovlarни bildiradi va bu to'lovlar soliqlar kabi barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiydir. Mazkur to'lovlar davlatning tegishli maqsadlarga xarajatlarni qoplash uchun zaururiy bo'lgan mablag'lar hisoblanadi.

### **Nazorat qilish uchun savollar**

1. Byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar va to'lovlarining joriy etishdan maqsad nimada?
2. Majburiy ajratmalar va to'lovlarining turlari qanday?
3. Majburiy ajratmalar va to'lovlarining to'lovchilari kimlar hisoblanadi?
4. Majburiy ajratmalar va to'lovlarining jamlanma byudjet daromadlaridagi hissasi qanday?
5. Majburiy ajratmalar va to'lovlarining stavkalari qanday va soliqqa tortiladigan ob'ekti nima?
6. Majburiy ajratmalar va to'lovlarining hisoblash va to'lash tartibi qanday?

## IZOHLI LUG'AT

**asosiy faoliyat turi** – yuridik shaxsning umumiy realizatsiya qilish hajmidagi tushum ulushi ustunlik qiladigan faoliyati;

**byudjetdan ajratiladigan subsidiya** – davlat tomonidan muayyan maqsadlar uchun byudjet hisobidan beriladigan pul mablag'lari;

**grant** – davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatga qarashli tashkilotlar tomonidan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Hukumi belgilaydigan ro'yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasiga, O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga beg'araz asosda beriladigan mol-mulk, shuningdek chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lмагan shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasiga hamda O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga beg'araz asosda beriladigan mol-mulk;

**dividendlar** – aktsiyalar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lган daromad; yuridik shaxs tomonidan uning muassislari o'rtasida (ishtirokchilari, a'zolari o'rtasida ularning ulushlari, paylari, hissalari bo'yicha) taqsimlanadigan sof foydaning bir qismi; yuridik shaxs tugatilganda mol-mulkni taqsimlashdan olingan, shuningdek muassis (ishtirokchi, a'zo) tomonidan yuridik shaxsda ishtirok etish ulushini (payini, hissasini) olgandagi daromadlar, bundan muassis (ishtirokchi, a'zo) ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida kiritgan mol-mulkning qiymati chegiriladi;

**ijara (lizing) to'lovi** – ijarachi (lizing oluvchi) tuzilgan ijara (lizing) shartnomasi asosida ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga) to'laydigan summa;

**ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) foizli daromadi** – buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan ijara (lizing) to'lovi summasi bilan ijara (lizing) ob'ektining qiymatini qoplash summasi o'rtasidagi farq ko'rinishidagi ijara (lizing) to'loving bir qismi;

**insonparvarlik yordami** – aholining ijtimoiy jihatdan nochor guruhlariga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy

soha muassasalarini qo'llab-quvvatlash, tabiiy ofatlar, falokatlar va halokatlar, epidemiyalar, epizootiyalar va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish uchun aniq maqsadli beg'araz ko'maklashish. Insonparvarlik yordami dori vositalari va tibbiy ahamiyatga molik buyumlar, xalq iste'moli tovarlari, boshqa tovarlar, shu jumladan asbob-uskunalar, transport va texnika, shuningdek ixtiyoriy ravishdagi xayr-ehsonlar, bajarilgan ishlarni va xizmatlar, shu jumladan insonparvarlik yordami yuklarini tashish, kuzatib borish va saqlash tariqasida beriladi hamda O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan vakolatli tashkilotlar orqali taqsimlanadi;

**ishlarni (xizmatlarni) eksport qilish** – ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) joyidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan chet davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi uchun ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish;

**kredit tashkilotlari** – tegishli litsenziyaga ega bo'lgan banklar, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari;

**kurs bo'yicha farq** – milliy valyutaga nisbatan chet el valyutasi kursining o'zgarishi munosabati bilan chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalarda vujudga keladigan (ijobiy, salbiy) farq;

**mol-mulk** – egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish predmetlari bo'la oladigan moddiy ob'ektlar, shu jumladan pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar hamda nomoddiy ob'ektlar. Ob'ektlarni mol-mulk jumlasiga kiritish fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi;

**oila a'zolari** – er (xotin), ota-onalar yoki farzandlikka oluvchilar va bolalar, shu jumladan farzandlikka olinganlar;

**operativ ijara** – moliyaviy ijara shartnomasi bo'limgan mulkiy ijara (ijaraga berish) shartnomasi asosida mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanishga berish;

**realizatsiya qilish** – sotish, ayrboshlash, beg'araz berish maqsadida tovarlarni jo'natish (topshirish), ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish, shuningdek garovga qo'yilgan tovarlarga bo'lgan mulk huquqini garovga qo'yuvchi tomonidan garovga oluvchiga topshirish. Hisobvaraq-fakturalar, ishlarni bajarilganligi yoki xizmatlar ko'rsatilganligi to'g'risidagi dalolatnomalar,

tovarlar jo'natilganligini (topshirilganligini), ishlar bajarilganligini, xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi kvitantsiyalar, cheklar va boshqa hujjatlar realizatsiya qilganlikni tasdiqlovchi hujjatlardir;

**royalti** – quyidagilar uchun har qanday turdag'i to'lovlar:

fan, adabiyot va san'at asarlaridan, shu jumladan elektron-hisoblash mashinalari uchun dasturlar, audiovizual asarlardan hamda turdosh huquqlar ob'ektlaridan, jumladan ijrolar va fonogrammalardan foydalanganlik yoxud ulardan foydalanish huquqini bergenlik uchun;

sanoat mulki ob'ektiga, savdo markasiga, dizayn yoki modelga, rejaga, maxfiy formula yoki jarayonga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi patentdan (guvohnomadan) yoxud sanoat, tijorat yoki ilmiy tajribaga taalluqli axborotdan (nou-xaudan) foydalanganlik uchun;

**savdo faoliyati** – qayta sotish maqsadida olingan tovarlarni sotishga doir faoliyat;

**soliq solishning soddalashtirilgan tartibi** – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdag'i soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo'llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi;

**soliq qarzi** – soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz summasi, shu jumladan ushbu Kodeksda belgilangan muddatida to'lanmagan moliyaviy sanktsiyalar;

**sof tushum** – tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'ini hamda aktsiz solig'i summalarini kiritmagan holda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum;

**sof foyda** – soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda;

**soliq to'lovchilarning identifikatsion raqami** (STIR) - soliq to'lovchining soliq idoralaridan ro'yxatdan o'tganligini ko'rsatuvchi dalildir. Bu raqam soliq to'lovchining tegishli hisobot va hisoblarini, boshqa xujjatlarini tez topishda yordam beruvchi sondir.

**tannarx** – mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatishda foydalilanadigan moddiy resurslarning, asosiy fondlarning, mehnat resurslarining, shuningdek tovarlar

ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa turdag'i xarajatlarning qiymat bahosi. Tannarx buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi;

**tovar oboroti** – muayyan davr ichida savdo faoliyatini amalga oshirish chog'ida tovarlarni sotishdan olingan (olinishi lozim bo'lgan), pulda ifodalangan mablag'lar;

**tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum** – realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun olingan (olinishi lozim bo'lgan) mablag'lar summasi, shu jumladan realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to'lash yoki qarzni uzish hisobiga tushadigan mol-mulk qiymati;

**tovarlarni eksport qilish** – O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tovarlarni, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, qayta olib kirish majburiyatisiz olib chiqish;

**to'lov manbai** – soliq to'lovchiga to'lovlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

**umidsiz qarz** – sud qaroriga binoan majburiyatlarning tugatilishi, qarzdorning bankrotligi, tugatilishi yoki vafot etishi oqibatida yoxud da'vo qilish muddati o'tishi oqibatida uzish mumkin bo'lмаган qarz;

**favqulorra holatlar** – taraflarning xohish-irodasi va harakatlariga bog'liq bo'lмаган, tabiat hodisalari (zilzila, ko'chkilar, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar), boshqa tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (urush holati, qamal holati, davlat manfaatlarini ko'zlab importni hamda eksportni taqiqlash va boshqalar) keltirib chiqargan muayyan sharoitlardagi favqulorra, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlar bo'lib, qabul qilingan majburiyatlar shular tufayli bajarila olmaydi;

**foizlar** – har qanday turdag'i qarz talablaridan olingan daromad, shu jumladan obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, shuningdek depozit qo'yilmalar va boshqa qarz majburiyatlaridan olingan daromad;

**yutuq** – lotereyalar, o'yinlar, tanlovlar, musobaqalar (olimpiadalar), festivallar va shu kabi boshqa tadbirdarda olingan,

natura holida yoki pulda ifodalangan to'lovlar, sovrinlar va boshqa daromadlar;

**yaqin qarindoshlar** – er, xotin, ota-onas, bolalar, tug'ishgan hamda o'gay aka-uka va opa-singillar, bobolar, buvilar, nevaralar;

**O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reestri** – soliq to'lovchilarga oid davlat ma'lumotlar bazasi tizimi;

**qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallar** – buyurtmachiga tegishli xom ashyo va materiallar bo'lib, buyurtmachi ularni mahsulot ishlab chiqarish uchun boshqa shaxsga sanoat asosida qayta ishlashga beradi hamda tuzilgan shartnomaga muvofiq mahsulot keyinchalik buyurtmachiga qaytariladi;

## **Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati**

### **Asosiy**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston 2005 yil.- 32 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi.-T.: «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami» nashriyoti, 2007 yil.- 211 bet.
3. O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonuni. -T.: “Xalq so'zi”, 1997 yil, 29 avgust.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2009 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida» gi 1024- sonli qarori.
5. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral.
6. Karimov I.A. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, o'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar». Toshkent, 2009 yil mart

7. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T.: O’zbekiston, 2009. – 24 b.
8. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Toshkent shahrining 2200 yilligiga bag’ishlangan tantanali majlisdagi nutqi. – T.:«Xalq so’zi» 2009 yil 4 sentyabr.
9. Karimov I.A. «Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim». – T.: «Xalq so’zi», 2006 yil 11 fevral.
10. Karimov I.A. «Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir». – T: «Xalq so’zi», 2005 yil 29 yanvar.
11. Karimov I.A. «Erishilgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo’lidan izchil borish – asosiy vazifamiz». «Xalq so’zi» 2004 yil 14 fevral.
12. Vahobov A . Jo’raev A.. «Soliqlar va soliqqa tortish», Darslik, T.: O’zbekiston, 2009.
13. Zavalishina I.A. «Soliqlar: nazariya va amaliyot» «Soliqlar va bojxona xabarlari» gazetasi kutubxonasi turkumi –Toshkent.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2005.-544 bet.
14. Yahyoev Q.A. "Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti", Darslik (qayta ishlangan)- Toshkent: 2003.-247 bet.
15. Yutkina.G.F. «Nalogi i nalogooblojeniya».-M: INFRA-M, 2004. 305s.
16. Goncharenko L.I., Praktikum po nalogam i nalogooblojeniyu. Uchebnoe posobie.-M.: «KnoRus», 2006. -277 s.
17. Nalogi i nalogooblojenie. 3-e izdanie. /Pod red. M.Romanovskogo i O.Vrublyovskoy. M. 2003,-560s.
18. Tyutyuryukov N.N. Nalogovye sistemy zarubejnyx stran: Evropa i SShA: Uchebnoe posobie. - M.: Dashkov i K, 2002,- 160s.
19. Xodov P.G.Nalogi i nalogooblojenie ekonomiki: Uchebnoe posobie. - M.: TEIS, 2003. -253 s.
20. Goncharenko L.I., Praktikum po nalogam i nalogooblojeniyu. Uchebnoe posobie.-M.: «KnoRus», 2006.
21. Xodov L.G., Popov V.I. Podoxodnoe nalogooblojenie fizicheskix lits (zarubejnyu oryt, rossiyskie problemy): Ucheb. posob.- M.: TEIS, 2004.- 96
22. Xodov P.G.Nalogi i nalogooblojenie ekonomiki: Uchebnoe posobie. - M.: TEIS, 2003.- 253 s.

23. Chernik D. Nalogi v tranzitnom ekonomike. Monografiya. – M.: «Yuniti», 2004.- 192 s.

### **Qo'shimcha**

24. Jo'raev T. «Soliq siyosatini takomillashtirish yo'lida». «Xalq so'zi». 2003 yil 20 sentyabr.
25. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida byudjet-soliq tizimining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy amaliy anjumani materiallari.-T.:TDIU, 2005 yil 14-15- dekabr. 310 bet.
26. Mingboeva X. Soliq tizimini takomillashtirishning ba'zi masalalari (Yaponiya tajribasi misolida). Yaponiya rivojlanish tajribasi-O'zbekistonda qo'llash istiqbollari. Seminar materiallari.T.: Jayka, 2005. 156-160 betlar.
27. «Soliqlar va bojxona xabarlari» gazetasi. 2006-2009 yil sonlari.
28. «Soliq to'lovchining jurnali» jurnali. 2006-2009 yil sonlari.
29. «Bozor, pul va kredit» jurnali. 2006-2009 yil sonlari.
30. «O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi» jurnali. 2006-2009 yil sonlari.
31. O'zbekiston Respublikasi soliq organlari faoliyatining 2004 yilgi natijalari.-T.: DSQ, 2005.
32. «O'zbekiston Iqtisodiyoti» statistik ma'lumotlar to'plami.-T.: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, 2007.
33. <http://www.nalog.ru> (Rossiya Federatsiyasi Davlat soliq xizmati sayti)
34. <http://www.soliq.uz> (O'zR Davlat Soliq qo'mitasi sayti)
35. <http://www.mf.uz> (O'zR Moliya Vazirligi sayti)
36. <http://www.budgetrf.ru> (Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi sayti)

**O.M.AZIZOV**

**“Davlat soliqlari va yig`imlari”**

Texnik muharrir A.Malyar  
Kompyuter grafikasi N.Xomidov

Bosishga ruxsat etildi 02.06.2010 yil.  
Qog`oz bichimi 84x108 1/32.  
Times TAD garniturasi. Nashr b.t. 30.  
Shartnoma № 692 - 2010. 100 nusxada Buyurtma № 1648

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti qoshidagi  
"Iqtisodiyot" nashriyoti, Toshkent shahri, O`zbekiston ko`chasi,  
49.